

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“O'ZBEKİSTONDA TARİXİY-DEMOGRAFIK
JARAYONLAR”
MODULI BO'YICHA USLUBİY MAJMUA**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

O‘zDJTU, t.f.d., prof D.Babajanova

Taqrizchilar:

t.f.d., prof. X.Yunusova
t.f.d., prof. R.Xoliqova

O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	12
III. NAZARIY MATERIALLAR	18
1. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati	18
2. O'zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o'zgarishlar: aholi o'sishi va joylashishi	33
3. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.	43
4. Ko'pmillatli O'zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari.	83
5. Mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri.	90
6. Globallashuv davrida O'zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida.	100
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	108
V. GLOSSARIY	114
VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	118

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Far-monlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda, dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishda O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar modulining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5655-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda 2022 yilda aholini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish natijasida barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini o‘rganish;
- pedagoglarning aholini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish natijasida respublika aholisi va uning farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumot ega bo‘lish;
- uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini, ya’ni ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish;
- O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta’siri;
- globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida;
- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida tarixiy-demografik jarayonlar va demografiya fanining rivojlanishi tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish ekanligi.

Demografiya fanining rivojlanish tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish. O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta’siri. Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari. Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi. Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik

jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari. Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri.

- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarning samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati;
- O‘zbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta’siri;
- globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi. Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari;
- mustaqillik yillari demografik jarayonlaridagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri;
- xalqaro tajribaga asosan aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma’lumotlarning aholini ro‘yxatga olish asosida olinishi;
- aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda keljakni prognoz qilish mumkinligi;
- aholini ro‘yxatga olish – bu mamlakat aholisining muayyan vaqttagi holatini bilish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko‘lamli tadbir bo‘lib, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbaidan foydalilaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmularini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyatda qo‘llash;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib, ilmiytadqiqotlarni o‘tkazish;
- eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarini ishlab chiqish;
- innovatsion faoliyatni tashkil etish; - ilg‘or tajribalardan foydalanish;
- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimini qo‘llash;
- mustaqil O‘zbekistondagi tarixiy-demografik jarayonlarning nazariy konseptual asoslari, O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar tarixi fanidagi ma’lumotlarning ta’lim tizimiga tatbiq etilishi, O‘zbekiston demografiyasi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar, O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston aholisi va uning farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumot asosida uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llashning ilmiynazariy va amaliy ahamiyatini bilish;
- mustaqil O‘zbekistondagi demografik jarayonlarning nazariy konseptual asoslari, O‘zbekiston demografiyasi tarixi fanidagi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tatbiq etilishi, ko‘pmillatli O‘zbekistonda demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar, O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish;
- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston tarixi fanining dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;
- O‘zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;

- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash; - videodarslarni tayyorlash;
- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;
- ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;
- mustaqil O‘zbekistondagi demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, demografiya fanining rivojlanishi tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalishning nazariy konseptual asoslari, innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tatbiq etilishi, yangicha qarash va yondashuvlarga oid zamonaviy manbalardan foydalana va tarixiy-demografik jarayonlarni tahlil qila olish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Modulni o‘qitish jarayonida uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini, ya’ni ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borishda qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” moduli mazmuni o‘quv rejadagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning nazariy jihatlarini tahlil qilish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida mustaqillik yillari amalga oshirilgan islohotlar, natijalar va muammolar, Yangi O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishini chuqrarroq o‘rganish va pedagogik amaliyotda qo‘llash kompetentligiga ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Жами	Назарий	Амалӣ машғулот	Кӯчма машғулоти
	1. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati		2		
2.	O‘zbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi		2	2	
3.	Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.		2	2	
4.	Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari.		2	2	
5.	Mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri.			2	
6.	Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida.			2	
Jami: 18 soat		18	8	10	

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati (2 soat).

1.1. Demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi.

1.2. Tarixiy demografiya – demografiya fanining rivojlanish tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish.

1.3. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikning milliy qadriyat ekanligi.

1.4. O‘zbekistonning jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatidagi o‘rni

2-mavzu. O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi (2 soat).

2.1. O‘zbekistonda mustaqillik arafasida demografik jarayonlarning holati: milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi, aholi bandligi va ishsizlik muammolarini.

2.2. Demografik jarayonlar milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omili.

2.3. Aholi tug‘ilishi, o‘limi, jinsi va yosh tarkibi hamda mehnat resurslarining miqdor jihatidan o‘zgarishlari va uning nazariy-konseptual masalalari.

2.4. O‘zbekistonda demografik jarayonlar va ularning o‘ziga xosligi. Ijtimoiy taraqqiyot va sog‘liqni saqlash sohasidagi muvaffaqiyatlar tufayli o‘lim darajasining keskin kamayishi, ammo tug‘ilishning yuqori darajasi saqlanib qolishi, tabiiy o‘sishning yuqoriligi.

3-mavzu. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida (2 soat).

3.1. Aholini ro‘yxatga olish tarixiga nazar.

3.2. Yangi O‘zbekistonda jamiyatdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ona va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga qaratilgan milliy urf-odatlarga asoslangan tadbirlarga alohida e’tibor qaratilishi.

3.3. O‘zbekistonda 2022 yilda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik jarayoni, uni o‘tkazish, uning natijalarini olish va e’lon qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tadbirlar.

3.4. Aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr

haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni prognoz qilish.

4-mavzu. Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari (2 soat).

4.1. Yangi O‘zbekistonda oilaning tashkil bo‘lishi va uning muntazamligiga demografik omillar – nikohga kirish, farzand tug‘ilishi va ajralishning bevosita ta’sir etishi.

4.2. O‘zbekistonda tug‘ilishning kamayib borishi, umr davomiyligining oshishi, ayollarga nisbatan erkaklarning kam hayot kechirishi muammolari.

4.3. Oilaning demografik taraqqiyotiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan biri nikoh va oilani mustahkamlash, uning tarkibi hamda rivojlanishiga bevosita ta’sir etuvchi ajrim masalalari.

4.4. O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish va demografik rivojlanishning asosiy muammolaridan biri aholi migratsiyasi masalasini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida (2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Ko‘pmillatli O‘zbekistonda demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri (2 soat).

5-amaliy mashg‘ulot. Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanadi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	<p>O'zbekistonda o'ziga xos demografik vaziyat vujudga keldi va u aholi o'sish sur'atining, shu bilan bir vaqtida aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushining ortishida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, O'zbekistonda demografik vaziyatning imkoniyatlardan unumli foydalanan, bu jarayonda jahoning rivojlangan davlatlari tajribasidan samarali foydalangan holda jahon hamjamiyatida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi.</p>	<p>Bir vaqt ni o'zida bir nechta yo'nalishda amalga oshiriladi...</p>
W	<p>Demografik jarayonlarning murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lib, mamlakat aholisi o'rtasidagi tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish va migratsiyada o'z aksini topadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi yosh tarkibida sezilarli o'zgarishlarni boshidan kechirgan va bu hamon davom etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sishning jadallashuvida aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar juda ahamiyatli ekanligini ko'rsatmoqda.</p>	<p>Demografik jarayonlar murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lib, mamlakat aholisi o'rtasidagi tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish va migratsiyada o'z aksini topadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi yosh tarkibida sezilarli o'zgarishlarni boshidan kechirgan va bu hamon davom etmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sishning jadallashuvida aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar juda ahamiyatli ekanligini ko'rsatmoqda.</p>


O	Demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati, shuningdek, demografiya fanining rivojlanish tarixinining o‘rganilishi	<p>Tarixiy demografiya demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, shuningdek, demografiya fanining rivojlanish tarixini o‘rganadi.</p> <p>Tarixiy demografiyaning ilmiy tadqiqot obyekti aholining ko‘payishi masalalarini tadqiq qilish bo‘lib, bunda hozirgi davr emas, balki o‘tmishdagи tarixiy bosqichlar tadqiq qilinadi. Aholi tarixini o‘rganish O‘zbekiston mustaqil bo‘lgandan keyin, yanada jadallahshdi.</p>
T	To‘siqlar (tashqi)	Mustaqillik yillarida O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-demografik holati, xususiyatlari, mehnatga layoqatli aholining mutloq yuqori darajada o‘sishi hamda yoshlar bandligini ta’minlash muammolari dolzarb masalalardan edi.

“LOYIHA” metodi

“Loyiha” metodi – bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtanazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta’lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o‘z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqgacha)

“INSERT” jadvali

Tinlovchilarda ma’ruzalar va mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma’lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog‘lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma’lumotlar oladi, ularni matnda qo‘yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Namuna: Insert jadvali

Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati

V	+	-	?

“V” - haqidagi bilimlarimga javob beradi; “+” - haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi; “-” - yangi ma'lumotlar
“?” - mavzuga oid tug'ilgan savollar

“Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruvi fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakliva mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash

2-bosqich: aniqlashtirish va topshirig‘ini belgilash	Keysni o‘quv	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyelerxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish		<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.		<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holati

REJA:

1. Tarixiy demografiya – demografiya fanining rivojlanish tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish..
2. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikning milliy qadriyat ekanligi
3. O‘zbekistonning jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatidagi o‘rni

Tayanch iboralar: demografiya, tarixiy demografiya, rejalashtirish, inqiroz, migratsiya, millatlararo totuvlik, milliy siyosat.

1.1. Tarixiy demografiya – demografiya fanining rivojlanish tarixini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish.

Demografik jarayonlar murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga bog‘liq bo‘lib, mamlakat aholisi o‘rtasidagi tug‘ilish, o‘lim, tabiiy ko‘payish va migratsiyada o‘z aksini topadi. Bugungi kunga qadar dunyodagi barcha mamlakatlar aholisining yosh tarkibida sezilarli o‘zgarishlarni boshidan kechirgan va bu holat hali ham davom etmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘sishning jadallashuvida aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar juda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda.

Demografik holat aholining umumiy sonida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining katta ulushi mavjudligi tufayli erishilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy o‘sishni tavsiflaydi. Ushbu holatda mamlakatdagi demografik vaziyat asosiy harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Tug‘ilish va o‘lim sonining kamayishiga qarab aholining yosh tarkibi ham o‘zgaradi. Tug‘ilishlar soni kamayganda mehnatga layoqatli yoshdagilari aholiga nisbatan voyaga yetmagan qaramoqdagilar soni ham kamayadi. Bu demografik holatda olinishi mumkin bo‘lgan fursat hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda o‘ziga xos demografik vaziyat vujudga keldi va u aholi o‘sish sur’atining, shu bilan bir vaqtda aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushining ortishida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, O‘zbekistonda demografik vaziyatning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Demografiya so‘zi grekchadan olingen bo‘lib, demos grapho – zamin, ya’ni “aholi haqida yozish” degan ma’noni bildiradi. Demografiya instituti 1919 yil Kiyevda, 1930 yil Sankt-Peterburgda ochilgan, lekin sobiq Ittifoq siyosati nuqtai-nazariga zid deyilib, 1934 yilga kelib faoliyatini to‘xtatgan. Lekin, keyinroq 1968 yil, yanvarida Moskva davlat universitetining iqtisod fakultetida “Ahlishunoslik” kafedrasi ochilgan. O‘zbekistonda 1972 yil Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) da Ahlishunoslik muamolarini o‘rganish labaratoriysi ochiladi. Birinchi bor **tarixiy demografiya** termini XIX asr oxirlarida Budapeshtda o‘tkazilgan demografiya va gigiyenaga bag‘ishlangan xalqaro kongresda, 1920-30 yillarda Italiyada ahlishunoslikni o‘rganuvchi qo‘mitada **tarixiy demografiyani** o‘rganuvchi komissiya bo‘lgan. **Tarixiy demografiyaning** paydo bo‘lishini V.I.Kozlov XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan degan. Keyinroq R.N.Pullat tarixiy demografiyaning paydo bo‘lishi XX asrning boshlarida degan fikrni aytgan. A.G.Vishnevskiy va I.S.Kon ta’kidlashicha **“tarixiy demografiyani ham yangi, ham yosh ilm tarmog‘i deb ta’kidlagan”**.

1752 yil angliyalik faylasuf va tarixchi D.Yum tarixiy demografiyaga oid o‘zining qarashlarini bayon qilgan. XX asr oxiri XXI asr boshlarida jahon fanlari tizimida yangi yo‘nalish vujudga keldi. Bu yo‘nalish hozirgi kundagi dolzarb muammolar yechimini beradigan, ikki tarmoq orasidagi bog‘lanish natijasida hosil bo‘lmoqda. Bularga kompter lingvistikasi, biotexnologiya, geofizika, tarixiy demografiya va shu kabi boshqa yo‘nalishlarni kiritish mumkin.

Mustaqillik davrida tadqiqtichilarning **tarixiy-demografiyak jarayonlarga** qiziqlishi ortib bordi. Ko‘plab tarixchi va demograf olimlar hamkorligidagi asarlar chop etildi. Demografik tarix XX asrning ikkinchi yarmida fan sifatida G‘arbiy Yevropada shakllandi. Har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnining to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy tarixiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘rganadigan fan. **Tarixiy demografiya** esa demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, shuningdek, demografiya fanining rivojlanish tarixini o‘rganadi. **Tarixiy demografiyaning** ilmiy tadqiqt obyekti

aholining ko‘payishi masalalarini tadqiq qilish bo‘lib, bunda hozirgi davr emas, balki o‘tmishdagi tarixiy bosqichlar tadqiq qilinadi. Aholi tarixini o‘rganish O‘zbekiston mustaqil bo‘lgandan keyin, yanada jadallahshdi. **Tarixiy demografiya fani** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jahon davlatlarida tarixchi va demograf olimlarning hamkorligida rivojlanib kelmoqda.

O‘zbekistonda tarixiy demografiyaning 1940 yillar yarmidan 1980 yillar oxirlarigacha bo‘lgan davr o‘ziga xos o‘ringa egadir. Bu davrda tarixiy jarayonlar nihoyatda qiyin kechgan. Buni biz, urush oqibatlarini tugatish, aholining turmush darajasini tiklashga urinish, iqtisodiy muammolarni bartaraf qilishga intilish va jamiyatda ijtimoiy munosabatlар keskinlashuvi millatlararo ziddiyatlar vujudga kelishi bilan bog‘liq. Bu hodisalar demografik jarayonlarga, aholi soni, yosh tarkibi, uning joylashuvi va o‘rtacha umr ko‘rish darajasiga ta’sir qilmay qolmaydi. Jamiyat rivojlanishiga bir necha o‘n yilliklar davomida demografik muammolar salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu jihatdan O‘zbekistonning XX asr ikkinchi yarmidan to hozirgi kungacha bo‘lgan **tarixiy demografiyasini** o‘rganish dolzarb mavzu bo‘lib hisoblanadi. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda hamo‘ziga xos aholishunoslik siyosati shakllanmoqda. O‘zbekistonda rasmiy demografik tarix 1897 yildan, ya’ni vatanimiz hududining bir qismida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatdan o‘tkazishdan boshlandi. Shu kungacha jami aholini ro‘yxatdan o‘tkazish mamlakatimizda olti marta (**1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989** yy.) amalga oshirilgan. Bu kabi aholishunoslik statistikasi bo‘yicha **O‘zbekistonda demografik tarix** fani rivoji uchun xizmat qiladigan ko‘p manbalar mavjud bo‘lib, tarixchilar ulardan yetarli foydalana olishlari zarur. O‘zbekiston barcha tarixiy bosqichlarda o‘zining demografik holati bilan alohida ajralib turgan va o‘ziga xos yo‘llarni bosib kelmoqda. Ammo sovet davrida o‘zbek xalqining xususiyatlari mutlaqo e’tiborga olinmagan edi. Mustaqillik sharofati bilan bu masala davlat e’tibori markazidagi mummolardan biriga aylandi. Bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib O‘zbekistonning barcha viloyatlardagi tarixiy-demografik jarayonlarni o‘rganish zaruriyati hisoblanadi. Aholishunoslik muammolarni yorituvchi adabiyotlar tahliliga ko‘ra, 1945 yildan to 1950 yillar oxirigacha bo‘lgan tarixiy bosqichda, O‘zbekistonda tarixiy demografiyanı o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmadi. Buning asosiy sababi, sovet jamiyatida demograf jarayonlarni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish cheklab qo‘yilgan edi. Tarixchi V.Z.Drobijevning fikrlarida ham ushbu xulosaga javob topishimiz mumkin. Unda “Demografiya o‘sha davrda mamlakat aholisini shunchaki hisobga olish bilan chegaralangan ediki, bu mazkur ilmiy tadqiqot rivojlanishiga ta’sir etmay qoldi” - degan edi. Aholi tarixini o‘rganish, shu qiyinchiliklar jarayonida ham to‘xtab qolmadı. Aholishunoslikka oid izlanishlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzilishiga mos holda olib borilib, demografik mavzu XX asrning 20-yillari bilan chegaralangan edi. Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda, aholi tinch hayot qurishga o‘tdi, urushga ketgan erkaklarning qaytishi minglab yangi oilalar paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu 1960 yillardan to 1970 yillar “kompensatsiya” yoki “to‘ldirish

davri” deb aholishunos olimlar nomlashdi. Shu tarzda aholining tez o’sishi 1970 yillar yarmiga qadar davom etdi. O’zbekistonda aholining ko‘payishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar vujudga keldi. Sovetlar davriga oid ilmiy ishlar jumlasiga Ziyadullayev S.K., Ubaydullayeva R.A., Qoraxonov M.K., Ata-Mirzayev O.B., Murtazayeva R.X., Mullajonov I.R., Isxakov I., Egamberdiyev A., Salimov X., Toshbekov E., Asonov G.R. ishlarida yoritildi. O’zbekistonda tarixiy demografiya fani XX asrning 60-yillaridan boshlab tez jadallahdi. Tarixiy demografik jarayonlarni o‘rganish orqali aholi migratsiyasi, mehnat resurslari bandligi, urbanizatsiya muammolarni talqin qilishda muhim bosqich hisoblanadi. Zero, **tarixiy-demografik jarayonlarning nazariy-konseptual nazariyasini o‘rganishni yanada rivojlantirsa, bu fanning mazmun-mohiyati yanada oshadi.**

Mustaqillik yillarida O’zbekiston yoshlaringning ijtimoiy-demografik holati, xususiyatlari, mehnatga layoqatli aholining mutloq yuqori darajada o’sishi hamda yoshlar bandligini ta’minalash muammolari dolzarb masalalardan edi. O’zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlarga nisbatan alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, ularga oid davlat siyosati izchil ravishda amaliy hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, O’zbekistonda bu davrda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog‘liqligida hisoblanadi. O’zbekistonda zamonaviy demografik vaziyatning xarakterli qirralaridan biri mehnatga layoqatli aholining mutloq yuqori darajada o’sishi bo‘lib, bu uning bandligini ta’minalash muammosini oshiradi. O’zbekiston Respublikasi o‘zining demografik holati bo‘yicha o‘ziga xos hisoblanadi. O‘rta Osiyoda O’zbekiston aholisi eng zich joylashgan mamlakat bo‘lib 36 foiz aholi shaharda va 64 foiz aholi qishloqlarda istiqomat qiladi. Aholining 39 foizini mehnatga layoqatli davrgacha yoshdagilar, 54 foizini mehnatga layoqatli va 7 foizini mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar tashkil etadi. Aholi soni 1991 yilda 20857,0 mln., 1995 yilda 22684,0 mln., 2000 yilda 24650,4 mln., 2005 yilda 26167,0 mln. kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2008 yilga kelib 27302,7 mln. kishi bo‘lgan holda, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 13417656 nafarni tashkil qildi¹. O’zbekiston Respublikasi aholisi 2008 yilda 27302700 kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan xotin-qizlar soni 13732064 kishini tashkil qildi. Aholining 1 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlari soni 17080000 ming nafar bo‘lib, shundan qariyb 9 mln. nafarini xotin-qizlar tashkil etdi. Yoshlarning 72 milliondan ortig‘i shaharlarda, 11 millionga yaqini esa qishloqlarda istiqomat qiladilar. 2019 yilga kelib O’zbekiston Respublikasi aholisi 32,5 million kishini tashkil qilayotgani va yoshlar asosiy kuch ekani muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Yoshlar” tushunchasini V.Pavlovskiy quyidagicha ta’riflaydi “Yoshlar-bu o‘smir va katta, balog‘at yoshidagi insonlarning umumiyligi o‘rtasidagi o‘tish holatini egallovchi 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo‘lgan kishilarning alohida biosotsial yosh guruhidir”. YUNESKO 17-25 yoshdagi shaxslarni, sotsiolog olimlar va iqtisodchilar 16-30 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni yoshlar jumlasiga kiritadilar.

S.N.Ikonnikova esa “Yoshlar 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarni o‘z ichiga oluvchi sinfiy va boshqa belgilari, jamiyatda ularning roli, faoliyat funksiyalari va turlari, shuningdek ma’naviy qiyofasi,

dunyoqarashi, qiziqishlari, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga muvofiq ichki tabaqalarga bo‘lingan ijtimoiy-demografik guruh hisoblanadi”, degan fikrni bildiradi. Rossiyaning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan fuqarolardir. Demograf olimlarning ma’lumotlariga qaraganda, respublikada tug‘ilish sur’ati hozirgi darajada qolsa, 2025 yilga borib aholi soni 34,7 million kishini tashkil qiladi. 2008 yilga kelib O‘rtta Osiyodagi mehnat resurslarining 40 foizi O‘zbekistonga to‘g‘ri kelmoqda. Aholi soni bo‘yicha O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchiligi o‘rinni egallaydi. Holatning kamdan-kam uchraydigan tomoni shundan iboratki, aholining 36,7 foizi 16 va ungacha bo‘lgan yosh guruhibiga kiradi. Solishtiradigan bo‘lsak, AQShda bunday kategoriyadagi aholi 24,3 foiz, Rossiyada esa 18,1 foizni tashkil qiladi. Tadqiqotchi I.M. Hasanovaning fikricha “O‘zbekistonda erkaklarning o‘rtacha yoshi – 23, ayollarning o‘rtacha yoshi – 24,4 ni tashkil etgan, nisbatan yosh aholiga ega bo‘lgan mamlakatdir. Aholining boshqa guruhlari ichida yoshlar alohida o‘rin tutadi, chunki u mehnat resurslari shakllanishining asosi hisoblanadi. 1999 yilda mehnatga layoqatli aholining 44-45 % ni 16-29 yoshlilar tashkil etgan”. 1991-2008 yillar davomida O‘zbekistonda mavjud aholi soni, aholining tug‘ilishi, o‘limi va tabiiy ko‘payishi o‘ziga xos ko‘rsatgichga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ko‘rsatkichning davrlar bo‘yicha qiyosiy tahlili mamlakatda mavjud aholi soni, tug‘ilishi, o‘limi va tabiiy ko‘payishining nisbatan barqaror bo‘lganligini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlar tahlili ko‘rsatishicha, 1991-2005 yillar davomida respublikada tug‘ilish ko‘rsatkichi muntazam kamaygan va bu ko‘rsatkich 1991 yilda 723,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yilda 677,7 ming kishi, 2000 yilda 527,6 ming kishi, 2005 yilda 533,5 ming kishiga teng bo‘lgan yoki 26,3% ga kamaygan. 2008 yilda esa 646 ming kishini tashkil etgan. Bu tendensiyani tug‘ilishning umumiyligi, maxsus va yig‘indi koeffitsiyentlarida ham kuzatish mumkin. Agar, 1991 yil respublikada tug‘ilishning umumiyligi koeffitsiyenti 34,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilda bu ko‘rsatkich 20,3% ga, tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti esa 4,19% dan 2,16% ga kamaygan. Ta’kidlash lozimki, tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayish tendensiyasi respublikaning shahar joylariga nisbatan qishloqlarida yuqori sur’atda bo‘lgan. Jumladan, 1991-2005 yillar mobaynida shaharda tug‘ilishning umumiyligi koeffitsiyenti 9,4 % ga kamaygan bo‘lsa, qishloqda esa 17,7 % ga kamaygan. Shahar aholisining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 0,9 foizga, qishloq aholisining esa 2,5 foizga teng bo‘lgan. Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda har qanday davlatning qudratini, jahon siyosiy maydonidagi mavqeini aniqlash uchun uning ma’naviyatiga, yoshlariga, mavjud imkoniyatlardan taraqqiyot uchun qay darajada foydalana olayotganligiga e’tiborni qaratishning o‘zi kifoya qiladi. Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab O‘zbekistonda yoshlarga doir siyosatning dolzarb ahamiyat kasb etganligi, davlat tomonidan bu borada muhim va samarali ishlar amalga oshirilayotganligi barchani quvontiradi. Bu jarayonda yoshlarning

ijtimoiy demografik holati va muammolarini tahlil etish, O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy ishlarda o'z yechimini topib bormoqda. O'zbekiston ijtimoiy demografik ahvolining tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakat aholi tarkibida yoshlar ko'pchilikni (64%) tashkil qiladi. Mamlakat ijtimoiy hayotida ham yoshlar asosiy kuch bo'lib, ular iqtisodiy-madaniy taraqqiyotda ham muhim rol o'yashmoqda.

2. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib dunyomiqyosida aholi migratsiyasi global tus olib, o'ziga xos madaniyat, hayot tarzi va tili bilan farq qiladigan diasporalar shakllandi. Yer yuzidagi mavjud davlatlarning ko'pchiligi polietnik xususiyat kasb etgan holda, etnik majorolar, oziq-ovqat, yer-suv tanqisligi, uy-joy, ishsizlik, ekologiyaning buzilishi kabi holatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Zero, har qanday davlat o'z hududida yashovchi turli millat va elatlar etnomadaniyatini, etnik, migratsion va demografik jarayonlarni hamda aholi etnodinamikasini o'rganib borishdan manfaatdor. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo'yicha jamg'armasi (UNFPA) tomonidan ijtimoiy rivojlanish sohalariga e'tibor qaratish, oilani rejalashtirish, aholiga huquqiy maslahatlar berish, mahalliy jamoalar bilan ishslash kabi muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida migratsiya, etnodemografik va etnoassimiliyatsion jarayonlarning tobora qizg'in tus olayotgani, turli millatlarning migratsion jarayonlardagi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, tashqi migratsiyaning millatlararo munosabatlarga ta'siri, turli mintaqalarda diasporalarning shakllanishi, aholi turmush darajasini yuksaltirish, inson qarishining iqtisodiy asoslari va genofond bilan bog'liq muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmoqda. Hozirgi kunda xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya jarayonidagi etnik va migratsion holatlar, millatlararo munosabatlар va demografik vaziyat, aholishunoslik va jamiyat taraqqiyotini mutanosiblashtirish yuzasidan keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar, aholi demografik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, uning millatlararo munosabatlarga ta'sirini atroficha ilmiy tahlil etish ehtiyoji borligini ko'rsatdi. "Mustaqillik yillarda mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvligini mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi". Shu bois, respublikada aholisi zinch joylashganligi bilan ajralib turadigan ayrim viloyatlar, jumladan Farg'ona vodiysi aholisi, demografik holati va uning millatlararo munosabatlarga ta'sirini alohida tahlil etish, barcha millat va elatlarning hayot darajasini yanada yuksaltirish, millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirish yo'naliшlarida ilmiy-tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF- 4947-soni
"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 19 maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 10

yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 5 fevraldagli PF- 5655-son “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2019 yil 15 noyabrdagi PF- 5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat etadi.

O‘zbekistonda tabiiy-geografik, iqtisodiy va ijtimoiy-demografik, aholi migratsiyasi va boshqa turli sharoitlarning mavjudligi respublikada mintaqaviy siyosat yuritilishini taqozo etadi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyotida aholi, xususan, inson omili masalasi, uning turmush tarzini hisobga olish davlat siyosatida ustuvor vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “...mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o‘sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda bunga erishish – avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu-bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi vazifamizdir”¹.

Darhaqiqat, respublikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mutaxassis olimlar tomonidan viloyat yoki viloyatlar darajasidagi ma’muriy-hududiy birliklarni 6 ta mintaqaga ajratadilar: Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati); Mirzacho‘l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari); Farg‘ona (Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari); Zarafshon (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari); Kuyi Amudaryo (Xorazm viloyati va QQR); Janubiy (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari)² mintaqalardir.

Tarixan O‘zbekiston tug‘ilish darajasi va aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi. Aholi sonining jadal ko‘payib borishi azaldan O‘zbekistonga xos xususiyat bo‘lib kelgan. Masalan, 1991 yili Respublika aholisi soni 20607,7 nafarga¹, 2011 yilda 28453,8 ming kishiga teng bo‘lgan bo‘lsa², 2016 yilga kelib esa, bu ko‘rsatkich 32120,5 ming kishidan ortib ketdi³(1-ilova). Tarixan qisqa bo‘lgan shu davr ichida mamlakat aholisi qariyb 12 million kishiga yoki 55,9 foizga ko‘paydi. Binobarin, O‘zbekistonda 1991-2016 yillarda aholi soni o‘sish sur’ati 153,2 foizga, o‘rtacha yillik ko‘payish 1,7 foizni tashkil etdi. Tadqiq etilayotgan yillarda tug‘ilish va tabiiy ko‘payish darajasidagi pasayish hamda migratsiya oqimining manfiy ko‘rsatkichlari oqibatida Respublika aholisi o‘sish sur’ati keskin kamaydi. Jumladan, mamlakat aholisining o‘rtacha yillik ko‘payishi 1990-1995 yillarda 2,15 foiz, 2010-2015 yillarda 1,70 foizga teng bo‘lgan holda muntazam pasayib bormoqda⁴. Mamlakat qishloq aholisi soni va salmog‘i qator yillarda katta

ko‘rsatkichlarni tashkil etgan bo‘lsa ham, uning o‘rtacha yillik ko‘payish sur’ati yildan-yilga muntazam qisqarib borishi kuzatiladi. Albatta, aholi o‘rtasida serfarzandlikka moyil bo‘lgan o‘zbeklar va mahalliy millat vakillari ko‘pchilikni tashkil etadi, o‘zbeklar e’tiqod qiladigan islom dini ham, asrlardan beri shakllanib kelgan urf-odatlar ham ko‘p bolalikni qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqimizning nikohni muqaddas deb hisoblashi va oila qurib, farzand ko‘rishga intilishi o‘zbek oilalarida tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishiga olib keluvchi omillardandir⁵.

Aholi dinamikasida tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migratsiya kabi demografik jarayonlarni turli jihatlarini ham e’tiborga olish talab etiladi.

Chunonchi, respublikahududlari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan tashkil topgan edi. Bu jarayonaholining demografik vaziyatida bevosita ko‘zga tashlanadi. Zero, mamlakatning har bir mintaqasi o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlarning borishi, geografik joylashuvi, tabiiy shart-sharoiti, ishlab chiqarishi hamda demografik salohiyati, jumladan, aholi zichligi, ular rivojlanishini ta’minlovchi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi.

1.2. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikning milliy qadriyat ekanligi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda bag‘rikenglik, hamjihatlik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasi davlat siyosatining muhim vazifalaridan biriga aylanib ulgurgan. Zero, 2018 yilning 15 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o‘z tashabbusi bilan Qozog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi chog‘ida mazkur masalaga alohida to‘xtalib: “Tariximiz mushtarakligi va o‘zaro yaqinligimiz hozirgi dunyoning murakkab muammolarini birgalikda hal etish, biz uchun umumiylahidagi qarshi samarali kurashish, yangi avlodlar uchun kalajakni birgalikda qurishda yordam bermoqda. Biz – qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar va o‘zbeklar, go‘zal Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillari birgalikda tinch-totuv, do‘stinoq bo‘lib yashashimiz taqdirning o‘zi tomonidan belgilab berilgandir”¹, deya ta’kidlagan ham bejiz emas.

Tariximiz, eng avvalo xoki poklari O‘zbekiston tuprog‘ida yotgan ne-ne mutafakkir zotlar, buyuk siymolarimiz, xalq orasidan chiqqan va shu omma taqdiri bilan hamnafas ulug‘ ajdodlarimiz hayot yo‘lida, ularning Vatan oldidagi benazir xizmatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, xalqimiz mintaqa va jahon dini va madaniyati rivojiga azaldan beqiyos hissa qo‘shib keladi. Shu bilan birga, insonparvarlik va ezgulik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ma’naviy merosni asrab-avaylash va boyitib borishga hamda qo‘shni davlatlar xalqlari bilan yanada yaqinlashishga harakat qilmoqda. Ana shu ezgu niyat va maqsadlar yo‘lida astoydil ish olib borayotgan Prezident Markaziy Osyo

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonda O‘zbekiston yili ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi // Xalq so‘zi. 2018. 16 mart. № 52 (7010).

xalqlari o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘snnichilik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik solnomasida yangi sahifa ochdi.

Ko‘p asrlik, tarixan tarkib topgan do‘stlik, yaxshi qo‘snnichilik, insonparvarlik munosabatlari, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikning turli jihatlarini izchil tahlil etish mustaqillikka erishgan hozirgi vaqtida amalga oshirilayotgan milliy manfaatlarni takomillashtirish, salbiy hodisalarining paydo bo‘lish xavfini o‘z vaqtida anglab yetish, mintaqada yashab turgan barcha millat va elatlarni jipslashtirish, ular o‘rtasidagi hamjihatlik, osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlashdagi ishlarning amaliy samarasini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish borasidagi vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir. Xalqimiz insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, sahovat va muruvvat, bag‘rikenglik singari xalqimizga xos bo‘lgan fazilatlarning nozik kurtaklarini asrlar bo‘yi avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistoni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratilmoqda.

Bugun mamlakatimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiylarini madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda insonparvarlik va ezgulik g‘oyalari yo‘g‘rilgan milliy merosimizni avaylab-asrash, boyitish va rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Shunda biz, o‘tmishdagidan buyuk zotlarimiz: Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Imom al-Moturidiy, Mahmud Zamashshariy, Burhoniddin an-Marg‘inoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoni va shular kabi bobolarimiz vasiyatlari va o‘gitlarini hamda ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyani yoshlar ongiga tezroq yetkaza olamiz hamda ularning ilmga, tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshiramiz.

Prezident SH.Mirziyoyev 2017 yilning sentabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga doir strategik qarashlarini batafsil bayon qilib, “bizning bosh maqsadimiz – umumiy say-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyon barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat”², deb ta’kidlagan edi. Zero, Markaziy Osiyo mamlakatları xalqlarini ko‘p ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘snnichilik rishtalari, tarix, din, umumiy madaniyat va an’analalar birlashtirib, bog‘lab turadi. Har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyodagi obro‘-e’tibori, avvalo, shu el-yurtda qaror topgan tinchlik-osoyishtalikka, shu yerda yashayotgan barcha millat va elat vakillarining totuvligiga bog‘liq. Shuning uchun ham, millatlararo totuvlik,

hamjihatlik va bag‘rikenglik hozirgi kunda

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvidanutqi// Xalq so‘zi. 2018. 16 mart.

mintaqaviy hamkorlikni yanada keng ko‘lamda rivojlantirish uchun butunlay yangi imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda etnik o‘ziga xosligi, tili, urf-odat va an’analarni har tomonlama rivojlantirish va o‘zaro boyitish uchun teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lgan 136 millat va elat vakillari do‘stlik va inoqlikda hayot kechirmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar”³, – deb belgilab qo‘yilganligi, ko‘pmillatli xalqimiz o‘rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun yaratilgan zamindir. Prezident SH.Mirziyoyev: “Bugungi kunda mamlakatimizda 130dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv hayot kechirayotgani – istiqlol davrida erishgan eng muhim yutuqlarimizdan biridir. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 137 ta milliy madaniy markazning o‘rni beqiyos ekanligini inobatga olgan holda, millatlararo do‘stlik va totuvlikni mustahkamlash kelgusida ham siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi”, deb ta’kidlangani ham bejiz emas.

Mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta’minalash uchun barcha huquqiy asoslar hamda zarur shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va yanada mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrdagi 28-sessiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya qabul qilindi. Shu kundan e’tiboran 16 noyabr sanasi Xalqaro bag‘rikenglik kuni sifatida butun dunyoda, shujumladan, mamlakatimizda ham keng nishonlab kelinadi. Bag‘rikenglikdan asosiy ko‘zlangan maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni saqlashga undashdir. Mazkur deklaratsiyada ta’kidlanganidek: “Bag‘rikenglik bo‘lmasa tinchlik bo‘lmaydi, tinchiksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi”⁴. Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi nafaqat dindorlarning, balki, butun jamiyat a’zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Azal-azaldan yurtimizning yirik shaharlarida turli diniy idoralar o‘z ibodatchilariga emin-erkin xizmat ko‘rsatib kelgani, tariximizning og‘ir sinovli damlarida ham diniy asosda mojarolarning chiqmaganligi xalqimizning dinlararo bag‘rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham O‘zbekistonda

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. –B.9.

⁴ Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro moyoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004. – B.92.

tom ma'noda bag'rikenglikning yuksak an'analariga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoxda. Bu borada shuni ta'kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida bir guruh xorijlik sotsiologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot asosida "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari – 2018" (World Happiness Report) reytingi e'lon qilindi. E'tiborli jihat shundaki, ushbu ro'yxatda O'zbekiston 158 mamlakat orasida 44-pog'onada, Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida esa birinchi o'rinda qayd etildi⁵. Bu bejiz emas. Chunki keyingi bir yarim yil ichida odamlarning dunyoqarashi, tafakkuri va turmush tarzida qanday o'zgarishlar yuz berayotgani haqida, O'zbekistonning jahondagi bugungi mustahkam o'rni, obro'-e'tibori, xalqaro hamjihatlikka qo'shayotgan hissasi

to'g'risida nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo
jamoatchiligi, taniqli ekspertlar, xalqaro tadqiqotlar markazlari
mutaxassislari ham yuksak e'tirof etmoqdalar.

Hech shubhasiz, O'zbekistondagi diniy va millatlararo totuvlikni saqlashga doir yuksak insonparvar siyosat, jamiyatdagি barqarorlik, o'zaro hurmat, hamjihatlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, muruvvat va shafqat, saxovat muhiti dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun havas qilishga va namuna bo'lishga arzigulikdir. Shu bilan birga, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, hamjihatlik – tinchlik, ma'rifat, yuksak ahloq-odob ifodachisi sifatida vaqtlar o'tgan sayin, zamonlar kechgan sayin yulduzdek yarqirab, chiroy ochaveradi, fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy mezonlaridan biri bo'lib qolaveradi, kelajagi buyuk bo'lgan barkamol avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda muhim omil hamda yurtimiz taraqqiyoti va tinchligining garovi sifatida xizmat qilaveradi.

1.3. O'zbekistonning jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatidagi o'rni

Aholi migratsiyasimasalasi O'zbekistonning demografik rivojlanishidagi eng asosiy muammolardan biri bo'lib, nafaqat demograflarning, balki siyosatchilar, iqtisodchilar va deyarli barcha ijtimoiy-gumanitar soha vakillarini qiziqtirib kelmoqda. Aynan aholi migratsiyasi O'zbekistonda 90-yillardagi demografik jarayonlarning borishini belgilab beradi.

Aholi migratsiyasi masalasi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb va munozarali mavzulardan hisoblanadi, ayniqsa hozirgi mafkuraviy cheklashlar olib tashlangan va bu jarayonlarni xolisona baholash imkoniyati paydo bo'lgan bir paytda bu muammolarga katta e'tibor berilmoqda. Oxirgi 10-15 yil ichida migratsion jarayonlarda muhim o'zgarishlarning sodir bo'lishiva xilma-xilligi ilmiy qiziqishning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida aholi sonining ko'payishi, asosan, tabiiy o'sish hisobiga bo'lmoqda. Chunki, 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekiston aholi migratsiyasida manfiy saldoga ega, ya'ni respublikaga ko'chib kelgan aholiga nisbatan ko'chib ketgan aholi soni ustun bo'lib kelmoqda. Migratsiya,

⁵O'zbekiston – MDHdagi eng baxtli mamlakat//Xalq so'zi. 2018. 16 mart.

ayniqsa, sobiq Ittifoqning parchalanishi arafasida kuchaydi va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tobora keskinlashuvi bu oqimni yanada ko‘paytirdi.

O‘zbekiston aholisining 1991-2000 yillardagi umumiy o‘sishi tahlil qilinsa, qishloq aholisi umumiy soni bo‘yicha ham, tabiiy o‘sishi bo‘yicha ham shahar aholisidan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganligi, shu bilan bir vaqtida migratsiya manfiy saldosi bo‘yicha qishloq shahardan ortda qolganligi ko‘rinadi.

90-yillarda ham O‘zbekistonda qishloq aholisi migratsiyasining manfiy saldosi shaharga nisbatan ortib borganligi kuzatiladi. Jumladan, 1996, 1997 va 1998 yillarda qishloq aholisi migratsiyasining manfiy saldosi shahar aholisiga qaraganda tegishli ravishda 1,8; 3,0 va 2,6 baravar ko‘paygan.

O‘zbekistondagi demografik jarayonlarda aholi migratsiyasining roli masalasida ikki asosiy yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin. Bu yo‘nalishlar bir-biridan nafaqat ahamiyati, balki miqyosi jihatidan ham sezilarli farq qiladigan ichki va tashqi migratsion oqimlardir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi (mamlakatlararo, xalqaro) migratsion aloqalar sovet davridagi cheklashlar olib tashlanganligi sababli ichki migratsiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Ilgari bu aloqalar, asosan, Rossiya va qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib uning miqyosi birmuncha kengaydi. Bu migratsion oqimda yiliga respublikaning o‘n minglab aholisi ishtirok etmoqda.

Aholi tarkibida bolalar va o‘smirlarning ko‘pligi demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatidir. Ma’lumki, bolalar va o‘smirlar davlat tomonidan himoyaga, ayniqla, muhtojdirlar. 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar Rossiya va Belorussiyada 24 %dan sal ko‘proqni, Qozog‘istonda 33,2 %ni tashkil qilsa, O‘zbekistonda esa 43,1 %ni tashkil qiladi. Respublikadagi jami aholining yarmidan ko‘prog‘ini – bolalar, o‘quvchi-yoshlar, nafaqadorlar tashkil etadi. Aholi orasida ko‘p bolali oilalar sonining yuqoriligi O‘rta Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlar kabi O‘zbekistonga ham xos xususiyatdir. Respublikada oilaning o‘rtacha soni 5,5 kishidan iborat, bir qancha viloyatlarda esa 6 kishidan oshadi, bu ko‘rsatkich MDHning Yevropa qismidagi mamlakatlarda 3,2 kishini tashkil etadi.

Aholining 60 %idan ko‘prog‘i qishloq joylarida istiqomat qiladi va asosan dehqonchilik bilan mashg‘uldir. Ajodollarining an‘anaviy yashash joylariga bog‘langanlik aksariyat respublika aholisiga xos bo‘lib, bu hol mehnat bozorini shakllantirish muammolariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

O‘zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining tamoyillaridan biri, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazish, bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta’sirchan choralar ko‘rilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu qoidalar O‘zbekistonning o‘z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga asos qilib olingan bo‘lib, o‘tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-

siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo‘lidan izchil harakat qilishni ta’minlaydi.

80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol sezilarli darajada og‘ilashib ketdi. O‘z navbatida bu ahvol mamlakatning demografik holati va keyingi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Sobiq Ittifoq tanazzulga uchragan paytda respublikada bolalar va onalar o‘limi darajasining yuqoriligi va aholini ijtimoiy himoyalash sohasining og‘ir ahvolda ekanligi demografik sharoitning noxush ahvolga tushib qolishiga olib keldi.

90-yillarga kelib, O‘zbekistondagi demografik o‘sish sur’atlari asta-sekinlik bilan pasayib bordi va 90-yillar o‘rtalaridan boshlab aholi sonining yillik o‘rtacha o‘sishi 1,8-1,9 %ni tashkil etdi (masalan, 70-yillarda 2,9 %ni, 80-yillarda 2,6 %ni, 90-yillarning boshlarida esa 2,2 %ni tashkil etgan).

XX asrning oxirgi o’n yilligida respublikada demografik o‘sish tendensiyasining pasayishi ko‘zga yaqqol tashlandi. Bunga ayniqsa, tug‘ilish darajasining pasayishi va 80-yillarga nisbatan tashqi migratsiyaning o‘sib borishi sabab bo‘ldi. O‘zbekistonda tug‘ilish darajasi uzoq yillar davomida yuqori darajada bo‘lib kelgan ediki, uning sezilarli darajada pasayishini, xatto mutaxassislar ham oldindan taxmin qilolmasdilar. Aksincha, 70-yillarda ko‘pchilik mutaxassislar 2000 yilga kelib, respublika aholisi 28-28,5 mln. kishiga yetadi, deb taxmin qilgan edi^[11]. 90-yillar oxirlarida O‘zbekiston aholisi, avvalambor, tabiiy o‘sish hisobiga ko‘payib bordi. Respublikada har yili 600 mingdan ortiq bola tug‘ilib, tug‘ilish koeffitsiyenti 25-27 %oni tashkil etdi. 80-yillarda bu ko‘rsatkich 35-37 %oni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, tug‘ilish darajasi yil sayin pasayib bormoqda.

O‘zbekistondagi demografik vaziyatning tasnifi migratsion jarayonlar tahlilisiz to‘liq bo‘lmaydi. Bu jarayon murakkab bo‘lib, maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Avvalo, respublika aholisining migratsion harakatchanligi nisbatan past darajada ekanligi bilan xarakterlanadi. Asosiy migratsion oqimlar qishloqdan shaharga va shaharlararo yo‘nalishga ega bo‘lib, unda ayniqsa, Toshkent shahri alohida o‘rin tutadi. 80-yillar oxiri 90-yillarning boshlarida migratsion jarayonlar, asosan, oilaviy xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 90-yillarning oxirlariga kelib, migratsion oqimlarning tarkibini asosan mehnatga layoqatli aholi va yoshlar tashkil etdi.

O‘zbekiston boshqa respublikalar bilan migratsion almashinuvda 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab manfiy saldoga ega bo‘lib, uning mutlaq miqdori 90-yillar boshlarigacha ortib borgan. Bunga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatgan, jumladan, respublika aholisining migratsion harakatchanligining o‘sishi, sobiq Ittifoqning bir qator hududlarida ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojning ortishi va uning asosan O‘rta Osiyo aholisi hisobiga to‘ldirilishi hamda Rossiya va boshqa respublikalardan ko‘chib keluvchilar sonining kamayishi ham ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekistondagi migratsion vaziyat jahon miqyosida olib qaralganda tinch va barqaror ko‘rinishga ega bo‘lib, sobiq Ittifoqning parchalanishi davrida mamlakatdagi migratsion jarayonlarda inqirozli holatlar yuzaga keldi. Bunday

holat mustaqillik yillarida barham topib, birmuncha osoyishtalik yuzaga keldi.

Migratsiya aholining soni va tarkibiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston'dagi tashqi migratsiya jarayoni aholi o'sish sur'atlarining pasayishiga sabab bo'lmoqda, chunki respublikadan ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar sonidan ustun bo'lib keldi (ilova 7-jadval).

Shuni ham ta'kidlash kerakki, aholining respublikadan chetga ko'chib ketishi "qayta qurish"dan ancha ilgari boshlangan edi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan paytda migratsion jarayonlarning sur'ati pasayib bordi, respublikadan aholi ko'chib ketishining eng yuqori ko'rsatkichi 1989 va 1990 yillarga to'g'ri keladi. Buni 1989 yilda Farg'ona vodiysida ro'y bergan mesxeti turklari bilan bog'liq voqealarga mahalliy bo'lмагan aholining javob harakati deb qarash mumkin^[2]. Keyingi yillarda esa bu ko'rsatkichlar ancha pasayib ketdi.

Mustaqillikka erishilgach, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda jamiyatda saqlanib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy yakdillik va millatlararo nizolarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan davlat siyosatining izchil amalga oshirilganligi asosiy rol o'ynadi. Buning natijasida 90-yillarning o'rtalariga kelib aholining ko'chib ketishi yiliga 70-80 ming kishini, keyingi yillarda 50-60 ming kishini tashkil etdi. 1990 yilda esa bu ko'rsatkich 180 ming kishini tashkil etgan edi^[3].

90-yillarning oxirida migratsion oqimlarning barcha asosiy yo'nalishlarida migratsiya miqdorining pasayishi kuzatiladi, jumladan, migratsion jarayonlarda 1995 yilda respublika jami aholisining 1,2 % i ishtirok etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1996 yilda 1,0 % ni, 1999 yilda esa 0,7 % ni tashkil etdi^[4]. 1996-2000 yillarda qishloqdan shaharga ko'chib kelish 1,2 marta, shaharlararo migratsiyalarning yalpi hajmi 1,5 marta, qishloqlararo migratsiya 2,2 marta, tashqi migratsiya esa 3,5 marta kamaydi^[5]. Migratsiya ko'rsatkichining pasayishi hozirgi paytda migratsion jarayonlarning barqarorlashganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, XX asrning oxirgi o'n yilligida ko'chib kelganlarning ham, ko'chib ketganlarning ham soni, binobarin, migratsiyaning yalpi hajmi ham izchil pasayib bordi. Bu holat, ichki va tashqi migratsiya oqimlarida ko'zga tashlanadi (10 yil ichida ichki migratsiya 1,5 marta, tashqi migratsiya 4,8 marta kamaygan). Tashqi migratsiya oqimlaridan asosan xalqaro migratsiya hajmi (6,6 marta) pasaydi^[6], bunga sabab migratsiyaning bu oqimida asosiy ishtirokchi bo'lgan ayrim millatlar (yahudiy va nemislar)ning katta qismi ilgariroq ko'chib ketganlidir.

O'zbekistonda 90-yillarda aholi migratsiyasining yalpi hajmida ichki migratsiyaning darajasi ortib, tashqi migratsiya darajasi esa pasayib bordi, bu oldingi davr bilan taqqoslansa yaqqol ko'rindi: 70-yillarda 50-55 % ini, 80-yillarda 60-62 % ini, 80-yillarning oxiri va 90-yillarda esa 68-70 % ini tashkil etgan^[7].

90-yillarning 2-yarmida tashqi migratsiya darajasining pasayishiga qaramasdan, u respublika aholisi sonining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi (ilova 8-jadval).

O'zbekiston aholisining migratsiyasida Markaziy Osiyo davlatlari asosiy o'ren egallar edi. Ayniqsa, ular ichida Qozog'iston bilan bo'lган almashinuv alohida ajralib turar edi. O'zbekiston aholisining tashqi migratsiyasidagi umumiy hajmning 12-13 % i Qozog'iston hisobiga to'g'ri kelgan^[8]. Ayni paytda, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan migratsion aloqalar miqdor jihatidan past darajada edi, lekin aholi almashinuvidagi musbat saldo faqat Tojikiston Respublikasi bilan kuzatilgan.

Tashqi migratsion oqimlarni migratsiya yo'nalishiga ko'ra ikki guruhga: respublikalararo, ya'ni, O'zbekistonning MDH va Boltiqbo'yи davlatlari bilan bo'lган aloqalari hamda xalqaro, ya'ni, jahonning boshqa davlatlari bilan bo'lган aloqalarga bo'lish mumkin.

Umuman, 90-yillar davomida O'zbekiston tashqi migratsion aloqalarda manfiy saldoga ega bo'lgan. 1990-1999 yillarda tashqi migratsiyaning rivojlanishi natijasida O'zbekistondan 853,3 ming kishi ko'chib ketgan, migrantlarning asosiy qismi (80 %i) MDH va Boltiqbo'yи davlatlariga to'g'ri kelgan. 90-yillarning oxiriga kelib, xorijiy davlatlar bilan migratsiyaning yalpi hajmi yiliga 6-8 ming kishini tashkil etgan, 90-yillarning boshlarida esa bu ko'rsatkich 26-30 ming kishiga teng edi^[9].

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi migratsiya jarayonlari, ayniqsa, 90-yillarda keng ko'lamli bo'lgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1990-2000 yillar oralig'ida O'zbekistondan Rossiyaga 647,7 ming kishi ko'chib ketgan. 90-yillardagi O'zbekistondan bo'lган migratsiya yosh tarkibiga ko'ra oldingi davrlardagidan farq qilardi. Shu davrda O'zbekistondan ko'chib ketgan 800 mingdan ortiq kishining 60-65 %ini mehnatga layoqatli yoshdagি kishilar tashkil etgan^[10]. Bundan oldingi davrlarda o'quv migratsiyasi ustun bo'lib, migratsion oqimni yoshlar tashkil etardi, umuman olganda, migrantlarning 85 %i mehnatga layoqatli kishilardan iborat bo'lgan^[11].

90-yillardagi migrantlar esa yosh jihatidan birmuncha farq qilardi. Migrantlar orasida nafaqa yoshidagi kishilarning ulushi ortib borgan, bu esa migratsiya ko'p hollarda oilaviy tus olganligidan dalolat beradi. Migrantlarning bilim darajasiga ko'ra ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bu davrda O'zbekistondan ko'chib ketganlarning katta qismini kasbiy tayyorgarlik va yuqori malakaga ega bo'lgan kishilar tashkil etgan^[12].

Aholi migratsiyasi, bundan tashqari, O'zbekiston aholisining milliy tarkibiga ham ta'sir qildi. O'zbekiston aholisining milliy tarkibida azaldan mahalliy aholi asosiy qismni tashkil etib kelgan. 1989 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, respublikada o'zbeklarning soni 14142475 kishi (umumiy aholi sonidagi ulushi 71,4 %)ni, qoraqalpoqlarning soni esa 411878 kishi (2,0 %)ni tashkil etgan^[13]. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining 32,1 %ini qoraqalpoqlar, 32,8 %ini esa o'zbeklar tashkil etardi^[14].

O'tgan yillarda turli millatlarning ham tabiiy, ham mexanik o'sishidagi farqlar hisobiga mahalliy aholining soni va ulushi sezilarli oshdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilga kelib, o'zbeklarning soni 19 milliondan, qoraqalpoqlarning soni esa 580 mingdan ortib, respublika aholisining umumiyligi sonidagi ularning ulushi tegishli ravishda 77,7 % va 2,4 %ni tashkil etdi^[15].

Ma'lumotlarga ko'ra, o'zbeklar va qoraqalpoqlarning migratsion harakatchanligi O'zbekistonda yashovchi ruslar va ukrainlarning harakatchanligiga nisbatan 4-6 marta past bo'lganligini kuzatish mumkin. Qishloq aholisining migratsion harakatchanligi esa shaharliklarga nisbatan 2-3 marta pastroq bo'lgan. 1989 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, qishloqda o'zbeklarning deyarli 90 %i tug'ilgan joyida yashardi, shaharliklar orasida bu ko'rsatkich 79 %ni tashkil etardi^[16].

90-yillardagi tashqi migratsiya, ayniqsa, Toshkent shahri va viloyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, chunki bu yerda azaldan mahalliy bo'limgan aholining ulushi yuqori bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent aholisi ko'p yillar davomida migratsiya hisobiga ko'payib borgan. Toshkent shahri aholisining soni 80-yillarda yiliga o'rtacha 40-42 ming kishiga ortib borgan bo'lsa, shundan 20-22 mingi migratsiya hisobiga to'g'ri kelgan. Migratsiya xarakterining o'zgarishi bilan bu nisbat tubdan o'zgardi, endi migratsiya tabiiy o'sishning ham bir qismini ola boshladi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1990-1999 yillarda Toshkent aholisining soni 18,6 ming kishiga, yoki yiliga o'rtacha 1,9 ming kishiga ko'paygan. Migratsiya hisobiga yo'qotishlar esa 10 yilda 190 ming kishini tashkil etgan^[17] (ilova 9-jadval).

90-yillarda Toshkent aholisi sonining o'zgarishiga ikkita turli yo'nalishli, tashqi (manfiy saldo) va ichki (musbat saldo) migratsion oqim ta'sir ko'rsatgan. Lekin, ichki migratsion oqim tashqi migratsiyani to'liq qoplay olmagan.

Migratsion jarayonlar Toshkent viloyati aholisi sonining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. 1970 yilda viloyat hisobiga respublika aholisining 12,5 %i to'g'ri kelgan bo'lsa, 1990 yilga kelib bu ulush 10,5 %gacha, 2000 yilda esa 9,6 %gacha pasaygan. Toshkent viloyati va shahrining umumiyligi ulushi 1990 yildagi 21,0 %dan 2000 yilga kelib 18,3 %ga tushgan^[18].

Respublika ichida migratsiya ko'rsatkichlarining pasayishiga qaramasdan, 90-yillar oxiridagi migratsion jarayonlarda ichki migratsiya ulushining nisbatan oshganligi xarakterli bo'lib, ularning ulushi keyingi davrda ham uzluksiz ortib bormoqda. Masalan, 1999 yilda bu yo'nalish respublika aholi migratsiyasi yalpi hajmining 80 %dan ko'prog'ini tashkil etgan, 80-yillarda esa bu 60-65 %ga teng edi^[19] (ilova 10-jadval).

Migratsion vaziyatni migratsion oqimlarning samaradorligi va yig'indisi belgilab beradi. Zamonaviy migratsiyalarda nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Umuman olganda O'zbekistondagi migratsion vaziyat nisbatan barqaror xarakterga ega. Yuz bergan o'zgarishlarni

esa XX asr oxirida butun sobiq Ittifoq hududida vujudga kelgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘lash mumkin.

90-yillarning oxirlarida O‘zbekistondagi aholi migratsiyasiga nafaqat tashqi, balki ichki migratsiya sur’atlarining ham pasayishi xarakterlidir. Faqat 90-yillarning ikkinchi yarmida qishloqlardan shaharlarga ko‘chib kelganlar soni 1,2 marta, shahardan qishloqqa ko‘chib ketganlar soni esa 1,5 marta kamaydi. Shaharlararo migratsiyalarning yalpi hajmi 1,5 marta, qishloqlararo migratsiya esa 2,2 marta kamaydi (ilova 11-jadval)^[20].

80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida emigratsiya qoidalarining erkinlashuvi, bir qator millatlararo mojarolar (Olma-ota, Farg‘ona, O‘sh va Dushanbe voqealari) ning yuzaga kelishi natijasida sobiq ittifoqdan nemislar, yahudiylar va greklarning, ittifoq ichida esa, asosan, Rossiya va Ukrainaga mesxeti turklari, qrim tatarlari va rusiyabon aholining migratsiyasi kuchaydi. Bu jarayonlar Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi migratsion aloqalarga ta’sir ko‘rsatdi. Bu aloqalarda mahalliy aholi ham faol ishtirok etdi. Ittifoq tarqab ketgach, xalqaro migratsiya darajasi biroz pasaydi. Bunga quyidagi statistik ma’lumotlar dalil bo‘ladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1990-96 yillarda O‘zbekistondan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketish uchun ruxsat olganlarning soni 106803 kishini tashkil etgan. Jumladan, 1990 yilda ko‘chib ketganlarning soni 41934 kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan 35537 kishi – Isroiilga, 4609 kishi – Germaniyaga, 830 kishi – Gretsiyaga, 804 kishi esa AQShga ketgan. 1991-92 yillarda Isroiilga – 14525 kishii, Germaniyaga – 7781 kishi, Gretsiyaga – 1353 kishi, AQShga – 7749 kishi ko‘chib ketgan. 1993-94 yillarda “uzoq xorij”ga O‘zbekistondan jami 30606 kishi, 1995 yilda – 569 kishi, 1996 yilda esa 386 kishi ko‘chib ketgan^[21].

Agar bu ko‘rsatkichlar qo‘shni respublikalar bilan taqqoslansa, O‘zbekistondagi xalqaro migratsion oqim darajasi past bo‘lganligi ko‘rinadi. Jumladan, 1990-96 yillar oralig‘ida Qozog‘istondan “uzoq xorij”ga 720,1 ming kishi ko‘chib ketgan, ya’ni O‘zbekistonga nisbatan Qozog‘istondan ko‘chib ketgan migrantlar soni deyarli yetti marta yuqori bo‘lgan^[22].

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, bu davrda O‘zbekistondan ketganlarning 40 %ga yaqini 1990 yilda, ya’ni sobiq Ittifoq davrida ko‘chib ketgan. 1991-96 yillarda O‘zbekistondan ko‘chib ketganlarning soni esa 64,9 ming kishini tashkil etgan va xuddi shu davr ichida Qirg‘izistondan ko‘chib ketganlarning sonidan (70,1 ming kishi) kam bo‘lgan. Vaholanki, o‘scha paytda O‘zbekistonda aholi soni Qirg‘izistonga nisbatan deyarli 5 marta ko‘p bo‘lgan^[23].

Bundan tashqari, 1995-96 yillarda statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan “uzoq xorij”ga ko‘chib ketganlarning soni sobiq ittifoq respublikalari orasida eng kam ko‘rsatkichni tashkil etgan.

O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan migratsion aloqalari asosan Rossiya, Ukraina va qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan ayniqsa keng ko‘lamli bo‘lgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonga ko‘chib kelganlarning umumiyligi soni kamayib borgan, jumladan, 1990 yilda respublikaga 74222 kishi ko‘chib kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1995 yilga kelib 31768 kishini tashkil etgan,

ya’ni 2 martadan ziyodroq kamaygan^[24]. Shu davrdagi migrantsion oqimlar tahlil qilinsa, migrantlarning 41,3 %i Rossiyadan, 20,4 %i Qozog‘istondan, 16 %i Tojikistondan, 11,5 %i Qirg‘izistondan, 4,8 %i Ukrainadan, 3,5 %i Turkmanistondan, qolgan 2,5 %i esa sobiq ittifoqning boshqa respublikalaridan kelganligi ko‘rinadi.

1995 yilda migrantlarning yarmidan ko‘prog‘i qo‘shti Markaziy Osiyo respublikalaridan kelganligini ta’kidlash joiz, chunki 1990 yilda ularning ulushi 40 % dan ortmas edi. Rossiya va Ukrainadan kelganlarning ulushi esa 1990 yilga nisbatan tegishli ravishda 5,8 % va 3,7 % ga, ularning umumiy ulushi Belorussiya (0,9 %) bilan qo‘shib hisoblaganda 10,4 % ga kamayganligi ko‘rinadi, ya’ni slavyan davlatlaridan O‘zbekistonga ko‘chib kelganlarning soni kamaygan.

O‘zbekistondan MDH davlatlariga ko‘chib ketganlar soni ham kamayib borgan, jumladan, 1990 yilda respublikadan 186912 kishi ko‘chib ketgan bo‘lsa, 1995 yilda bu ko‘rsatkich 103220 kishini tashkil etgan. 1995 yilda ko‘chib ketganlarning 73,4 %i Rossiyaga, 10,7 %i Qozog‘istonga, 9,6 %i Ukrainaga, 2,3 %i Qirg‘izistonga, 1,9 %i Turkmanistonga, 0,9 %i Tojikistonga, qolgan 1,2 %i esa boshqa respublikalarga ko‘chib ketgan^[25].

1990 yilga nisbatan Rossiyaga ko‘chib ketganlarning ulushi 1995 yilga kelib 23,6 punktga ortgan, Ukrainaga ketganlarning ulushi esa ayni paytda 15,0 punktga kamaygan.

Shuningdek, bu davrga kelib, O‘zbekistondan Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmanistonga ketganlarning soni ham ancha kamaygan. Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O‘zbekistondan ketgan migrantlarning ulushi bo‘yicha 2-o‘rinda turgan Qozog‘istoning ulushi ham 1995 yilga kelib, 1990 yilga nisbatan 0,1 punktga kamaygan^[26].

Umuman olganda, 1995 yilda O‘zbekistondan sobiq ittfoqdosh respublikalarga chiqib ketgan migrantlarning 93,7 %i Rossiya, Qozog‘iston va Ukraina hisobiga to‘g‘ri kelardi, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikistonga ketganlarning ulushi esa 5,1 % ni tashkil etgan^[27].

Migrantlarning yosh strukturasiga nazar tashlansa, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi yuqori bo‘lganligi ko‘rinadi. 1990-1995 yillar oralig‘ida O‘zbekistondan chiqib ketgan migrantlar soni 632700 kishini tashkil etgan bo‘lsa, ulardan 460000 kishi yoki 73 %i mehnatga layoqatli aholi (17 dan 60 yoshgacha erkaklar, 17 dan 55 yoshgacha ayollar) bo‘lgan^[28]. Natijada, O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi va umumiy aholi soni o‘sish sur’atlari deyarli tenglashdi, o‘sish sur’atlari tegishli ravishda 1,9 % va 1,8 % ni tashkil etdi. 1970-1979 yillarda bu ko‘rsatkich tegishli ravishda 4 % va 1,95 % ni tashkil etgan.

Lekin, O‘zbekistonda aholining o‘sishi hududiy jihatdan farqlanadi, qishloqlarda aholi o‘sishi sur’atlari 3 % ni tashkil etgan, bu esa shaharlarga nisbatan 2 marta yuqori bo‘lgan. O‘zbekistondan aholining, ayniqsa, rus va rusiyabzon millatlarning ko‘chib ketishi, asosan, shaharlar hisobiga bo‘lganligi qishloq aholisi ulushining ortishiga olib keldi. Natijada, qishloqlarda aholini ish o‘rniali bilan ta’minalash muammosi yuzaga keldi.

O‘zbekistonda 90-yillarning birinchi yarmida yuz bergan demografik va migratsion jarayonlar respublika aholisining milliy tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Respublika umumiy aholisi tarkibida mahalliy millat (o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, tojik va turkman) vakillarining ulushi tez sur’atlar bilan o‘sib bordi va 20 mln. kishini tashkil etdi. Asosan, bu o‘sish mahalliy millat vakillari orasida tug‘ilishning nisbatan yuqori darajada ekanligi hisobiga bo‘ldi. O‘zbeklarning soni bu davrda deyarli 3 mln. kishiga, ularning ulushi esa 71,4 %dan 75,7 %ga o‘sdi^[29].

O‘zbeklar ulushining o‘sishi boshqa mahalliy millat (qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, tojik va turkman) vakillari hisobiga yuz bermadi, chunki ularning ulushi ham bu davrda 0,1 punktga ko‘tarildi va 12,5 %ni tashkil etdi. Bu o‘sish, asosan mahalliy bo‘lmagan millat vakillari hisobiga yuz berdi, chunki ular orasida tug‘ilish sur’atari mahalliy aholiga nisbatan past darajada va ularning migratsion faolligi, ya’ni respublikadan ko‘chib ketishi yuqoriroq bo‘ldi, bu guruhning ulushi 16,2 %dan 11,8 %ga tushdi. Shunday bo‘lsada, bu guruh ham son jihatidan ancha o‘sganligini ko‘rish mumkin, ularning soni 2,448 mln.dan 2,8 mln.gacha, ya’ni 342 ming kishiga o‘sgan.

Tabiiy o‘sishning ancha past darajada ekanligi va migratsion jarayonlar hisobiga ruslar (deyarli 300 ming, - 2 punkt), tatarlar (115 ming, - 0,8 punkt), yahudiylar (37,5 ming, - 0,2 punkt) va nemislar (24,4 ming, - 0,13 punkt) ning soni va ulushi kamaydi, bu ko‘rsatkichlar migratsion jarayonlar aholining milliy tarkibiga jiddiy ta’sir qilganligini ko‘rsatib turibdi.

Yahudiylar va nemislarning migratsiyasi sobiq ittifoqning barcha respublikalari uchun xos holat edi, bundan tashqari ushbu ikki millat vakillarining aksariyat qismi sobiq Ittifoqdan, 1991 yilgacha chiqib ketgan edi^[30]. Tatarlarning ulushi birinchi navbatda, asosan, qrim tatarlari hisobiga pasaydi, chunki ikkinchi jahon urushi yillarda O‘zbekistonga deportatsiya qilingan qrim tatarlari 80-yillarning oxirlarida Ukraina va Qrimga qaytib ketishga rasmiy ruxsat olganlaridan keyin ko‘chib ketgan edi^[31].

Ruslarning soni va ulushi kamaygan bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich oldingi davrlarga nisbatan olib qaralganda, unchalik katta emasligi kuzatiladi, jumladan, 1989-1995 yillar oralig‘ida ularning ulushi 2 punktga kamaygan bo‘lsa, 1979-1989 yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich 2,5 punktni tashkil etgan edi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, ruslarning soni ancha pasayganligiga qaramasdan ular hozirgi kunda ham son jihatidan mahalliy bo‘lmagan millatlarning deyarli yarmini tashkil etib kelmoqda.

1991-1996 yillarda O‘rtal Osiyo respublikalarida yuz bergan migratsion jarayonlar qiyosiy tahlil qilinsa, migratsiya asosan mazkur respublikalar orasida ro‘y bergan, ammo MDH davlatlari bilan ham migratsion aloqalar davom etganligi kuzatiladi. Bu davrda Qozog‘istondag migratsiya darajasi ham miqdor, ham nisbiy jihatdan O‘zbekiston va Qirg‘izistondag migratsion oqimning umumiy ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan. Jumladan, 1991-96 yillarda sobiq ittifoqning boshqa respublikalariga ko‘chib ketgan aholi soni Qozog‘istonda 1375880 kishini, Qirg‘izistonda 381130 kishini, O‘zbekistonda

691340 kishini tashkil etgan. Bu respublikalardagi migrantlarning asosiy qismi asosan Rossiyaga ko‘chib ketgan^[32]. Ayni paytda, O‘zbekistonga qo‘shni respublikalardan 95802 kishi ko‘chib kelgan^[33].

Umuman olganda, mavjud statistik ma’lumotlarning tahlili 1991-96 yillar davomida O‘rta Osiyoning barcha respublikalari aholi migratsiyasida manfiy saldoga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur ma’lumotlar O‘zbekistondagi migratsiya koeffitsiyenti qo‘shni respublikalar orasida eng past darajada saqlanib qolib, migrantsion jarayonlardagi eng barqaror vaziyat O‘zbekistonda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

1991-96 yillarda Markaziy Osiyo respublikalaridagi migrantlarning aksariyat qismi Rossiyaga ko‘chib ketgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiyaga yuqorida qayd etilgan davr mobaynida 2553795 kishi, shu jumladan, 1269119 kishi Qozog‘istonidan, 581707 kishi O‘zbekistondan, 306594 kishi Qirg‘izistondan, 289077 kishi Tojikistondan va 107298 kishi Turkmanistondan kelgan^[34]. Rossiyaga kelgan migrantlarning yarmidan ko‘prog‘i

Qozog‘iston hisobiga to‘g‘ri kelgan. Nisbiy jihatdan, aholi sonini hisobga olganda, Qirg‘izistondan ko‘chib ketganlarning ulushi ham yuqori bo‘lgan. Qirg‘iziston son jihatdan, hatto, shu paytda fuqarolar urushini boshidan kechirib turgan Tojikistondan ko‘chib ketganlar sonidan ustun turibdi. O‘zbekiston va Turkmanistondan ketganlarning soni nisbiy jihatdan bir biriga yaqin, ya’ni O‘zbekistondan Rossiyaga ko‘chib ketganlarning soni ham umumiyligi aholi soni ham Turkmanistonga nisbatan deyarli 5 marta yuqori bo‘lgan. Rossiya Federatsiyasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 1994-95 yillar va 1996 yilning 1-yarmi davomida Markaziy Osiyo respublikalaridan ko‘chib kelayotganlar sonining kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Shu bilan birga, 1995 yilda oldingi yillarga nisbatan Rossiyadan Qozog‘iston va O‘zbekistonga ko‘chib ketganlarning soni ortgan^[35].

Shunga qaramasdan, bu davrda Markaziy Osiyo respublikalari Rossiya bilan migrantsion aloqalarda manfiy saldoga ega bo‘lgan, jumladan, 1995 yilning o‘zida manfiy saldo 362 ming kishini tashkil etgan.

Migrantlarning milliy tarkibiga e’tibor berilsa, Rossiya ketganlarning aksariyat qismi ruslar va rusiyabzon millatlar (ukrain, tatar, boshqird) ekanligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, Markaziy Osiyodan ko‘chib ketgan nemis va yahudiylarning bir qismi ham Rossiyada qolgan.

Markaziy Osiyo respublikalari mahalliy aholisining mazkur migrantsion oqimlardagi ulushi uncha katta bo‘lmagan. Masalan, 1995 yilda Rossiyaga Markaziy Osiyo respublikalaridan kelganlar orasida ruslar 60-74 %ni, ukrainlar 4,5-8,4 %ni, tatarlar 3-14,5 %ni, nemislar 1-4 %ni tashkil etgan^[36]. Mahalliy millat (tegishli respublikaning titul millati) vakillarining ulushi Markaziy Osiyo respublikalaridan Rossiya ketganlar orasida, tegishli ravishda, qozoqlar 3,2 %, qirg‘izlar 2,4 %, tojiklar 12,3 %, turkmanlar 3,2 %, o‘zbeklar 3,2 %ni tashkil etgan. Rossiyadan Markaziy Osiyo respublikalariga ko‘chib kelganlar orasida, tegishli ravishda, qozoqlar 11,0 %, qirg‘izlar 5,9 %, tojiklar 23,4 %, turkmanlar 20,6 %, o‘zbeklar 10,1 %ni tashkil etgan^[37]. YA’ni, yuqoridagi ma’lumotlar O‘zbekiston misolida tahlil qilinsa, Rossiyaga

O‘zbekistondan ko‘chib ketganlar orasida o‘zbeklarning ulushi 3,2 %ni, Rossiyadan O‘zbekistonga ko‘chib kelganlar orasida o‘zbeklarning ulushi 10,1 %ni tashkil etganligi ma’lum bo‘ladi.

Shunday qilib, O‘zbekiston aholisining o‘sishi, milliy tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, demografik va boshqa sohalardagi ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, O‘zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarga teng siyosiy huquqlarni va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishda barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shuni ham ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yuzaga kelgan o‘ziga xos demografik vaziyat ko‘pgina xususiyatlari bilan sovet davridagi holatdan ancha farq qiladi. Bu o‘zgarishlar, avvalo, demografik jarayonlar, ya’ni tug‘ilish, aholining tabiiy o‘sishi va migratsiya jarayonlarida kuzatildi. Umuman olganda, aholi migratsiyasi masalasi O‘zbekistonning demografik rivojlanishidagi asosiy muammo bo‘lib, 90-yillardagi demografik jarayonlarning borishini belgilab berdi. Aholi migratsiyasida ikki asosiy yo‘nalish bo‘lib, bular ichki va tashqi migratsion oqimlardir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi migratsion aloqalar ichki migratsiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Shuningdek, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida respublika mehnat resurslari miqdorining o‘sib borishi tashqi mehnat migratsiyasini rivojlantirishga turtki bo‘ldi.

Kommunistik mafkura “markaz”ning yagona “sovet xalqi” g‘oyasini ilgari surib, barcha milliy masalalar hal qilinib bo‘lgan, deb hisoblashardi. Buning oqibatida milliy guruuhlar orasida ish olib borish zaiflashib, keyinchalik butunlay yo‘qqa chiqarildi^[38]. Ko‘pmillatlilikning sun’iy aholi migratsiyasi hisobiga amalga oshirilishi O‘zbekistonda milliy madaniyat, til va urf-odatlarning o‘ziga xosligiga putur yetkazdi. O‘lka o‘zbek xalqining jipslashuvi va son jihatidan jamlanishiga xizmat qilish o‘rniga ko‘pmillatlilikni rivojlantirishda foydalanildi^[39].

Sovet davrida O‘zbekistonga migrantlarning 50 %dan ko‘prog‘i aynan Rossiya hisobiga to‘g‘ri kelgan.^[40] Tashqi migratsiyaning yuqori darajada bo‘lishi oqibatida sanoat ishlab chiqarishida band bo‘lgan mahalliy aholi salmog‘i pasayib ketdi. 1970-1980 yillarda O‘zbekistonda 80 ta yangi shahar vujudga keldi^[41]. Bu shaharlarning ko‘pchiligi asosan chetdan ko‘chib kelgan aholi hisobiga boyib bordi. Migratsiyaning, bir tomonlama yo‘nalishi respublikaning milliy tarkibiga ta’sir ko‘rsatdi. 70-80-yillarda mamlakatda olib borilgan ruslashtirish siyosati milliy tillar, xususan o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatda ham ko‘zga tashlandi. Bu davrga kelib respublika oliy o‘quv yurtlari talabalarining asosiy qismi rus tilida shug‘ullanardi. Buning oqibatida o‘z tili, tarixi va madaniyatini bilmaydiganlar soni ortib bordi.

Aholi migratsiyasi masalasi O‘zbekistonning demografik rivojlanishidagi asosiy muammo bo‘lib, 90-yillardagi demografik jarayonlarning borishini belgilab berdi. Aholi migratsiyasida ikki asosiy yo‘nalish bo‘lib, bular ichki va tashqi migratsion oqimlardir. O‘zbekiston

mustaqillikka erishgach, tashqi migratsion aloqalar ichki migratsiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo'la boshladi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublika mehnat resurslari sonining o'sib borishi tashqi mehnat migratsiyasini rivojlantirishga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi uzoq muddatli rivojlanish startegiyasini shakllantirishda demografik imkoniyatlardan samarali foydalanish, respublikada shakllangan demografik vaziyat va uning mehnat bozoriga ta'siri, aholining ish bilan bandligini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, xalqaro darajada raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda demografik jihatlardan unumli foydalanish kabi dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayoni keltirilgan. **Tarixiy demografiya** – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, demografiya fanini rivojlanishi tarixini o'rGANADIGAN fanlararo yo'naliSH. O'zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o'zgarishlar: aholi o'sishi va joylashishi, aholi yosh tarkibiga ta'siri. Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari. Globallashuv davrida O'zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida. Mehnat migratsiyasi. Ko'pmillatli O'zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari. Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri kabi masalalar qamrab olingan.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonda mustaqillik yillarda demografiya jarayonlardagi o'zgarishlar: tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish.
2. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning milliy qadriyat ekanligi
3. Aholining hududiy joylashishi va ular o'rtasidagi tafovutlar.
4. Aholi migratsiyasi va bu jarayondagi muammolar

Foydalanilgan adabiyotlar

¹Mirziyoyev SH.M. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.–Toshkent:NMIU, 2018. – B.72.

²Qodirov R.B. Farg'ona mintaqasi aholisi va mehnat resurslari. – Toshkent:"Navro'z", 2016. – B.24.

³CHislennost naseleniya Uzbekistana. Goskomstat Uzbekistana. Stat.sbor.– Tashkent. 2007.–S. 58.

⁴O'zbekistonning etnokonfessional atlasi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. – Toshkent:"Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi, 2011.– B. 8.

⁵Sotsialnoye razvitiye i uroven jizni v Uzbekistane.Statisticheskiy sbornik. – Tashkent, 2017. – S. 16.

⁴Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (DSs) ... diss. avtoreferati – Toshkent, 2017. – B.17.

⁵Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). -Toshkent: Sharq, 1999 y. -122 b.

¹¹ Qarang: Mullyadjanov I.R. Sotsialno-ekonomicheskiye osnovi razvitiya i razmesheniya narodonaseleniya Uzbekistana (1865-1985 gg.) vklyuchaya prognoz do 2015 goda. – Tashkent, 1986. – S.125-126.

¹² Enox R. “Turki-mesxetinsi” – “Poxod na Rodinu” – 1990 g. www.ca-c.org/journal/10-1997/st_15_enoh.shtml

¹³ Maksakova L.P. Osnovniye cherti migrantsionnoy situatsii v Uzbekistane. / Migrantsionnaya situatsiya v stranax SNG. – Moskva, 1999. – S.242.

¹⁴ Maksakova L. Tendensii demograficheskogo razvitiya v Uzbekistane. // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. 1999. – №5. – S.45.

¹⁵ Allaxverdiyeva L. Migratsiya, rinok truda i sotsialnaya zashita naseleniya v Uzbekistane. / Migratsiya i rinok truda v stranax Sredney Azii. – Moskva-Tashkent, 2002. – S.104.

¹⁶ Maksakova L.P. Migratsiya naseleniya: problemi regulirovaniY. – Tashkent, 2001. – S.23.

¹⁷ Migratsiya naseleniya iz Uzbekistana. / Sovremennye etnopoliticheskiye protsessi i migrantsionnaya situatsiya v Sentralnoy Azii. Pod red. G.Vitkovskoy. – Moskva, 1998. – S.188-191.

¹⁸ Maksakova L. Migratsiya naseleniya: problemi regulirovaniY... – S.26.

¹⁹ Maksakova L. Tendensii demograficheskogo razvitiya v Uzbekistane. // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. 1999. – №5. – S.46.

¹⁰ Maksakova L. Uzbekistan: zanyatost i rinok truda. // Sentralnaya Aziya i Kavkaz. 2001. – №2. – S.187.

¹¹ O‘sha joyda. – S.188.

¹² Alikhan Aman. Population migration in Uzbekistan (1989-1998). – Tashkent, 1999. – R.35.

¹³ Itogi Vsesoyuznoy perepisi naseleniya 1989 g. – Tashkent, 1990. – S.58 ¹⁴ Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Uzbekistan mnogonatsionalniy: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: izd-vo im. Abu Ali ibn Sino, 1998. – S.150.

¹⁵ Demograficheskiy yejegodnik Uzbekistana. – Tashkent: Goskomstat Uzbekistana, 2001. – S.41.

¹⁶ Itogi Vsesoyuznoy perepisi naseleniya 1989 g. – Tashkent, 1990. – S.32. ¹⁷

Maksakova L. Migratsiya naseleniya: problemi regulirovaniY. – Tashkent, 2001. – S.38.

¹⁸ O‘sha joyda. – S.39.

¹⁹ O‘sha joyda. – S.42.

²⁰ Maksakova L. Migratsiya naseleniya: problemi regulirovaniY. – Tashkent, 2001. – S.45.

[\[21\]](#) Sodrujestvo Nezavisimix Gosudarstv v 1996 godu. Statisticheskiy yejegodnik. Mejgosudarstvenniy komitet Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv. – Moskva, 1997. – S.506.

[\[22\]](#) Sodrujestvo Nezavisimix Gosudarstv v 1996 godu. Statisticheskiy yejegodnik. Mejgosudarstvenniy komitet Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv. – Moskva, 1997. – S.17.

[\[23\]](#) Maksakova L., Ata-Mirzayev O. Vliyaniye migratsii na rost gorodov v postsovetskiy period v Uzbekistane: obshiyе tendensii. // Migratsiya i urbanizatsiya v SNG i Baltii v 90-ye godi. Pod. red. J.A.Zayonchkovskoy. – Moskva, 1999. – S.136.

[\[24\]](#) Rinok truda v stranax Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv v sifrax i diagrammax. Statisticheskiy sbornik. Mejgosudarstvenniy komitet Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv. – Moskva, 1996. – S.288.

[\[25\]](#) Rinok truda v stranax Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv v sifrax i diagrammax. Statisticheskiy sbornik. Mejgosudarstvenniy komitet Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv. – Moskva, 1996. – S.292.

[\[26\]](#) Sodrujestvo Nezavisimix Gosudarstv v 1996 godu... – S.508.

[\[27\]](#) Rinok truda v stranax Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv v sifrax i diagrammax... – S.15.

[\[28\]](#) Saidova G., Agafonoff A., Isametdinova D. et al., Labor Market in Uzbekistan, 1991-1995, Working Paper 96/1, UNDP, Macroeconomic Policy Analysis and Training Project. – Tashkent, 1996. – P.8-10.

[\[29\]](#) O'sha joyda. – P.12-13.

[\[30\]](#) S biletov v odin konets. Pravda Vostoka. 13 fevralya 1990 g.

[\[31\]](#) Gitlin S.I. Krimskiye tatari v Uzbekistane: sobitiya i problemi. www.ca-c.org/journal/cac-04-1999/st_18_qitlin.shtml

[\[32\]](#) Rinok truda v stranax Sodrujestva Nezavisimix Gosudarstv v sifrax i diagrammax... – S.15.

[\[33\]](#) Sodrujestvo nezavisimix gosudarstv v 1996 godu... – S.16-17. [\[34\]](#)

O'sha joyda. – S.16-17.

[\[35\]](#) Chislennost i migratsiya naseleniya Rossiyskoy Federatsii v 1995 g. Statisticheskiy byulleten. Gosudarstvenniy komitet Rossiyskoy Federatsii po statistike. – Moskva, 1996. – S.32; Migratsiya naseleniya Rossiyskoy Federatsii za 1 polugodiye 1996 g. Statisticheskiy byulleten. Gosudarstvenniy komitet Rossiyskoy Federatsii po statistike. – Moskva, 1996. – S.15.

[\[36\]](#) O'sha joyda. – S.42-43.

[\[37\]](#) Chislennost i migratsiya naseleniya Rossiyskoy Federatsii v 1995... – S.42-45.

[\[38\]](#) Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Etnik va millatlararo ziddiyatlar.

[\[39\]](#) Xonazarov K. Sotsializmni yangilash hamda SSSRda til muammolari // O'zbekiston kommunisti. – Toshkent, 1989. – №9. – B.55; Itogi Vsesoyuznoy perepisi naseleniya 1989 g. Natsionalniy sostav naseleniya Uzbekskoy SSR. – Tashkent, 1990. – S.51-68.

[40] Mullyajanov I.R. Demograficheskoye razvitiye Uzbekskoy SSR. – Tashkent, 1983. – S.212.

[41] Bobojanova D.B. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent, Sharq, 1999. – B.114.

Internet saytlari: 1.

www.ziyonet.uz.

2. www.edu.uz.

3. www.google.uz.

2-MAVZU. O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi

REJA:

2.1. O‘zbekistonda mustaqillik arafasida demografik jarayonlarning holati: milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi, aholi bandligi va ishsizlik muammolari.

2.2. Demografik jarayonlar milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omili.

2.3. Aholi tug‘ilishi, o‘limi, jinsi va yosh tarkibi hamda mehnat resurslarining miqdor jihatidan o‘zgarishlari va uning nazariy-konseptual masalalari.

Tayanch iboralar: demografik jarayonlar, milliy iqtisodiyot, aholi tug‘ilishi, o‘limi, jinsi, mehnat resurslari, aholi bandligi, tabiiy o‘sish.

2.1. O‘zbekistonda mustaqillik arafasida demografik jarayonlarning holati: milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi, aholi bandligi va ishsizlik muammolari

Demografiya(yun. demos — xalq va grafiya) — har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga boglik holda o‘rganadigan fan. Demografiyaning paydo bo‘lishi asosan XVII asrning 2-yarmidan angliyalik olim J.Graunt (1620-1674) tadqiqotlari bilan bog‘likdir. Demografiya terminini 1855 yilda fransuz olimi A.Giyar qo‘llagan. 1882 yilda Xalqaro gigiyena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. XIX asr oxiri — XX-asr boshlarida keng tarqaldi. O‘zbekistonda, asosan 1960 yillardan qo‘llanila boshladi.

Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo‘lishi jarayoni va omillarini o‘rganish,

muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko‘rsatib berishdan iborat. Demografiyaning vazifalari: demografik jarayonlar (tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh-jinsiy va oilaviy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o‘rganish; demografik bashorat (ma’lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni ishlab chiqish; demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi aholining mikdoriy o‘sishini boshqarishdan iborat) choratadbirlarini ishlab chiqish. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etmog‘i lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.

Demografik tadqiqot usuli—statistik, tarixiy taqqoslash, xaritagrafik, sotsiologik, matematik va mantiqiy fikrlash. Demografiyaning tahliliy metodi statistikadan farq qiladi: unda mavhum fikrlash usulidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlari ham o‘rganiladi. Shu jihatdan demografik statistika Demografiya ning bir qismidir.

Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo‘ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan i. ch. usuli va i. ch. munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, turli omillar zaminida ko‘payadi. Bu jihatdan Demografiya iqtisod, sotsiologiya, geogr., tibbiyot, tarix fanlari tahlil mavzuiga yaqin bo‘lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma’lumotlar beradi.

Demografik jarayonlarni o‘rganishda juda ko‘p ma’lumotlardan foydalaniadi. Ko‘pchilik davlatlarda demografik ma’lumotlar statistika tashkilotlari tomonidan to‘plib boriladi. Ular aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni aks ettirib o‘z ichiga ushbu masalalarga oid raqamli jadval va diagrammali ma’lumotlar, ilmiy manbalar, sotsiologik-demografik tadqiqotlar natijalarini oladi. Dunyo miqyosida demografik ma’lumotlarni to‘plash BMT boshchiligida tuzilgan dastur asosida o‘tkaziladi.

Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko‘payishi va rivojlanish qonuniyatlarini alohida-alohida o‘rganadi, chunki har bir ijtimoiyiqtisodiy formatsiyaga xos aholi o‘sish qonuni demografik vaziyatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 20-a. ning 2-yarmiga qadar O‘zbekistonda aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi nisbatan pastligi tufayli aholi o‘rtasida o‘lim yuqori bo‘lgan. Garchi tug‘ilish yuqori bo‘lsa ham aholi juda sekin ko‘paygan. 20 asrning 2-yarmidan O‘zbekistonda aholi o‘rtasida o‘lim bir oz kamayib, aholining o‘rtacha umr ko‘rishi uzaydi. Natijada, aholining miqdor va sifat o‘sishi ro‘y berdi. Shu davrda O‘zbekistonda Demografiyaning

rivojlanishiga e'tibor berildi. Demografik tadqiqotlar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Aholishunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriysi, demografiya, ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisod, sotsiologiya kafedralari, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Mehnat, aholi bandligi va ijtimoiy muhofazani o'rGANISH Respublika ilmiy markazi, O'zR Fanlar akademiyasining iqtisodiyot in-ti, O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazida olib boriladi.

O'zbekistonning demografik taraqqiyoti, uning xususiyatlari, omillari va muammolari I. Mullajonov, R. Ubaydullayeva, M. Qoraxonov, E. Ahmedov, O. Otamirzayev, L. P. Maksakova, A. Soliyev, H. Salimov, A. Qayumov, M. Bo'riyeva, O.A. Ergashev, E. Safarov, O. Saidahmedov, G. Murtazina, Z. X. Rayimjonov, R. K. Ortiqboyev va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida keng o'rGANILGAN. 1993 yildan O'zbekistonda BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) o'z faoliyatini boshlagan. Uning faoliyati mintaqa davlatlarini, Qozog'iston va Ozarbayjoni qamrab oladi. Jamg'arma aholi salomatligi, ayniqlsa, ayollar salomatligini yaxshilash borasida tadbirlarni amalga oshiradi, mamlakatda milliy tashkilotlar, tibbiyot muassasalariga sog'lom oilani shakllantirish maqsadida keng qam-rovli sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazadi.

O'zbekiston yuqori mehnat potensialiga ega bo'lgan davlatlar qatoriga kirar ekan, Markaziy Osiyo davlatlari mehnat resurslarining 40%i aynan O'zbekiston hisobiga to'g'ri keladi. 2000 yilda respublika mehnat resurslarining soni 13142,9 ming kishi yoki respublika aholisining 52,8%ini tashkil etdi^[1].

O'zbekistonda so'nggi yillarda tug'ilish darajasi biroz pasaysada, mehnat resurslarining o'sish sur'ati hanuzgacha yuqori bo'lib qolmoqda. 90-yillar davomida ularning soni 2648 ming kishiga yoki 26,5%ga ortgan bo'lsa, o'rtacha yillik o'sish 2,4%ni tashkil etdi^[2]. Bu esa, respublika mehnat bozori uchun ancha yuqori demografik "yuk" bo'lib turibdi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistondagi demografik vaziyatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, birinchidan, aholining tabiiy o'sish jarayoni ancha yaxshilandi (go'daklar o'limi darajasi ancha qisqardi, o'lim darajasi past darajada saqlanib turgani holda, tug'ilishlar oralig'i uzaydi, mehnatga layoqatli aholiga tushayotgan demografik yuk pasaydi va hokazo), ikkinchidan, mustaqillik yillarda umumiyl tug'ilish koeffitsiyenti, ya'ni fertil (tug'ish) yoshidagi bir ayol tomonidan tug'ilgan bolalar soni, 4,199 dan 2,469 gacha pasaydi, uchinchidan, migrantsion vaziyat ancha normallashdi, aholi migrantsiyasining manfiy saldosи yiligi 60 ming kishi darajasida barqarorlashdi^[3].

O'zbekistonda mustaqillik yillarda yuzaga kelgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli jabhalarida bevosa aks etayotgan yangi

demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri mehnatga layoqatli aholining mutlaqo yuqori darajada o‘sishi bo‘lib, bu o‘z o‘rnida aholi bandligini ta’minlash muammosini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda O‘zbekiston mehnat resurslari eksportini kengaytirishdan manfaatdor bo‘lib qolmoqda.

Davlat tomonidan hamisha respublikadagi demografik vaziyatga hamisha e’tibor qaratib kelingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashining 2001 yil 11 yanvarda bo‘lib o‘tgan majlisida “Bugun yurtimizda demografik jarayonlar qanday kechayotgani, uning o‘sish sur’ati, yaqin keljakda bizni bu borada qanday muammo kutayotgani, mehnatga layoqatli odamlar soni qanchaga ko‘payishi, ular ish bilan qanday ta’minlanishi haqida kim nima deya oladi? Hozirdanoq mehnatga layoqatli aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta’minlash masalasi o‘tkir muammo bo‘lib turibdi”, - deyilgan edi. Mazkur majlisda respublikada mustaqillik yillarida yuzaga kelgan demografik vaziyatdan kelib chiqib, iqtisodiyot sohasida yaqin keljakdagi ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar belgilab olindi. Bu yo‘nalishlar qatorida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlashga qaratilgan izchil siyosat yuritish, mehnat bozorini shakllantirish hamda xalq moddiy farovonligining barqaror va uzliksiz o‘sishini ta’minlash, aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish vazifalari ham sanab o‘tilgan. Shuningdek, nafaqaxo‘rlar sonining ortishi, ularni ijtimoiy ta’minlash, ularga munosib hayot sharoiti yaratib berish masalalari ham dolzarb bo‘lib turganligi ta’kidlangan.

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aholi bandligining eng maqbul yo‘lini topish muammolari muhim o‘rin tutib, mehnat bozorining shakllanishida va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Demografik jarayonlar iqtisodiyotga, birinchi navbatda mehnat resurslarining sifati va sonining o‘zgarishi bilan ta’sir qo‘rsatadi. Mehnatga layoqatli aholining soni, asosan, 16 yil avvalgi tabiiy o‘sish hisobiga o‘zgaradi (agar tashqi migratsiya darjasini nisbatan yuqori darajada bo‘lmasa). Mehnatga layoqatli aholining sifatini statistik o‘rganish ularning sonini o‘rganishdan ancha murakkab hisoblanadi, chunki ushbu ko‘rsatkichga bir qator omillar ta’sir qo‘rsatadi (ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash, sport, ekologiya va hokazo). Iqtisodiy o‘sish demografik o‘sish bilan teskari proporsional va YAIMning o‘sishi bilan to‘g‘ri proporsional bog‘liq (korrelyatsiya koeffitsiyentlari: demografik o‘sishda -0,58, YAIM o‘sishi esa 0,72). O‘zbekistonda 2010-2017 yillarda demografik o‘sish yiliga 1,4-1,8% bo‘lgan, faqat 2012 yilda bu ko‘rsatkich 3,9% ni tashkil qilgan. Ushbu holat 2011

yilda 10% aholini qamrab olgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida aniqlangan (1-jadval). O'zbekistonda demografik o'sish jahon standartlariga ko'ra, o'rtacha (1%dan kam bo'lsa – past ko'rsatkich; 2,5%dan ko'p bo'lsa – yuqori ko'rsatkich hisoblanadi).

Sobiq Ittifoq davrida respublikada aholini umumiylis bilan ta'minlash siyosati amalga oshirilib, qonunga binoan barcha aholini ijtimoiy ishlab chiqarishda band etish ko'zda tutilgan edi, lekin mehnat resurslaridan samarasiz foydalanilardi, ularning yosh va jihsiy tarkibida, tarmoqlararo va hududlararo bandligida nomutanosibliklar kuzatilar edi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu mehnat resurslarining notekis joylashganligidir. Jumladan, 2000 yilga kelib, mamlakat hududining 4,3 %ini egallagan Farg'ona vodiysida respublika mehnatga layoqatli aholisining 27,4 %i (1990 yilda 26,7% bo'lgan) yashardi^[4].

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, aholi zinch joylashgan ba'zi mintaqalarda ishlab chiqarish sohalari rivojlangan hududlar mavjud bo'lib, bu aholi bandligini yuqori darajada ta'minlashga imkon beradi. Jumladan, aholi zinch joylashgan mintaqalar hisobiga mehnat resurslarining 81%i to'g'ri kelsa, ishsizlarning 55%i to'g'ri keladi. O'zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi 0,5%ni tashkil etgani holda, aholi zinch joylashgan mintaqalarda bu ko'rsatkich 0,3%ga teng bo'lgan. Shuningdek, O'zbekistonning demografik o'ziga xosliklaridan yana biri bu 60%dan ortiq aholining qishloqlarda istiqomat qilishi va aholining 60%dan ortig'ini yoshlar (25 yoshgacha) tashkil etishidir^[5].

Mustaqillikka erishilgandan keyin aholini ish bilan ta'minlash siyosatida asosiy o'rinni mehnat bozorini shakllantirishga qaratildi va shu asosda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni tartibga solishdan iborat siyosat amalga oshirila boshlandi. Ma'lumki, ishchi kuchini tovarga aylantirmasdan turib, aniq bozor munosabatlarini shakllantirish mumkin emas.

2000 yilga kelib, respublikada mehnatga layoqatli aholi soni qariyb 13,2 million kishini, shundan iqtisodiy faol aholi soni 9,0 million kishini tashkil etdi^[6]. Ko'rinish turibdiki, respublikada hozirgi kunda ishsizlik darajasi ancha yuqori, lekin davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilda respublikada atigi 35,4 ming kishi mehnat birjasida rasmiy ravishda ishsizlar deb qayd qilingan^[7].

Biroq, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar O'zbekistonda ishsizlar soni davlat statistika qo'mitasi tomonidan qayd etilgan raqamlarga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, 2000-2004 yillar davomida olib borilgan sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, so'rovnoma olib borilgan respondentlar ichida ishsizlar o'rtacha 12-15 %ni tashkil qilgan.

Aholi bandligi masalasi O‘zbekistonda har doim ham eng keskin ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Sovet davridagi rejali iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslariga yalpi yondashgan bandlik tizimi aholining mehnat potensialini butunlay qoplay olmasdi. Mehnat yoshiga qadam qo‘yan yoshlarning 1/4 (qishloqda 1/2) qismi ish topa olmasdi. Bandlikni shakllantirishga milliy-etnik va ijtimoiy omillar, mehnat kuchiga bo‘lgan talab va taklifning nomutanosibligi kabi sabablar ta’sir ko‘rsatardi^[8].

O‘zbekistonning iqtisodiy faol aholisi juda yosh tarkibga ega. 2000 yilga kelib, respublika iqtisodiyotida band bo‘lgan aholining o‘rtacha yoshi 35,0 yilni tashkil qilgan. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lgan aholining 34,0 %ini 30 yoshgacha bo‘lganlar, atigi 10,0 %i esa 50 dan yuqori yoshdagi kishilar tashkil etadi (ilova 13-jadval)^[9].

Respublikada bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi bandligini ta’minlash tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi.

90-yillar davomida respublika xalq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lgan iqtisodiy faol aholining soni yildan yilga oshib bordi. Ularning soni 1991 yili 8255 ming bo‘lgan bo‘lsa, 1995 yilda 8449 ming, 2000 yilda 9018 ming kishini tashkil qildi. 1991-2000 yillar davomida iqtisodiy faol aholining soni 9,2 %ga o‘sdi (ilova 14-jadval)^[10].

Iqtisodiy faol aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida bandlik darajasini tahlil qilish mamlakat iqtisodiyotini qayta qurish davrida, aholining xalq xo‘jaligidagi bandlik tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bergenligini ko‘rsatib turibdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, respublika iqtisodiyotida agrar sektorda band bo‘lgan aholi salmog‘i yuqori, shuning uchun ham kelajakda mehnat resurslarini boshqa tarmoqlarga, aynan qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi hisobidan yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sovet tuzumi davridagi rejali iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarining 85 %i davlat korxonalarida, 15 %i jamoa xo‘jaliklarida mujassamlashgan edi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bu borada o‘zgarishlar yuz berdi, davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2000 yilga kelib, iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 75 %idan ko‘prog‘i nodavlat sektorda faoliyat ko‘rsatishi qayd etilgan^[11]. So‘nggi yillarda mehnatga layoqatli aholi, asosan, yoshlar orasida nodavlat sektorda ishlashga intilish kuchayib bormoqda.

Respublika xalq xo‘jaligi tuzilmasining rivojlanganlik darajasini ish bilan band aholining iqtisodiyot sohalari (yoki sektorlari) bo‘yicha, jumladan, moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan nomoddiy ishlab chiqarish sohasi o‘rtasida

taqsimlanishidan bilish mumkin. Bu nisbatning o‘zgarishiga, eng avvalo, ishlab chiqarish sohasining rivojlanish sur’atlari ta’sir ko‘rsatadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lganlar ulushining qisqarishi O‘zbekiston uchun yangi tendensiya bo‘ldi. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 1995 yilda respublikaning ishlab chiqarish sohasida, 26,1% ishlovchi band bo‘lgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 29,6 %gacha ko‘paydi, moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar ulushi esa 73,9 %dan 71,4 %ga qisqardi^[12]. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, bu ijobiy hodisadir, chunki jahonning rivojlangan yetakchi mamlakatlarida moddiy ishlab chiqarishga qaraganda nomoddiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar ustunlik qiladi. Bu jihatdan O‘zbekistonda ham katta imkoniyatlar mavjud. Shuni qayd etish zarurki, O‘zbekistonda nodavlat sektorda band bo‘lganlar soni va ulushi ko‘payishi bilan birga davlat sektorida ishlayotganlar soni va ulushi kamayib bormoqda. Bunday vaziyat bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tayotgan mamlakatlar uchun xosdir (ilova 15-16-jadvallar).

1995-2000 yillarda iqtisodiyotda band aholining mulkchilik shakllari va iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha taqsimlanishini o‘rganish respublikada iqtisodiyotning nodavlat sektorida band bo‘lganlar soni ham, ulushi ham ko‘payib, o‘z navbatida davlat sektorida ishlayotganlarning soni ham, ulushi ham pasayib borganligini ko‘rsatib turibdi. Xususiy sektorning rivojlanishi va kengayishi istiqbolda ham aholining ish bilan bandligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib qoladi.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 76 %i, jumladan, sanoat mahsulotining qariyb 80 %i, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chakana savdo aylanmasi esa to‘lig‘icha iqtisodiyotning nodavlat sektorida yaratilgan. Yurtimizdagи korxonalarning 90 %i xususiy va korporativ mulk shakliga o‘tgan, ularda jami ish bilan band aholining 77 %i mehnat qilmoqda, deb ta’kidlangan edi. Respublikada amalga oshirilayotgan bozor islohotlari ham aynan kichik va o‘rta biznesni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yuqoridagi fikrlar ham buni isbotlab turibdi.

Albatta, aholining ish bilan bandlik darajasida respublika viloyatlari bo‘yicha shahar va qishloq joylarda muayyan hududiy tabaqalanish mavjud. Bu avvalo, u yoki bu viloyatning respublika xalq xo‘jaligi kompleksidagi o‘rni, uning iqtisodiy tuzilmasi, sanoatlashtirish darjasasi bilan belgilanadi.

Respublika aholisining bandlik darajasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, respublika miqyosida urbanizatsiya darjasasi yuqori bo‘lgan Navoiy viloyatida shaharda ish bilan band bo‘lganlar ulushi ancha yuqori, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida esa qishloq aholisining ish bilan bandligi yuqori ekanligi ma’lum bo‘ladi. Umuman olganda, mamlakat hududi bo‘yicha aholining bandlik

darajasi mintaqadagi mehnat resurslarining soni hamda ishlab chiqarishning qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq.

Respublika bozor iqtisodiyotiga o‘tishi davomida ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etishning yangi shakllari tobora ko‘proq rol o‘ynaydi hamda aholining bandlik darajasining o‘sishiga olib keladi.

Ta’kidlash joizki, faoliyat va mulkchilik shakli bo‘yicha ish bilan bandlikning taqsimlanishi bir qancha omillar, shu jumladan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashishining o‘zgarishi, demografik vaziyat va boshqalar ta’sirida o‘zgardi. Mustaqillikning dastlabki davrida aholining noishlab chiqarish

sohasidagi bandligining umumiyyetini tendensiyalari
quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- moliyaviy resurslarning yetishmasligi sababli ilm-fan va fanga xizmat ko‘rsatish, madaniyat va san’at, boshqaruv sohalarida ish bilan bandlik darajasi unchalik yuqori bo‘lmadi;

- byudjetdan moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarga qaramasdan sog‘lijni saqlash va ta’lim sohalarida ish bilan bandlik darajasi asosan saqlanib qoldi;

- aholining kundalik turmushi uchun nihoyatda zarur bo‘lgan uy-joy communal xo‘jaligi, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda ish bilan bandlikning kengayishi sababli xodimlar soni ko‘paydi.

Mehnat resurslari sonining o‘sishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga nisbatan oldinda borayotgan O‘zbekiston sharoitida aholini ish bilan ta’minalash hamma vaqt keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammo bo‘lib kelgan. Ayniqsa, bozor munosabatlariiga o‘tish sharoitida aholini ish bilan ta’minalash muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bo‘ldi.

2.2. Demografik jarayonlar milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omili.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholining mehnat faoliyati va mulkchilik turlari bo‘yicha bandligiga quyidagi omillar ta’sir qilgan: -

- iqtisodiyot tarkibining o‘zgarishi;
- xususiylashtirish;
- korxonalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi; ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tashkil qilinishi; demografik vaziyat;

90-yillarda aholining nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi bandligi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- ilm-fan, fanga xizmat ko'rsatish sohalari, maorif va san'at sohalarida, moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi tufayli bandlik birozgina ko'tarildi;

- sog'liqni saqlash, maorifda esa bandlik darajasi moliyaviy qiyinchiliklarga qarmasdan o'z holida saqlab qolindi.

Mehnat resurslarining ish o'rinalariga nisbatan tez o'sishi sharoitida aholini ish bilan ta'minlash doimo keskin ijtimoiy muammo bo'lib qoladi. Bugungi kunda aholi bandligini ta'minlash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu soha respublikada mehnat bozori, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning rivojlanishi sharoitida xususiy tadbirkorlikka, kichik va o'rta biznesga keng imkoniyatlar yaratildi, buning natijasida aholi bandlinig yangi shakllari va turlari paydo bo'ldi, bu asosan, xalq xo'jaligining xususiy sektori, ya'ni kichik va o'rta biznes hamda mehnat migratsiyasining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda yangi ish joylarini yaratish ustuvor yo'nalish bo'lib, ish bilan bandlikning yangi shakllarini, ayniqsa, ishchi kuchi ortiq bo'lgan qishloq joylarida uy mehnati va servis sohasini rivojlantirish hisoblanadi.

Respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida nodavlat va xususiy sektorda, asosan, kichik va o'rta biznes korxonalarida band bo'lgan aholi salmog'ining ortib borishi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda respublikada 215 mingdan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda, ularda 1,6 million kishi yoki sohada band bo'lgan aholining qariyb 90 %i mehnat qilmoqda, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining qariyb 85 %i ana shu xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keladi.

Respublikada xususiy sektorning rivojlanishi va kengayishi istiqbolda aholining ish bilan bandlik darajasining oshishiga ko'maklashadi. Kichik va o'rta biznesni yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha qabul qilinayotgan qonun hujjatlari aynan shunga yo'naltirilgan.

Hukumat tomonidan yirik korxonalar bilan shartnoma asosida kasanachilikni hamda shaxsiy xo'jaliklarda chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi bandligini ta'minlash borasida muhim ahamiyat kasb etdi. 2007 yili aholi bandligi va uning daromadlarini oshirish masalasini hal etish maqsadida qo'shimcha ravishda 630 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etilib, ularning qariyb

uchdan ikki qismi qishloq joylarida ochildi. Yangi ish o‘rinlarining 65 %ga yaqini kichik biznes va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari, 20 %dan ortig‘i esa kasanachilik sohasi hissasiga to‘g‘ri keldi.

2009 yili ko‘rilgan amaliy choralar natijasida respublika miqyosida 940 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarda tashkil etildi. Kichik biznes sohasida 390 mingdan ziyod, shu jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari ochildi.

Sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni hamda pudrat shartnomasi asosidagi uy mehnatini rag‘batlantirish aholi bandligini ta‘minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ana shunday mehnat faoliyatini rivojlantirish natijasida 130 mingga yaqin ish o‘rni yaratilganini alohida qayd etish lozim.

Respublikada mehnat resurslari sonining yil sayin o‘sib borishi aholining ish bilan bandligini ta‘minlash borasida qiyinchiliklar tug‘dirib, tashqi mehnat migratsiyasini kuchaytirdi. O‘zbekiston aholisi tashqi migratsion aloqalarining 90-yillar oxiridagi holatiga nazar tashlansa, ulardagи o‘zgarishlar, avvalambor, migratsion aloqalarning hududiy jihatdan kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, ham ijobjiy, ham salbiy ahamiyat kasb etdi. Tashqi migratsiyaning salbiy oqibatlariga malakali kadrlarning respublika tashqarisiga chiqib ketishi, chet davlatlarda O‘zbekistonlik migrantlar huquqlarining buzilishi kabi muammolarni ko‘rsatish mumkin. Ijobiy jihatlariga esa, chet davlatlarda ishlashni istagan fuqarolarning mehnat qilish imkoniyatlarining kengayishi, chet elga borib ishslash imkoniyatiga ega bo‘lmagan aholi uchun respublikada ish o‘rinlarining bo‘sashi, qishloqdan shaharga bo‘lgan migratsiyaning faollashuvi, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, respublikaga valyuta mablag‘larining kirib kelishi kabi omillarni kiritish mumkin^[131].

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida O‘zbekiston mehnat resurslari ham astasekin xalqaro mehnat bozoriga kirib bormoqda. O‘zbekiston fuqarolari xorijiy davlatlarda, jumladan, MDH davlatlari (asosan, Rossiya va Qozog‘iston) va Janubiy Koreya, BAA, AQSH, Turkiya, Malayziya kabi davlatlarda ishlab kelmoqda. Bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilib turish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 13 fevraldagи 75-sон qaroriga asosan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzurida Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha agentlik tashkil etildi. MDHning bir qator davlatlaridan farqli o‘laroq, 90-yillar davomida O‘zbekistonda uyushgan mehnat migratsiyasi keng rivoj topmadи. Davlat

darajasida mehnat migratsiyasi 1994-1995 yillardan, ya’ni Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qoshida Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha agentlik tashkil etilgan davrdan boshlab rivojlna boshlandi. Mazkur agentlik tomonidan 1995-2000 yillar davomida 4,7 ming kishi Koreya Respublikasida ishslash va o‘qish uchun yuborilgan^[14]. Shuningdek, agentlik tomonidan turli kasb egalarining AQSH, Yaponiya, Malayziya, BAA va boshqa davlatlarga ham yuborilishi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda ishslash huquqi O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan bo‘lib, ayniqsa, ushbu qonunning 1998 yil 1 mayda qabul qilingan ikkinchi tahririga ko‘ra fuqarolarning tashqi mehnat faoliyati yuritish huquqi yanada kengaydi. Jumladan, mazkur qonunning 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi”^[15], deb belgilab qo‘yilgan.

Mazkur Qonunning birinchi tahririga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolari chet elda mustaqil ish izlash va ishga joylashish huquqiga ega emas edilar. Ko‘rinib turibdiki, 90-yillar davomida fuqarolarning chet elda mehnat qilish huquqlarida bir qator ijobjiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu o‘zgarishlar, asosan, bozor islohotlarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Tashqi mehnat migratsiyasi ishtirokchilarining asosiy qismini 30 yoshgacha bo‘lgan yigitlar tashkil etgani holda, bularning aksariyati, asosan, yuqori malakani talab qilmaydigan qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarida mehnat qildilar. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining ma’lumotlariga ko‘ra, chet davlatlarda maoshning yuqori bo‘lishiga qaramay, ba’zi migrantlar shartnomaga muddatidan oldin qaytib kelish holatlari ham bor, buning sababi sifatida og‘ir mehnat sharoitlari va migrantlarning kasalligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, mazkur markaz tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijasi tashqi mehnat migratsiyasi ko‘p hollarda oilaviy biznesga aylanayotganligini ko‘rsatadi.

So‘rov nomaga ma’lumotlariga ko‘ra, tashqi mehnat migratsiyasi yo‘nalishida uzoq xorij davlatlari orasida migrantlarni o‘ziga eng ko‘p jalb etayotgan davlat AQSH bo‘lib qolmoqda. Keyingi o‘rinlarni Janubiy Koreya, Avstraliya va Kanada kabi davlatlar egallagan. Migrantlarning deyarli hech biri o‘z mutaxassisligi bo‘yicha mehnat qilmasligini aytgan.

So‘rovnomalarning tahlili migrantlarni asosiy 2 guruhga bo‘lish imkonini beradi:

- o‘z mehnatidan unumli foydalanib, dastlabki mablag‘ni to‘plash hamda o‘z yurtiga qaytib bu yerda tadbirdorlik faoliyati bilan shug‘ullanish (taxminan 70%);
- mehnat migratsiyasi orqali chet elga chiqib ketish hamda kelajakda u yerda doimiy qolish.

Mehnat migratsiyasining rivojlanib borishi bu yo‘nalishda maxsus meyoriy-huquqiy bazani shakllantirishni taqozo etardi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 14 iyuldagи “Mehnat kuchlarini olib chiqish va olib kirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 353-son qarorining qabul qilinishi bu boradagi dastlabki qadam bo‘ldi. Mazkur qaror O‘zbekiston fuqarolarining chet davlatlarda mehnat faoliyati yuritish huquqini amalga oshirishi, fuqarolarning chet eldagи bandligi masalalarini tartibga solish va muvofiqlashtirish hamda ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratildi.

Mehnat migratsiyasining holati, 2000 yillarga kelib, oldingi davrdan miqyosi, xususiyati va ishtirokchilarining tarkibi jihatidan farqlana boshladi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bu davrda O‘zbekistondan bo‘layotgan tashqi mehnat migratsiyasi o‘rtta hisobda 600-700 ming kishini qamrab oldi^[16].

O‘zbekistondan mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishi Rossiyaga qaratilgan bo‘lib, shuningdek, AQSH, Isroil, Gretsya va G‘arbiy Yevropa davlatlarida ham O‘zbekistonlik migrantlar mehnat faoliyati bilan shug‘ullanib kelmoqda.

O‘zbekistonda keng yoyilgan mehnat migratsiyasining yana bir turi bu tadbirdorlarning savdo migratsiyasi hisoblanadi. Bu migratsiya bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida shakllangan bo‘lib, mahalliy millat vakillari orasida tez rivoj topdi, chunki savdo-sotiq bilan shug‘ullanish o‘zbek xalqining tabiatiga xos xususiyat hisoblanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonga mehnat faoliyati yuritish maqsadida chet el fuqarolari ham kelishmoqda. Bularning aksariyat qismini Turkiya va Koreya Respublikalarining fuqarolari tashkil etadi, shuningdek, O‘zbekistonda qo‘shma korxonalari mavjud davlatlarning fuqarolari ham mehnat qilmoqda, lekin ularning soni ancha past darajada saqlanib turibdi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 90-yillar davomida amalga oshirilgan tashqi mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari kam bo‘lib, respublika fuqarolarining chet elda ishlashga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplamas edi. 2000 yildan keyin mazkur yo‘nalishda bir qator ijobjiy o‘zgarishlar kuzatila boshlandi^[17]. Jumladan, 2000 yilning o‘zida davlat korxonalari va idoralari

tomonidan 1,8 ming kishi chet elga ishga yuborildi^[18]. So‘nggi yillarda yuz bergan o‘zgarishlar natijasida tashqi mehnat migratsiyasi miqyoslari ancha kengaydi. Lekin, respublika hukumatining say-harakatlariga qaramay, so‘nggi yillarda noqonuniy mehnat migratsiyasi ham ancha rivoj topganligini qayd etish lozim. Ayniqsa, bu holat Rossiya va Qozog‘iston bilan bo‘layotgan migratsion jarayonlarda namoyon bo‘lmoqda. Shuni ham ta’kidlash joizki, noqonuniy mehnat migratsiyasining oldini olish, migrantlarning xorijiy davlatlarda huquqlarini himoya qilish borasida O‘zbekiston hukumati tomonidan ma’lum chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekistondan bo‘layotgan mehnat migratsiyasida asosiy o‘rinni Rossiya egallashi e’tiborga olinib, 2007 yil 4 iyul kuni ushbu ikki davlat o‘rtasida migratsion siyosat sohasiga oid uchta shartnoma imzolandi. O‘zbekistonlik migrantlarning Rossiyada mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi shartlari va ularning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurashish masalalari kelishilgan mazkur shartnomalarning imzolanishi ikki davlat hukumatlararo komissiyasi faoliyatining natijasi bo‘ldi. Bu mazmundagi shartnoma MDH davlatlari o‘rtasida birinchi bor imzolandi^[19].

Umuman olganda, O‘zbekistondan bo‘layotgan tashqi mehnat migratsiyasida ishtirok etayotgan kishilarni shartli ravishda 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan jo‘natilganlar;
2. Mustaqil ravishda ish izlab ketganlar (asosan, Rossiya va Qozog‘istonga);
3. Tadbirkorlar (asosan, Turkiya, Xitoy, Eron, BAA va hokazo). Bugungi kunda respublikaning barcha hududlarida iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarini barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish sohasi va kasanachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu orqali, avvalambor, aholi bandligini ta’minalash, uning ish haqi va daromadlarini oshirish hamda shahar va tumanlardagi eng muhim ijtimoiy muammolarni hal etishga erishiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda amalda bo‘lgan ijtimoiy himoya tizimi murakkab o‘tish davrida nafaqat aholining ijtimoiy muhtoj guruhlarini himoya qilishdan, shuningdek, mehnat samaradorligini oshirish uchun rag‘batlarni yaratishdan ham iborat bo‘ldi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini bosqichma-bosqich qayta tashkil etish va takomillashtirish ishlari samarali olib borilmoqda, aholi farovonligiga asoslangan iqtisodiy munosabatlar qaror topmoqda. Aholini ijtimoiy himoya

qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi o'laroq, aholining daromadlari darajasiga ko'ra, haddan tashqari tabaqlanishini ushlab turishga, qashshoqlikning oldini olishga hamda aholi turmush darajasini ko'tarishga erishildi.

Shuningdek, aholi bandligi masalasi O'zbekistonda keskin ijtimoiy muammolardan bo'lib kelgan. Sovet davridagi rejali iqtisodiyot sharoitida ham mehnatga layoqatli yoshlarning 1/4 (qishloqda 1/2) qismi ish topa olmasdi. Mustaqillik yillarida respublikada mehnat bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, aholi bandligini ta'minlash va farovonlikni oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilikni rivojlantirishga e'tibor qaratib kelinmoqda. Aytish mumkinki, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublika mehnat resurslari miqdorining o'sib borishi tashqi mehnat migratsiyasini rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Jahon statistik ma'lumotlari (countrymeters)ga ko'ra, dunyoda 7,5 milliarddan ortiq odam yashaydi va ulardan 192,7 millioni ishsiz hisoblanadi^[20]. Dunyoda demografik jarayonlarni baholash asosida demografik vaziyatlarni boshqarish bo'yicha, shuningdek, ish o'rinalarini yaratish, infratuzilma, qurilish, ta'lim va tibbiyot muassasalarini rejalashtirish kabi sohalarda muhim qarorlar qabul qilinadi. Ammo iqtisodiy va statistik tadqiqotlar amaliyotida demografik jarayonlar va mehnat bozori o'zaro bog'liqligini o'rganishga kam e'tibor berilmoqda.

Jahonda demografik jarayonlarni mehnat bozoriga ta'sirini statistik tahlil qilish asosida rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar, jumladan, demografik holatning mehnat bozori faoliyatiga ta'siri, mehnat bozori demografik rivojlanish zamirida, demografik jarayonlarning hududlar iqtisodiyotiga ta'siri, demografik o'zgarishlarning mehnat taklifiga va iqtisodiy o'sishga ta'siri kabi yo'naliishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur jihatlardan kelib chiqib, demografik jarayonlar va mehnat bozorining o'zaro ta'sirini statistik o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda keng qamrovli statistik tadqiqot o'tkazish uchun demografik omillar, shuningdek, ularning mehnat bozori va aholi banligiga ta'sirini batafsil o'rganish zarur. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida: «yangi ish o'rinalarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish; mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish

uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish»^[21] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamizda demografik jarayonlar va mehnat bozori o‘zaro bog‘liqligini statistik o‘rganishni takomillashtirishni talab etadi.

2.3. Aholi tug‘ilishi, o‘limi, jinsi va yosh tarkibi hamda mehnat resurslarining miqdor jihatidan o‘zgarishlari va uning nazariy-konseptual masalalari

Demografik statistika, aholi statistikasi — statistika fani tarmog‘i, aholi yoki uning alo-hida guruhlarining miqdori, tarki-bi, joylashishi va takror barpo bo‘li-shi haqida statistik uslub asosida ma’lumotlar to‘plash, uni qayta ishslash va taxlil qilishni o‘rganadi. Demografik statistika s aholi va demografik jarayonlar (tug‘ilish, o‘lish, nikoh va ajralish, aholining takror barpo bo‘lishi) haqidagi raqam ko‘rsatkichlar yig‘indisidan iborat. Demografik statistika ma’lumotlaridan sotsial-demografik tadqiqotlarda foydalilanildi.

Demografik statistika aholi va demografik jarayonlar haqida ma’lumotlar to‘plashda ularning ma’lum ijtimoiytarixiy ta-raqqiyot davomida miqdor va sifat jihatdan muntazam o‘zgarib borishini nazarda tutadi. Demografik statistikaning aholi ro‘yxati o‘tkazish, demografik jarayonlar va migratsiyani doimiy ro‘yxatga olib borish kabi i. t. uslublari mavjud aholi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlash, ularni qiyoslash va demografik omillarni o‘rganish qoidalarini ham ishlab chiqadi.

Demografik statistika statistikaning boshqa tarmoqlariga nisbatan ancha oldin paydo bo‘lgan (q. Aholi ro‘yxati). O‘zbekistonda Demografik statistika s, asosan, XX asrning 1-yarmidan shakllana boshlagan. 1927 y. Respubli-kada fuqarolik holatini qayd etish (ZAGS) byuolarining tarkib topishi Demografik statistika rivojlanishiga olib keldi.

Demografik statistika ma’lumotlari dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida maxsus byulletenlarda, statistik to‘plam, jur. va demografik yilnomalarda nashr etiladi. Dunyo aholisi va uning miqsor, sifat o‘zgarishlari BMT demografik yilnomalarida, O‘zbekiston aholisi va demografik jarayonlari haqidagi ma’lumotlar esa O‘zbekistan Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi Statistika departamentining demografik yilnomalarida muntazam chop etiladi.

“Ona va bola” dasturining amalga oshirilishi, èsh avlodni sog‘lomlashtirish muammolarini bartaraf etishga qaratilgan maxsus qarorlar

qabul qilinishi, bolalar sog‘lig‘ini saqlash muassasalarida mutlaqo yangi xarakterdagи tibbiy preparatlar va metodikalarning qo‘llanila boshlanishi, oila manfaatlarining muhofaza qilinishi tufayli mamlakatimizda onalar o‘limi darajasi 2 baravardan ko‘proq, bolalar o‘limi 3 baravarga kamaydi. O‘zbekistonda iqtisodiy faol aholi sonining oshishi kuzatilmоqda. Ijtimoiy taraqqiётning o‘zbek modeli asosida amalga oshirilgan islohotlar mehnat bilan mashg‘ul bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada iqtisodiy faoliyatga jalb etilganlar soni oshib bordi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, 2000-2007 yillar mobaynida respublikamizda iqtisodiy faol aholi soni 2 million 280 ming 800 kishiga ko‘paygan. 5.O‘zbekiston aholisi tarkibida erkaklar soni aëllar soniga qaraganda tezroq ko‘payib bormoqda. 2001yilda mamlakatdagi aëllar 12449,2 mingtani, erkaklar 12350,8 mingtani tashkil qilgan.4 Ular o‘rtasidagi nisbat 98,4 mingga yetgan. 2004 yilda O‘zbekistondagi aëllar soni 12876,0 ming kishidan, erkaklar soni 12831,4 ming kishidan iborat bo‘lgan.5 Ular o‘rtasidagi nisbat atigi 45,6 ming kishini tashkil etgan. 6. O‘zbekistonda erkaklar va aëllarning umri davomiyligi oshib bormoqda.

Mamlakatimizda mustaqilligimizning

qariyb 20 yili mobaynida odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 èshdan 73 èshga, aëllarning o‘rtacha umr ko‘rish esa 75 èshga oshdi. 6 Albatta, bu rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichlariga qaraganda ancha past. Biroq jahoning rivojlanaётган mamlakatlari va MDHning tegishli ko‘rsatkichlari bilan taqqoslaganda, O‘zbekistondagi koeffitsiyentlar ancha yaxshiligi ma’lum bo‘ladi. Demografik o‘sish obyektiv ravishda ekologik vaziyatning murakkablashishiga olib kelmoqda. Bu hol shaxs sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shaxs sog‘lig‘ining yemirilishi esa uning ma’naviyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatini oshirish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. 5. Demografik o‘sish sur’atlari bilan ta’lim olish imkoniyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik ham shaxs ijtimoiy qiёfasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda o‘rta-maxsus va kasb-hunar ta’limi olish imkoniyatlarining rivojlanish sur’atlari bilan demografik o‘sish sur’atlari o‘rtasida mutanosiblik mavjud. Biroq oliv o‘quv yurtlari soni bilan aholi miqdori va talabalar miqdori o‘rtasida nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Viloyatlardagi oliv o‘quv yurtlarining haddan ziёd yuklanganligi, Toshkent shahriga borib o‘qishning serchiqimligi èshlarda o‘z madaniy saviyasini yuksaltirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, bilimlarini oshirish ehtiёjini susaytirmoqda. 6. Shaxsning ijtimoiy qiёfasiga demografik o‘sish sur’atlari bilan madaniy-ma’rifiy muassasalar miqdori o‘rtasidagi nomutanosiblik ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Mamlakatda demografik o‘sish sur’atlari salmoqliligicha qolaётган bir davrda ommaviy kutubxonalar, klub muassasalari, muzeylar va teatrlearning

aholiga xizmat ko'rsatish darajasi pastligicha qolmoqda. O'zbekistonda aholi tarkibida èshlar miqdorining kattaligi ham yetuk va keksa èshdagagi kishilar, ham èsh yigit va qizlar ijtimoiy qièfasiga ta'sir o'tkazadigan omillarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, èshlarning ko'pligi yetuk èshdagagi kishilarda mehr-muruvvat, mas'uliyat kabi tuyg'ularning rivoj topishiga sabab bo'lmoqda. Ota-onalardagi mehr-muruvvat va mas'uliyat tuyg'ularining gipertrofiyasi mehr profitsitini, boshqacha aytganda, mehrmuruvvat bilan èshlar oldiga qo'yilaètgan talablar o'rtasidagi nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda shakllangan yigitqizlarning bir toifasi tom ma'noda asl fuqaro sifatida voyaga yetaètgan bo'lsa, boshqa toifasida boqimandalik kayfiyati, tafakkur qaramligi qaror topmoqda. O'zbekiston aholisi tarkibida iqtisodiy faol kishilar sonining oshaètgani bilan shaxs ijtimoiy qièfasidagi o'zgarishlar o'rtasida ham ma'lum aloqadorlik mavjud. Tadbirkorlik harakatining jadal rivojlanishi iqtisodiy faol kishilarda mulkka egalik tuyg'usini shakllantirdi, mehnatga munosabatini tubdan o'zgartirdi.

Aholi siyrak joylashgan hududda yer va suv resurslarining kattaligi dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Bu mazkur hududda istiqomat qilaètgan kishilarning turmush tarzi va qadriyatları sistemasiga tubdan ta'sir o'tkazadi. Masalan, ob-havoning yaxshi kelishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ko'payishiga va turmush darajasining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Aholining siyrak joylashgani bunday aholi punktlarini elektrenergiyasi, gaz, ommaviy axborot vositalarining xizmati bilan ta'minlash, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilishni birmuncha murakkablashtiradi. Shuningdek, bunday vaziyatda turli ommaviy madaniyma'rifiy tadbirlarni o'tkazish, targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish ham qiyin kechadi. Bu shaxsning dunèqarashi va madaniy saviyasiga, uning rivojlanishi sur'atiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. O'zbekiston aholisining katta qismi qishloqlarda joylashgani ham shaxsning ijtimoiy qièfasida jiddiy iz qoldirmoqda. Mamlakatimiz hukumati qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchil olib borish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, qishloqda shakllanaètgan yangi mulkiy munosabatlarni, mulkdorlar va tadbirkorlar manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Natijada qishloq fuqarolari ijtimoiy qièfasi tubdan o'zgarmoqda. Biroq unga xos ayrim illatlar, ayniqsa tafakkur provinsializmi saqlanib qolmoqda. Dissertatsiyaning uchinchi bobo «Demografik vaziyatni sog'lomlashtirish va uning shaxs ijtimoiy qièfasiga ta'siri» deb nomlanadi. Unda

O'zbekistondagi demografik vaziyatni sog'lomlashtirish orqali shaxs ijtimoiy qièfasidagi ayrim ijtimoiy illatlarni bartaraf etish yo'llari haqida mulohaza yuritiladi.

Demografik sièsat borasida: a) aholi miqdorining mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar va tabiiy resurslarga mutanosib ravishda saqlanishini ta'minlamoq kerak. Buning uchun mazkur mutanosiblikni muntazam o'rganib boruvchi "Demografik muammolarni o'rganish" ilmiy-tadqiqot institutini shakllantirish, shaxsni jamiyat manfaatlariga mos miqdorda farzand ko'rishga undovchi targ'ibot sistemasini vujudga keltirish, qishloq joylarida perinatal va skrining markazlari tashkil etishga alohida e'tibor qaratish, sog'lom turmush tarzi targ'ibotini kuchaytirish lozim; b) aholi joylashuvini optimallashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish lozim. Buni bajarish uchun aholi siyrak yashaydigan mintaqalarda istiqomat qilish istagini bildirgan kishilarni uy-joy bilan imtièzli ta'minlash, ularga tomorqa yerlari ajratish, ma'lum muddatda soliqlardan ozod qilish, mazkur hududlarning ijtimoiyiqtisodiy imkoniyatlarini muntazam targ'ib va tashviq etish taqazo etiladi; v) hukumat amalga oshiraётган sièsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy chora-tadbirlarning aholitarkibiga mutanosibligini ta'minlash kerak. Buning uchun gerontologiya va erkaklar muammolarini chuqur tahlil qilish, oilasiz kishilarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, mamlakat ziёlilarini turmush darajasi va ijtimoiy maqomini oshirish darkor. Shaxs demografik faoliyatini optimallashtirish borasida: a) shaxsning nikoh va oilaga munosabatini yanada insonparvarlashtirish va zamonaviylashtirish zarur. Xususan, èshlarning turmush o'rtog'i haqidagi ideallarini shakllantirish, turmush o'rtog'ini tanlashning ratsional prinsiplarini yuzaga keltirish, aëllar diskriminatsiyasi hollariga barham berish, bolalar erkinligini kengaytirish muhim ahamiyatga ega; b) shaxs reproduktiv faoliyatini yanada optimallashtirish kerak. Zotan, shaxsning oila ijtimoiy ahvolini oshirish malakalarini takomillashtirish, oila a'zolari madaniy saviyasini oshirishga e'tibor berishga odatlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishini ta'minlash zarur; 24 v) shaxsning o'z-o'zini asrash borasidagi faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish lozim. Jumladan, shaxsni o'z sog'lig'iga munosabatini o'zgartirish, o'zini asrashga odatlantirish, ovqatlanish madaniyatini rivojlantirish darkor.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonda mustaqillik arafasida demografik jarayonlarning holati 2. Demografik jarayonlar milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi
3. Aholi tug'ilishi, o'limi, jinsi va yosh tarkibi hamda mehnat resurslarining miqdor jihatidan o'zgarishlari
4. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning o'ziga xosligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Azizzxo‘jayev A.Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T., 2001.
7. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - T.: O‘zbekiston, 2005. 8. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.
9. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – Toshkent: Moliya, 2003.
10. O‘zbekiston mustaqillik yillarda. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
11. O‘zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2005.
12. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
13. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
14. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
15. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
16. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
17. Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009. 18. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70 80-yillar misolida). Qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 1999.
19. G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O‘zbekiston. -Toshkent: Mehnat, 2001.

3-MAVZU. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida

REJA: 3.1.

Aholini ro‘yxatga olish tarixiga nazar.

3.2. Yangi O‘zbekistonda jamiyatdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ona va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga qaratilgan milliy urf-odatlarga asoslangan tadbirlarga alohida e’tibor qaratilishi.

3.3. O‘zbekistonda 2023 yilda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik jarayoni, uni o‘tkazish, uning natijalarini olish va e’lon qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tadbirlar.

3.4. Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minalash masalalari

Tayanch iboralar: islohot, mehnat resurslari aholini ro‘yxatga olish, iqtisod, bosqich, o‘zbek modeli, tamoyil, aholi soni, mintaqa.

3.1. O‘zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va uning bosqichlari.


Xitoyning qadimiy donishmand faylasufi Konfusiy ikki yarim ming yil oldin “Biz qanaqa xalq ekanligimizni bilgingiz kelsa, oldin bizning sonimizni bilib oling” degan ekan. Donishmandning bu so‘zлari O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy-ijtimoiy rivojlanish davrida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, jamiyatimizning rivojlanish sur’atlari shiddat bilan oshib borayotgan sari aholimizning soni, undagi tarkibiy va sifat o‘zgarishlar e’tiborimizdan chetda qolib ketishiga yo‘l qo‘yishimiz kerakmas. Bu borada e’tiboringizga yurtimizda yashab istiqomat qilib kelayotgan fuqarolarimiz soniga, ularning keyingi paytlarda son va jins jihatidan bo‘layotgan keskin o‘zgarishlariga, davlatimizdagi aholining yaqin va uzoq istiqbollaridagi bo‘lajak holatlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Ma’lumki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ham o‘ziga xos aholishunoslik siyosati shakllanmoqda. O‘zbekistonda rasmiy demografik tarix 1897 yildan, ya’ni Vatanimiz hududining bir qismida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatdan o‘tkazishdan boshlandi. Shu kungacha jami aholini ro‘yxatdan o‘tkazish

mamlakatimizda olti marta (**1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989** yy.) amalga oshirilgan. Bu kabi aholishunoslik statistikasi bo'yicha **O'zbekistonda demografik tarix** fani rivoji uchun xizmat qiladigan ko'p manbalar mavjud bo'lib, tarixchilar ulardan yetarli foydalana olishlari zarur.

O'zbekiston barcha tarixiy bosqichlarda o'zining demografik holati bilan alohida ajralib turgan va o'ziga xos yo'llarni bosib kelmoqda. O'zbekiston milliy iqtisodiyotida innovatsion tendensiyalarning ta'siri ortib borishi bilan jamiyatimizdagi demografik o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yil sayin kuchaymoqda. Bu jarayon, avvalambor, mamlakatimiz aholisi miqdorining yuqori sur'atlar bilan oshib borayotganligiga bog'liqdir. Misol uchun, o'tgan asrning 90-yillarida O'zbekistondagi tabiiy o'sishning o'rtacha yillik darajasi 27-29 promilleni tashkil etgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichlar mustaqillik yillaridagi ma'lum iqtisodiy-ijtimoiy sabablarga ko'ra, 2004 yilda 14,65 promillega tushib ketgan edi. Faqatgina 2004 yildan iqtisodimiz va jamiyatimizdagi ijobiy o'zgarishlar natijasida 2017 yilga kelib aholimizning tabiiy o'sish darajasining 18,15 promillegacha oshganligi kuzatilmoqda. Agar 1990 yilda O'zbekistonda 24,3 mln. kishi istiqomat qilgan bo'lsa, bu raqam 2018 yil dekabr oyida 33,0 mln.dan ziyod kishini tashkil etyapti, ya'ni 35,6 foizga ko'paydi. Demograf mutaxassislarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 46-47 million kishini tashkil qiladi.

Demografik jarayonlar, birinchi navbatda, ijtimoiy-mehnat sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, milliy iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo'lib, aholining mehnat bilan bandlik va ishsizlik darajasining miqdoriga, yalpi ishlab chiqarish aholining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad ko'rsatkichlarini, uy-joy bilan ta'minlash, keksaygan yoshdagi pensiya ta'minoti tashkillashtirishga bevosita ta'sir etib boradi.



1- rasm. 1990-2017 yillarda O‘zbekiston aholisi sonining o‘zgarishi Manba:
O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018
yil ma’lumotlari

Demografik jarayonlar — bu aholining vaqt va makonlarda rivojlanishini aks ettiradigan hodisalar bo‘lib, uning ko‘payishi, o‘limi, jinsi va yosh tarkibi hamda mehnat resurslarining miqdor jihatidan o‘zgarishlari bevosita jamiyatning hamda milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa hisoblanadi. Ma’lumki, jamiyatdagi demografik voqealar umumiyl va muayyan individual tasodifiy sabablar ta’siri ostida amal qiladi. Bu jarayondagi ayrim voqeliklar vujudga kelishi ba’zi sabablarga ko‘ra individual va noyobdir, lekin demografik jarayonda ular ketma-ketlik voqealardan iborat bo‘lib, ular muntazam ravishda o‘zgarib turadi.

Xorijiy mamlakatlardagi innovatsion tendensiyalarning ta’siridagi demografik jarayonlar yetakchi mutaxassislar tomonidan hozirgi davrda insoniyatning eng muhim va dolzarb omillar sifatida tan olinmoqda. O‘zbekistonda ham keyingi yillari bu masalalar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi miqdorining o‘zgarish dinamikasi, barcha hududlarda mutanosib joylashuvi, tarkibiy tuzilishi ko‘pincha davlatimizning iqtisodiy rivojlanishning strategik omillari va uning kelajak uchun ijtimoiy-iqtisodiy parametrlarini shakllantirishiga ta’sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning demografik jarayonlari hozirgi xalqaro demografik nizomlarga muvofiq sog‘lom tarzda rivojlanib bormoqda.

Dunyo tajribasidan kelib chiqib ta'kidlaydigan bo'lsak, bugungi rivojlanish davrida dunyoning barcha davlatlari kabi O'zbekiston ham demografik sohasida evolyusion jarayonlarni, ya'ni demografik o'tishning muayyan bosqichlarini ko'rishi muqarrardir. Ma'lumki, ularning birinchisi yuqori darajadagi tug'ilish va o'lim miqdori bilan bog'liq bo'lib, ko'p sonli katta oilalar va avlodlarning tez o'zgarishi bilan ajralib turadi. Ikkinci bosqichda ijtimoiy taraqqiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi muvaffaqiyatlar tufayli o'lim darjasini keskin kamayishi, ammo tug'ilishning yuqori darjasini saqlanib qolishi bilan ajralib turadi, bu aholi miqdorining keskin va nazoratsiz o'sishiga olib keladi. O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari singari o'zining demografik rivojlanishida ikkinchi bosqichdan o'tib, hozirgi davrda tarkibida yosh aholi o'sib borishi tufayli va umumiyligi o'lim ko'rsatkichi tug'ilish darajasidan yuqoriroq bo'lgan uchinchi bosqichda amal qilmoqda.


Jahon amaliyotida demografik rivojlanishning to'rtinchi bosqich o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan oshib ketishi bilan ifodalanishi va depopulyatsiya jarayoni kirib kelishi bilan xarakterlidir, ya'ni aholining tabiiy o'sishi tarkibida tez sur'atlar bilan demografik qarishi tufayli aholining mutlaq kamayishiga olib

kelishini belgilab beradi. Tabiiyki, zamonaviy sharoitlarda depopulyatsiya jarayoni davlatning demografik va ijtimoiy xavfsizligiga tahdid soluvchi va xavf tug'diradi, chunki bu resursni manba jihatidan sezilarli darajada zaiflashtiradi va mehnat resurslari shakllanishida va aholining ish bilan bandlik darajasida boshqa mamlakatlarga qaram bo'lib qolishiga sabab bo'lib qoladi. Bu jarayon hozirgi bosqichda ko'plab Yevropa davlatlari hamda MDHda – Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yli respublikalarida avj surmoqda.

O'zbekistonda aholining tabiiy o'sish sur'atlarining beqaror o'smayotganligi sababli demografik rivojlanish ham notekis rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan jahon demografik ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, O'zbekiston tabiiy ravishda o'sish sur'ati 25 promilledan 15 promillegacha tushgani sabab dunyoning rivojlangan mamlakatlari o'rtasida o'rtacha ko'rsatkichga ega.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yillarning boshida davlatning demografik rivojlanishni tartibga solish bo'yicha qabul qilgan qonunchilik va tashkiliy chora-tadbirlariga qaramasdan, tug'ilishning umumiyligi darjasini 20,50 dan 23,66 gacha farq qiladi (2-rasm). Mamlakatimizda "Demografik rivojlanish davlat siyosati"ning ishlab chiqilmaganligi so'nggi 30 yil ichida aholini umumiyligi ro'yxatdan o'tkazilmaganligi sabab va O'zbekiston aholisi holati jiddiy tahlil qilinmaganligi va demografik rivojlanishning istiqbolli prognozlarining yo'qligi, mamlakatda tug'ilish darjasini oilaning

miqdor tarkibi muvofiqlashtirish jarayonlari o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketishiga olib keldi. Faqatgina 2017 yildan boshlab jamiyatdagি oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ona va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga qaratilgan milliy urf-odatlarga asoslangan tadbirlarga alohida e’tibor qaratildi.



2-rasm. 2000-2017 yillarda O‘zbekistonda tug‘ilganlarning miqdori va tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti


Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018 yil ma’lumotlari

Mamlakatda nisbatan yuqori tug‘ilish darajasi mavjudligi quyidagi holatlarga olib keldi: bugungi kunda O‘zbekistonda mehnat resurslari mamlakat aholisining 57,7 foizini tashkil etadi. Ushbu nisbatning ko‘rsatkichlariga ko‘ra, O‘zbekiston dunyoda yetakchio‘rinni egallaydi. Demografik rivojlanish va innovatsion tendensiyalar ta’sirida iqtisodiyotning tubdan tarkibiy o‘zgarishlar natijasida mehnat bozoridagi vaziyat keskinlashib bormoqda va yaqin yillarda yanada keskinlashishi aniq.

O‘zbekistonning 2017 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 18,8 million mehnatga layoqatli resurslaridan 14,6 million kishi iqtisodiy jihatdan faol va 4,2 million kishi iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi toifasiga kirishadi. Iqtisodiy faol aholi sonining 5,3 mln. kishi yoki 40,2% iqtisodiyotning rasmiy sektorida va 7,9 mln. kishini yoki 59,8% norasmiy ishlab chiqarish sektorida ishlaydi. Bu raqam

O‘zbekistonning milliy iqtisodiyotining bozor tizimini chuqurlashganligi dinamik darajasining hozirgi holatini belgilab beradi va shu bilan birga jamiyatdagи mehnat resurslarini sanoat va hududlar miqyosida taqsimlash va ularidan foydalanish samaradorligi, malakaviy, jinsiy hamda

yoshiga doir darajasi bo'yicha jiddiy muammolar mavjudligidan dalolat berib turibdi .



3-rasm. 2000-2017 yillarda O'zbekistonda band aholi sonining o'zgarishi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil ma'lumotlari

O'zbekiston iqtisodiyoti oldida mehnatga layoqatli aholini bandlik darajasini oshirish uchun prinsipial yangi, innovatsion talablariga muvofiq siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning dolzarb muammolari turibdi. Mamlakatimizda istiqbolda yuqori darajadagi demografik bosimni mehnat bozoriga salbiy ta'sirini e'tiborga olgan holda iqtisodiy faol aholini ishga jalb qilish borasida davlat dasturlari va tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, respublika demografik o'tishning uchinchi bosqichida, ya'ni yosh aholi tarkibiy tuzilishi hisobiga tug'ilish darajasi va o'lim ko'rsatkichining pastligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi paytda aholimiz o'rtacha yoshi 25,7 yoshni tashkil etadi (erkaklar — 25,2, ayollar — 26,3 yosh). Aholining yillik tabiiy o'sishi 450-500 ming kishini tashkil etadi. [3.15]. O'zbekistonning mehnat bozorini shakllantirishga ta'sir qiladigan yosh tarkibiy tuzilishining o'ziga xos xususiyati 30 yoshgacha bo'lgan aholining katta qismini tashkil etadi.

Demografik jarayonlar uchun yana bir muhim masala – O'zbekiston aholisi ulushida pensionerlarning o'rni asta-sekin o'sib borishi. Pensiya sohasida mavjud vaziyatga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri aholini ish bilan bandlik ko'rsatkichlarida tarkibiy o'zgarishi hisoblanadi. Xusan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalariga mehnat resurslarining beqaror rasmiy sohalardan xususiy sektorga oqimi kuchayishi, kichik chakana

savdo shaklida ifodalangan norasmiy ish bilan band aholi o'sishi, asosan qishloq xo'jaligi sohasidagi norasmiy ish bilan vaqtincha band bo'lganlar va boshqa turdag'i xizmat qilayotgan shaxslar kiradi. Ushbu toifadagilar faoliyati asosiy xususiyati – mehnat shartnomalari va ijtimoiy himoya kafolatlarining mavjud emasligi, soliqlarni muntazam to'lamaslik va ijtimoiy jamg'armalarga majburiy ajratmalar hamda Respublika Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga tushmayotgan badallardir.

Yaqin kelajakda respublikada “aholi keksayishi”, ya'ni pensiya yoshidagilarning miqdori 2050 yilga borib ikki baravariga oshishi prognoz qilinadigan hamda bosqichma-bosqich va uzoq muddatli boshqa demografik o'zgarishlar kutilmoqda. “Aholining qarishi” demografik jarayoni asosan hozirgi 30-35 yoshdagilarning pensiya yoshiga yetib borishi va ular o'rniga kelganlar miqdori jihatidan nisbiy kamligi bilan ifodalanadi. YA'ni, umr ko'rish davomiyligining sezilarli o'sishi hisobiga emas, balki tug'ilish darajasi kamayganligi sababli, tug'ilishning asta-sekin kamayib ketishi sharoitida aholi reproduktivligini, tug'ilish darajasi va o'lim darajasi va ularning nisbati, yoshi kattaroq davrda o'lim darajasining pasayishi bilan bog'liqdir. Yuqorida keltirilgan demografik tendensiyalar odatda aholi reproduktiv salohiyatiga mos keladi. 2000-yillarning boshlarida tug'ilgan bolalarning avlodi 2023 — 2030 yillari mehnatga layoqatli yoshga kiradi va 1960 yillarning avlodi esa shu davrda “mehnatga layoqatli” yoshni tark etadi. Bu salohiyatli pensionerlar sonining keskin o'sishining asosiy sababi hisoblanadi.

O'rta va uzoq muddatli istiqbolda, bizning hisob-kitoblarga ko'ra, mehnatga layoqatli aholi sonining o'sishi davom etadi (ulush 2020 yilda 10 foizgacha, 2030 yilda 13 foizdan, 2040 yilga kelib esa 15 foizdan ko'p bo'lishi mumkin). Bu o'sish pensiya tizimi va sog'liqni saqlash sohasiga demografik “bosim”ni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

O'zbekistonda 2000-yillarning boshlarida pensiya tizimining faoliyati ish haqining miqdor darajasi pastligi va pensiya miqdori past bo'lishiga qaramay, nisbatan moliyaviy jihatdan yomon holatda emas edi. Bu aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga pensiya va nafaqalarni o'z vaqtida kafolatli to'lash imkonini berardi. O'sha davrda 1 nafar pensionerga 4 nafardan ortiq ishlovchi to'g'ri kelib, o'rtacha pensiya o'rtacha ish haqining deyarli 39 foizni tashkil etdi (kamida 30 foiz chegara bilan). Iqtisodiyotda bozor mexanizmlari

(inflyatsiya jarayonlari, ishsizlikning baland darajasi, norasmiy sektorda ishchilar sonining o'sishi) sifatida pensiya to'lovlar bilan bog'liq pensiya tizimining tashkiliy va moliyaviy holati hamda qonunchilik bazasi tobora keskinlashib bormoqda.

Shunday qilib, so‘nggi yillardagi demografik tendensiyalar O‘zbekiston aholisining yoshiga doir o‘rtacha qarish ko‘rsatkichlarini tezlashtiradi. Bu tendensiya, o‘z navbatida, aholining ijtimoiy himoya va pensiya ta’minoti tizimlarining moliyaviy holatini istiqbolda jiddiy murakkabliklarga duchor qilishi mumkin. YA’ni, demografik rivojlanishdagi umumiy barqarorlikka qaramasdan, O‘zbekiston barcha rivojlangan davlatlar singari 2030 yildan boshlab pensiya jamg‘armasi va sog‘liqni saqlash tizimlariga o‘zining moliyaviy bosimini xavfli kuchayishi davriga kirib boradi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotimizda va jamiyatimizda quyidagi tashkiliy, qonuniy va moliyaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

Birinchidan, mamlakatdagi aholi tarkibida mehnatga layoqatli darajadagilar miqdori ko‘p bo‘lishiga qaramasdan ularning o‘rtacha daromad miqdorlari hali baland darajada bo‘lmaganligini hisobga olib, pensiya tizimining barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun institusional, qonunchilik va moliyaviy mexanizmlarni tubdan isloh qilish, shu jumladan, 2026 yildan boshlab pensiya yoshini (ayollarga -60, erkaklarga 65 yosh) bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishish zarur.

Ikkinchidan, aholi turmush darajasi va sifatining oshishi, innovatsion texnologiyalarga xos ish o‘rinlarini tashkil etish va faoliyatini yuritish, ishchi xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlari yaratish bilan jamiyatda ijtimoiy-mehnat munosabatlarining mazmun-mohiyatini sifat jihatidan o‘zgartirish, aholi hayotining umumiy umr ko‘rish davomiyligini ko‘paytiradi. Jamiyatda tibbiy va ma’rifiy xizmatlarning sifatini yaxshilash aholining ijtimoiy va iqtisodiy madaniyatini oshirishga yordam beradi, bu shubhasiz aholining demografik tuzilmasini barqarorlashtirishga va chaqaloqlarning tug‘ilish sur’atlarini nisbatan pasayishiga olib keladi.

Uchinchidan, “2050 yilgacha O‘zbekiston aholisining demografik rivojlanish prognozi“ni ishlab chiqish va milliy ma’naviyatning tarixiy an’analari va urf-odatlari talablarini hisobga olingan holda “O‘zbekiston demografik siyosati konsepsiysi“ni qabul qilish, yosh oilalarning reproduktiv salomatligini saqlashdagi salbiy tendensiyalarning oldini olish zarur.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda demografik jarayonlarining tezkor kuzatish uchun zamonaviy elektron tizimni yaratish, ularning haqqoniyligini oshirish va umum statistik shakllariga solish uchun 2022 yilda O‘zbekistonda aholini umumiy ro‘yxatdan qayta ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish zarur.

Beshinchidan, mamlakat mehnat resurslarining mavjud potensialini taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish maqsadida

“O‘zbekiston tarmoqlari va hududlari mehnat resurslari balansi”ni tahlil qilish va 2050 yilgacha bo‘lgan mehnat resurslarining prognozini ishlab chiqish. Oltinchidan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion shakllari va usullariga keng o‘tish istiqbollarini hisobga olgan holda, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, barcha oliy ta’lim tizimini markazlashtirilgan ma’muriy tizimdan shartnomaviy ijtimoiy sheriklar shakllariga haqiqiy iqtisodiyot vakillari (universitetlarning buyurtma portfelin shakllantirish), ta’lim sohasida aralash moliyaviy (byudjet, kontrakt va buyurtma) mexanizmni joriy etish zarur.

Xalqaro tajribaga asosan aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma’lumotlar aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi. Aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni prognoz qilish mumkin bo‘ladi. Aholini ro‘yxatga olish – bu mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umum davlat miqyosidagi keng ko‘lamli tadbir bo‘lib, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5655-son Farmoni respublika aholisi va uning farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumot, uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini, ya’ni ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining shakllanishida demografik omillarning roli ortib, u yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizda kuzatilgan demografik trendlar nafaqat 1990 yil boshlaridagi demografik vaziyatning (tug‘ilishning yuqori darjasasi, serfarzandlik an’anasi, oilalar uchun ommaviy ijtimoiy himoya), shu bilan birga, mustaqillik yillarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar (bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, ko‘p bolali oilalarning qisqarishi, oilalarni ommaviy ijtimoiy himoya qilish va tug‘ilish darajasining pasayishi) natijasi hamdir. O‘zbekistonda mehnat bozori rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi demografik xususiyatlar quyidagilar: doimiy aholi o‘sishi – bu ko‘rsatkich 1.01.2018 yil holatiga 32,6 mln.kishini

tashkil etdi va 1991 yilga nisbatan 12 million yoki 58,2% ga o'sdi. UNFPAning prognoziga ko'ra, 2050 yilda aholi soni 38,7 mln. kishini tashkil qiladi;

Demografik jarayonlar va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlarni statistik tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- miqdoriy omillar – aholining dinamikasi, o'lim, tug'ilish, migratsiya va boshqalar;

- sifat omillari – aholining jinsi, yoshi, ta'lism darajasi va boshqalar bo'yicha tarkibi.

Aholi sonining dinamikasini baholash tabiiy o'sish (ma'lum davrda tug'ilgan va vafot etganlar soni orasidagi farq) va mexanik o'sish (ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni orasidagi farq) tahlilini o'z ichiga oladi. Aholi sonining umumiyl o'sishi tabiiy o'sish evaziga to'la ta'minlangan (ko'chib ketganlar sonining ko'chib kelganlarga nisbatan barqaror yuqoriligi bunga jiddiy salbiy

ta'sir ko'rsata olmagan). Oxirgi paytda bu aholi migratsiyasining salbiy saldosi (yiliga 40 ming kishi atrofida) bilan tavsiflanadi. Mustaqillikning birinchi yili bilan qiyoslaganda, ya'ni 1991 yildan beri tabiiy o'sish 1,5 baravar kamaydi. Bu tug'ilishning keskin pasayishiga bog'liq. Mazkur nisbat 1991 yilda 33,7 promilledan 2017 yilda 23,3 promillegacha pasaygan.

Tabiiy harakatning zamonaviy dinamikasi sabablarini aniqlash demografik keljakni baholash, demografik siyosat va aholi rivojlanishi jarayoniga ta'sir qiluvchi chora-tadbirlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda zamonaviy aholi dinamikasiga qanday omillar ko'proq ta'sir etmoqda, ya'ni tug'ilganlar sonining keskin pasayishimi (tarkibiy omillar natijasida, jumladan, reproduktiv mayldagi o'zgarishlar) yoki o'lganlar sonining ortishimi, degan masalaga oydinlik kiritilishi zarur.

XX asrning 90-yillarida sodir bo'lgan yirik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan, demografik holatga ham ta'sir ko'rsatdi. Bunday ta'sir, avvalo, ijtimoiy o'zgarishlarga ko'proq ta'sirchan jarayonlar bo'lmish nikoh va tug'ilish ko'rsatkichlarida namoyon bo'ldi. Respublikamizda 55% atrofidagi nikohlar 20-24 yoshdagি ikkinchi guruh aholi ulushiga to'g'ri keladi. Bu eng yuqori ko'rsatkichdir. Bu yerda mazkur jins va yoshga mansub har 100 kishiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti 52,6%ni tashkil etadi. Jami aholi tarkibida nikoh yoshidagilar ulushi kamaygani sari, mos ravishda nikohdan o'tganlar soni ham kamayib boradi.

Nikoh yoshidagi aholi holatiga ta'sir ko'rsatadigan muhim demografik jarayon ajralishdir. Faqat 2005-2017 yillarda ajralganlarning umumiyl soni 16,4 dan 28,8 ming kishiga, ya'ni 1,8 marta ortdi.

Aholining tabiiy harakatidan tashqari, aholi soni va tarkibiga ta'sir etuvchi muhim omil migratsiya hisoblanadi. Migratsiya iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida mehnat resurslarini mamlakat mintaqalarida muayyan joylashtirish, ishchi kuchining sifat tavsiflarini hisobga olgan holda talab va taklif orasida dinamik muvozanatga erishish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, migratsiyaga ijobiy yoki salbiy hodisa deb baho berib bo'lmaydi. Bir tomondan, ketayotganlar sonining ortishi mehnat bozoridagi keskinlikni yumshatadi, boshqa tomondan esa, iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanuvchi ishchi kuchi taqchilligiga olib keladi.

O'zbekistonda aholining o'rtacha yoshi 28,7 yosh, jumladan, erkaklar o'rtasida 28,0 yosh, ayollar o'rtasida esa 29,3 yoshni (2018 yil 1 yanvar holatiga) tashkil etgan⁶. Respublika aholisi nisbatan yosh hisoblanadi. Hozirgi paytda 65 yoshdan katta aholining salmog'i 4,3%, lekin jahon sog'liqni saqlash tashkiloti prognozlariga ko'ra, 2030 yilga borib, O'zbekiston aholisining 8 foizi 65 va undan yuqori yoshdagi odamlar tashkil qiladi.

Aholining yosh bo'yicha tarkibi – bu turli yoshdagi guruhlarning nisbati. Aholining yosh va jins tarkibini tahlil qilish uchun yosh-jins piramidasi deb ataladigan grafik usuldan keng foydalilaniladi. 1-rasmda ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasining 1991 va 2017 yillardagi yosh-jins piramidasi tug'ilishning yuqori darajasi va o'lim darajasining pasayishi bilan tavsiflangan aholi ko'payishining progressiv turi ekanidan darak beradi.

O'zbekiston aholisining yosh tarkibida 15 yoshdan kichik bo'lган juda ko'п yoshlari mavjud edi. U tug'ilish sur'atining pasayishi tufayli o'zgardi. 1980 va 1990 yillarda tug'ilganlar mehnatga layoqatli kishilar (mehnat resurslari) guruhiba o'tgan bo'lsalar-da, bugungi kunda aholining yosh tarkibi shved demografi A-G.Sundberg tasnifiga ko'ra, aholi takror paydo bo'lishining progressiv turiga mansub.

Prezidentimiz tomonidan "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi. Mazkur Qonun, aholini ro'yxatga olish sohasidagi munosabatlarni har tomonlama tartibga soluvchi ilk bor qabul qilingan huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston tarixidan o'rin oldi. Chunki shu vaqtgacha bu sohada qonunchiligidan hech qanday hujjat yo'q edi. Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5655-son Farmoniga muvofiq ishlab chiqildi. Qonunni ishlab chiqishda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Yevropa statistiklari konferensiyasining aholini ro'yxatga olishni

⁶ O'zbekiston demografik yillik to'plami 2014-2018. T.:2018. – B.88.

o'tkazish bo'yicha asosiy tamoyillari va tavsiyalaridan asos sifatida foydalanildi. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Osiyo va Yevropa mamlakatlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Janubiy Koreya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Kanada va boshqa davlatlarning ushbu sohadagi tajribalari o'rganilib, qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanildi.

Aholini ro'yxatga olishning ahamiyatli jihatlari ko'p. Bu avvalo mamlakat aholisining aniq soni, jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, ma'lumoti darajasi, yashash sharoiti, bandligi, millati, fuqaroligi hamda boshqa demografik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari haqida aniq va ishonchli ma'lumot olish hamda bu borada yagona bazani yaratish imkonini beradi. Bunday kompleks o'rganish natijasida aholi punktlari va shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, mehnat resurslaridan foydalanish va ularni joylashtirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlar tayyorlanadi. Shuningdek, bu yo'nalishdagi ishlar hududlarni xaritalash, aholi punktlaridagi uylarning ro'yxatini tuzish, ya'ni turar va noturar joylarning aniq soni, holati, tegishli hududlarda uy-joy obyektlarini qurish masalalariga oydinlik kiritadi. Respublikaning yangi mukammal kadastr xaritasini yaratilishini ta'minlaydi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi va viloyatimiz aholisi qancha va bu statistikada qanday manbalarga asoslangan? O'zbekistonda so'nggi bor aholi 1989 yilda ro'yxatga olingan. Har yili bu borada taqdim etiladigan statistika esa xududlardagi Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd etiladigan tug'ilish va o'lim holatlari, xamda Ichki ishlar boshqarmasi migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshkarmasidan yurtimizga keluvchi va mamlakatimizdan ketgan aholi hisob-kitobi asosida amalga oshiriladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015 yil 10 iyundagi «2020 yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar» rezolyusiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, mazkur tashkilotga a'zo davlatlar albatta o'z hududlarida aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazishlari lozim. Bu tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazishni ta'minlash maqsadida prezident farmoni ham qabul qilingan. Hozirda uning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi hamda xududiy statistika boshqarmalari tomonidan aholini ro'yxat olish tadbirlarini munosib tarzda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilmoxda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda hali biror marta aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. Ushbu tadbir so'nggi bor sobiq ittifoq davrida 1989 yilda o'tkazilib, o'sha paytda yurtimiz aholisi 19,7 million kishini tashkil etgan. Amaldagi joriy hisobga ko'ra, 2020 yilning 1 aprel holatiga

ko‘ra respublikamiz doimiy aholisi soni 34 036,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, xozirgi kunda aholi soni Navoiy viloyatida 1 000,6 ming kishi (respublika jami aholisi sonidagi ulushi 2,9 %) ga to‘g‘ri kelmoqda. Viloyatda 2020 yilning 1 aprel holatiga shahar aholisi soni 489,4 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 48,9 %), qishloq aholisi soni 511,2 ming kishini (51,1 %) tashkil etadi. Jami aholimizning 50,7 % ni erkaklar (507,4 ming kishi), 49,3 % ni ayollar (493,2 ming kishi) tashkil etadi.

2020 yilning 1 aprel holatiga viloyat bo‘yicha tug‘ilgan bolalar soni 4584 nafarni, vafot etganlar 1061 kishini tashkil etgan.

Viloyat hududlari kesimida, 2020 yil 1 aprel holatiga ko‘ra eng ko‘p aholi soni Xatirchi tumanida 199,7 ming kishini (viloyat jami aholisi sonidagi ulushi 20,0 %), Qiziltepa tumanida 152,1 ming kishini (15,2 %) va Navoiy shaxrida 144,6 ming kishini (14,5 %) tashkil etdi.

Dunyo amaliyotida aholini ro‘yxatga olishning bir necha usul va yondoshuvlari mavjud. Ulardan **birinchisi** an’anaviy usul bo‘lib, unda respondent bilan bevosita bog‘lanib, elektron yoki qog‘oz shaklda so‘rovnama o‘tkaziladi. **Ikkinci yondoshuv** idoraviy ma’lumotlardan foydalanish usulidir. Bunda turli idoralarda mavjud bo‘lgan elektron ma’lumotlar bazasidan foydalaniladi.

Uchinchi yondoshuvda esa bir vaqtning o‘zida an’anaviy va idoraviy usuldan foydalaniladi. Biroq, aholining joriy hisobi bo‘yicha mavjud ma’lumotlar aholi soni, yashash sharoiti, ma’lumoti, bandligi, yosh-jins tarkibi, millat tarkibi, respublika hududida aholining joylashuvi va boshqa ijtimoiy-demografik o‘ziga xosliklar to‘g‘risida aniq xulosa va tahlillar qilishga yetarlicha imkoniyat bermayapti. Shuningdek, yurtimizda boshqa hech bir davlatda uchramaydigan noyob tuzilma - mahallalar mavjudligi hammaga ayon. Aholini ro‘yxatga olish ishlarida undagi jamoatchilik, posbonlarga ham alohida vazifa va mas’uliyat yuklanadi. Mamlakatimizda ana shunday muhim tadbirni 2022 yilda ilk bor

o‘tkazishga qaror qilindi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida” gi Qonuni hamda davlatimiz rahbarining 2019 yil 5 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Aholini ro‘yxatga olish qanday amalga oshiriladi? Mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich, tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, 2-3 yilga yaqin vaqt davom etadi.

Tayyorgarlik jarayonidagi eng muhim masala, aholini ro‘yxatga olishda faol ishtirok etish bo‘yicha aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borish, reklama roliklari, logotip va shiorlar ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Yana bir muhim vazifalardan biri bu – shahar va

qishloq aholi punktlarining sxematik rejalarini va ma'muriy tumanlar xaritalarini tayyorlash hamda aholi punktlaridagi uylarning ro'yxatini tuzish hisoblanadi. Bunda mahalla, qishloq va ovullarning chegaralari, ko'chalarda nom belgilarining o'rnatilganligi, turar va noturar joylarning aniq soni hamda uylarning raqamlanganligi aniqlashtirib olinadi.

Tayyorgarlik bosqichida aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq hujjatlar, jumladan, ro'yxatga olish varaqalari, ro'yxatga olishni tashkil etish va o'tkazish, uning natijalarini olish va e'lon qilish metodologiyasi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, ro'yxatga oluvchilarni tanlash ham eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ma'lumotlarning to'g'rilingiga bevosita ayni ular mas'ul bo'ladi va shakllantirilgan ma'lumotlar real bo'lishi shart. Bu jarayonga har xil yoshda va kasbda bo'lgan shaxslar jalb etilishi mumkin. Birinchi navbatda, Davlat statistika qo'mitasi va uning hududiy organlari xodimlari, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va yuqori bosqich talabalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'qituvchilari, shuningdek, boshqa toifadagi shaxslar ham, ular mazkur jarayonda ishtirok etishga rozi bo'lgan taqdirda, jalb qilinishi mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda joylarda ro'yxatga oluvchi xodimlarni o'qitish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi va zarurat tug'ilsa, ularga qo'shimcha maslahatlar beriladi. Ikkinci bosqich, asosiy bosqich bo'lib, bu taxminan 10-60 kungacha davom etadi. Bunda bevosita aholini ro'yxatga olish amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish materiallari topshiriladi.

Mamlakatimizda 2022 yilda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish tadbiri an'anaviy usulda, ya'ni ro'yxatga oluvchi shaxslar tomonidan hududlarda uyma-uy kirgan holda, yuzma-yuz suhbat asosida, qog'oz shaklidagi ro'yxatga olish varaqalarini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich muddati qariyb ikki yilgacha bo'lib, ro'yxatga olish jarayonida to'planadigan statistik ma'lumotlar yagona elektron axborotlar tizimiga kiritilib, ma'lumotlar kodlashtirish yordamida tahlil qilinadi va natijalar e'lon qilinadi. Amaldagi meyoriy hujjatlarga binoan, yakuniy ma'lumotlarni uch tilda e'lon qilinishi ko'zda tutilgan. Chora-tadbirlar dasturiga asosan 2024 yil 1 dekabriga qadar aholini ro'yxatga olish natijalari rasman chop etiladi va e'lon qilinadi hamda aholini ro'yxatga olishning dastlabki va yakuniy ma'lumotlari arxivda saqlash uchun tayyorlanadi. Aholini ro'yxatga olish qaysi manbalari chet el davlatlari tajribasidan ma'lumki,

aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish ko‘p mehnat va mablag‘ talab etadi. Buning uchun tadbirni moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda 2022 yilda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olish tadbirlarini moliyalashtirish, O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasiga muvofiq, Davlat byudjeti mablag‘lari va qonun bilan ta’qilangan boshqa mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish uchun zarur mablag‘lar hajmi O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy tarqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va boshqa mas’ul idoralar hisob-kitoblari asosida, shuningdek, tender savdolari va tender hujjatlarini rasmiylashtirish natijalari bo‘yicha aniqlanadi. Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga, uning materiallarini qayta ishlashga, natijalarini olish va e’lon qilishga jalb etilgan xodimlarning mehnatiga haq to‘lash maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan normativlar asosida amalga oshiriladi. Ma’lumot tariqasida, 2010 yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tadbirlariga sarflangan xarajatlar qiymati o‘rtacha aholi jon boshiga Tojikistonda 1,31 AQSH dollarini, Qirg‘izistonda 1,12 AQSH dollarini, Ozarbayjonda 1,03 AQSH dollarini, Moldovada 2,15 AQSH dollarini, Rossiya Federatsiyasida 3,81 AQSH dollarini tashkil etgan.

2019 yilda O‘zbekistonning ishsizlik darajasi qancha?

2019 yilning dekabr oyida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish **ilmiy markazi** tomonidan yurtimizning **485 ta** fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, **4,9 mingta** uy xo‘jaligi va **25,8 ming nafar** fuqaro qamrab olingan ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bunda **108 ta shahar va tuman** aholisi ishtiroy etdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra ishga muhtoj bo‘lganlarning umumiyl soni **1335,3 ming** kishi yoki iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik darajasi **9,0** foizni tashkil etgan va 2018 yilga nisbatan **0,3** foizga pasaygan. Shuningdek, **16-30 yoshgacha** bo‘lganlar o‘rtasida ishsizlik darajasi **15** foizni, ayollar o‘rtasida – **12,8** foizni tashkil etgan.

2019 yilda mehnat resurslari soni **19007,8 ming** kishiga yetdi, bu **2018** yilga nisbatan **100,9** foizni tashkil etadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar soni **13541,1 ming** kishini tashkil qildi (o‘tgan yilga nisbatan **102 foiz**).

2019 yilda ilk bor rasmiy sektorda band aholi soni 2018 yilga nisbatan **3,7 foizga** ko‘payib, **5712,1 ming kishini** tashkil qildi.

Norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni (mehnat migrantlarini hisobga olmaganda) 5368,3 ming kishini tashkil etdi. Ish o‘rinlarini legallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida norasmiy vaqtinchalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar 19,6 mingga, ro‘yxatdan o‘tmasdan va tegishli ruxsatnomasiz faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlar 42,8 mingga kamaygan.

2019 yilda iqtisodiy nofaol aholi sonining kamayishi kuzatildi. Jumladan, ishslashni xohlamayotganlar yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo‘qlar 73,9 mingga yoki 9,6 foizga kamaygan, bu esa aholining **mehnat va tadbirkorlik faolligi ortganligini** bildiradi.

O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimizdan tashqariga ishga ketganlar soni **2460,2 ming** kishini tashkil etgan, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **103,2 foizga** teng.

2019 yilda tuman (shahar) Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlariga **773452 fuqaro** ish topishga yordam so‘rab murojaat qilgan (ular orasida **30 yoshgacha** bo‘lganlar soni **218025 nafarni** tashkil etgan). Murojaatchilarning **356897afari** ish bilan ta’minlandi, **263230 kishi** jamoat ishlariga, **36 750 nafar** fuqaro **kasbga o‘qitishga** jalb qilindi. **57874 nafar** fuqaroga **ishsizlik nafaqasi** tayinlandi.

Bandlikka ko‘maklashish Davlat jamg‘armasi hisobidan ishga olgan ishsiz fuqarolarning kasbiy malakasini oshirayotgan ish beruvchilarga, tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ishsizlarga, shaxsiy tomorqalarini rivojlantirayotgan fuqarolarga, shuningdek, aholininig ehtiyojmand qatlamlarini ishga olgan korxonalarga **12,2 mlrd so‘m** miqdorda beg‘araz yordam (**subsidiyalar**) ajratildi, natijada **12,9 ming nafar ishsiz fuqarolarning bandligi** ta’minlandi.

39,1 mingdan ortiq o‘z-o‘zini band qilib, uy sharoitida ishlayotgan fuqarolarga (**bemorlar va keksalarga qarab turish, uy ishlarini bajarish, mebel ta’mirlash, santexnika va elektromontaj ishlari, avtomobilarni ta’mirlash va yuvish, repetitorlik qilish va hokazo faoliyat turlari bo‘yicha**) mehnat stajini hisoblash va pensiya olish huquqini berayotgan vaqtinchalik mehnat guvohnomalari berildi.

3.4. Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalari

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar davomida jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Natijada, yuksak xalqaro obro‘-e’tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy o‘quv yurtlari Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster

universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi hamda muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Ushbu oliy o‘quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mexnat bozorida talabi yuqori bo‘lgan mutaxassislar tayyorladi va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘ldilar.

2012 yil Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada ko‘plab yirik xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, jumladan, BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 davlatidan ta’lim tizimi rahbarlari, 8 ta xalqaro tashkilot va ta’lim jamg‘armalaridan 270 nafar vakil, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etib, uzuksiz ta’lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O‘zbekiston tajribasini o‘rgandilar. Haqiqatan ham yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Konferensiya davomida quyidagi ko‘rsatkichlar e’tirof etildi: Ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmi o‘tgan davrda 500 mln. dollardan oshib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining 290 mln. dollar mablag‘i, Janubiy Koreya hukumatining 110 mln.dan ortiq, Jahon bankining 33 mln., OPEK fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 mln., Germaniya hukumatining “KFV” banki orqali yo‘naltirilgan qariyb 20 mln. va boshqalarning 100 mln. dollardan ortiq yordami ko‘rsatildi. Ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko‘nikmalarni egallashi, ayni paytda, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan barcha voqeа-hodisalar, yangilik va o‘zgarishlardan atroflicha xabardor bo‘lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallahning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqr o‘rganishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi barcha say-harakatlar dastlabki natijasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o‘z fikrini ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodni namoyon bo‘ldi.

Ta’lim sohasida, zamonaviy kadrlar talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o’rtasida xalqaro hamkorlik ham rivojlanganligini ta’kidlab o’tmoq lozim. O’zbekistonda bugungi kunda ta’lim sohasida alohida e’tirof etib kelinayotgan yutuqlar sifatida maktab ta’limi mamlakatda yashayotgan turli millatlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda 7 tilda – o’zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg’iz, tojik va turkman tillarida olib borilayotganini ko’rsatish mumkin. Bunda har bir bitiruvchi majburiy ta’limdan so‘ng o’z xohishiga ko‘ra, oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishi va bakalavr hamda magistr darajasini olishi mumkin. Har bir kollej tegishli korxonalar bilan aloqa bog‘lagan. Respublikaning har bir o‘quv yurtida optik-tolali aloqa liniyalari asosida qurilgan yagona “Ziyonet” axborot ta’lim tarmog‘ida ulangan axborot-resurs markazlari tashkil etildi.

2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiysiyoziy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlan-tirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilandi. “Hama narsa inson manfaatlari uchun” tamoyilidan kelib chiqib, ijtimoiy sohada aholi turmush darajasini yuksaltirish bo‘yicha yo‘nalishlar belgilab olindi. Jumladan, qishloqlarda yangi tipdagi yosh oilalar uchun mo‘ljallangan, maqbullashtirilgan yer uchastkasiga ega bo‘lgan 2-3 xonali turar joy binolari loyihasi ishlab chiqildi. Qator shaharlarda “toza hudud” korxonalari tashkil etilishi, ichki yo‘llarni qurish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash chora- tadbirlari ko‘rildi.

Yangilanayotgan O’zbekistonda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator tadbirlar ham amalga oshirildi. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasini isloh qilish maqsadida besh yillik alohida dastur qabul qilindi. Bir qator maktabgacha ta’lim muassasalari rekonstruksiya qilindi. Maktab tizimini qayta ko‘rib chiqib, tajribali pedagog, ota-onalar bilan suhbatlashib, o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan muloqotlardan so‘ng 9 sinfni tamomlagan o‘quvchilar uchun o‘qishni ixtiyoriy ravishda kollej yoki litseyda yoki 10-11 sinflarda davom ettirish imkoniyatlari yaratib berildi.

Oliy ta’limni tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga yetkazish maqsadida oliy ta’limni kompelks rivojlantirishga qaratilgan

Dastur, Farmon, Qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risi-da”gi 2019 yil 8 oktabr PF-5847-son Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi.

Yuqridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistnda oliy ta’lim tizimini isloh qilishning zamonaviy bosqichda innovatsion jarayonlarni qo‘llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexinazmlarini takomillashtirish, respublikada oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarishning jahon standartlariga asosan ta’limda sifat menejmenti usullarini samarali qo‘llash, globalashuv va milliy iqtisodiyotni

modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida ta’lim tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo‘nalishlarini ishlab chiqish, respublika oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni yanada ommalashtirish asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalar ishlab chiqish, milliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish sharoitida respulikada oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim xizmatlari turlarini kengaytirish, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiyani yanada kuchaytirish, respublika oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash va amalga oshirish kabilar asosiy vazifalar qilib belgilandi. Natijada, 2019 yilga kelib 14 ta yangi oliy ta’lim muassasalari, 6 ta mahalliy, 8 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 40 ta yangi ta’lim yo‘nalishlari hamda 41 ta mutaxassisliklar tashkil etildi. Respublika oliy ta’lim muassasalarida xorijiy

davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda 55 ta qo‘shma ta’lim dasturi doirasida yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashga kirishildi.

2017 yildan o‘tgan davr mobaynida madaniyat va sport sohasida O‘zbekistonning boy va o‘ziga xos madaniyati, san’ati va iqtisodini yanada rivojlantirishni ta’minalashga yo‘naltirilgan davlat siyosati amalga oshirildi. Shunga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevralda “Madaniyat va sport sohasida boshqaruva tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Shuningdek, milliy-madaniy va ma’naviy merosni asrab-avaylash va ko‘paytirish, sanat va bidiiy

ijodni har tomonlama rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzurida “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi hamda Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi.

2017 yil 30 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvi yoshlar hayotida yangi davrni boshlab berdi. O‘zbekiston yoshlarini bir maqsad sari birlashrib, safarbar eta oladigan “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” tashkil etildi. Ayni paytda yoshlar tarbiyasini mustahkamlash va ularni qo‘llab -quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 5 iyul Farmoni qabul qilindi. Barcha darajadagi davlat xizmati organlarida , mahallalarda yoshlar masalalari bo‘yicha xizmatlar tashkil etildi. 30 iyun mamlakatda “Yoshlar kuni” deb e’lon qilindi.

Yosh mutaxassis va tadbirkorlar faoliyatini rag‘batlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar joriy qilindi.

Xotin-qizlar masalasiga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. 2017 yilda xotin-qizlar bandligini ta’minalash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Aholining extiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi yetakchi muassasa sifatida belgilanib, unga tegishli vakolat va huquqlar berildi. Bir qator yangi mexanizmlar joriy qilindi, jumladan, uy – joyi bo‘lmagan yoki eski uylarda yashovchi respublikaning har bir tumani va shahridagi o‘rta hisobda 5 ta oilaga arzon uy-joylar berish, respublikaning har bir tumani va shahrida o‘rta hisobda 70 tagacha oilaga har yili maishiy texnika yoki bir boshdan qoramol xarid qilib berish, og‘ir kasalliklar mavjud bo‘lgan taqdirda tibbiy xizmatlar haqini to‘lash va har bir tuman va shaharda o‘rta hisobda 6 tagacha kam ta’minlangan oilalarga beg‘araz yordam ko‘rsatish uchun mablag‘lar ajratish asosiy vazifa qilib belgilandi.

“Muruvvat” va “Sahovat” internat uylarida istiqomat qilayotgan nogironlar va keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida internat uylarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xomiylik kengashlari, shunigdek, Byudjetdan tashqari internat-uylarni qo‘llabquvvatlash jamg‘armasi tashkil qilindi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olishdagi shart -sharoitlar

2. Jamiyatdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ona va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga qaratilgan milliy urf-odatlarga asoslangan tadbirlar.
3. O‘zbekistonda 2023 yilda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik jarayoni
4. O‘tish davrining o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Yangi O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati va xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Azizzxo‘jayev A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T., 2001.
7. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - T.: O‘zbekiston, 2005. 8. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.
9. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – Toshkent: Moliya, 2003.
10. O‘zbekiston mustaqillik yillarda. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
11. O‘zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, 2005.
12. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
13. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
14. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.

Internet saytlari: 1.

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.

4-MAVZU. Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari

REJA:

4.1. Yangi O‘zbekistonda oilaning tashkil bo‘lishi va uning muntazamligiga demografik omillar – nikohga kirish, farzand tug‘ilishi va ajralishning bevosita ta’sir etishi.

4.2. O‘zbekistonda tug‘ilishning kamayib borishi, umr davomiyligining oshishi, oilani mustahkamlash, rivojlanishga bevosita ta’sir etuvchi ajrim masalalari.

4.3. O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish va demografik rivojlanishning asosiy muammolaridan biri aholi migratsiyasi masalasini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish.

Tayanch iboralar: strategiya, Yangi O‘zbekiston, jamiyat qurilishi, ustuvor yo‘nalishlar, demografik omillar, aholi migratsiyasi, ijtimoiy siyosat.

4.1. Yangi O‘zbekistonda oilaning tashkil bo‘lishi va uning muntazamligiga demografik omillar – nikohga kirish, farzand tug‘ilishi va ajralishning bevosita ta’sir etishi.

Yangi O‘zbekistonda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi natijasida hayotimiz tayanchi va suyanchi, jamiyatimizning hal qiluvchi asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila atalmish muqaddas dargohning o‘rni va mavqeい yanada ortdi. Ayni paytda oila mustahkamligining milliy-ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirishdagi o‘rni beqiyosdir. Millat ravnaqi uchun hamisha ham eng buyuk boylik bo‘lib kelgan ma’naviyatning ma’no-mazmunidan uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini ko‘rish mumkin.

Har bir millatning o‘ziga xos jihatlarini, xususan, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirishda eng avvalo, beqiyos ta’sir kuchiga ega bo‘lgan oilaning o‘rni kattadir. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Tabiat va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oljanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”. Shu bois, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov oilani “baxt fabrikasi” deb atagani ham bejiz emas. Darhaqiqat, oila – jamiyatning negizi. Mustaqil davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, munosib tarzda hayot kechirish mumkin emas. Oilada milliy-ma’naviy qadriyat va xalq xarakteridagi xislatlar, jumladan, mehnatsevarlik, halollik, o‘zaro ishonch va yordam, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, sabr-toqat va qanoatlilik kabi fazilatlar tarkib topadi. Bu maskanda ota-on, ayniqla ayol farzandlariga yoshligidanoq tejamkorlik

o‘rgatib

va saranjom-sarishtalikni
boradilar. Ayolning bilimdonligi,

ma’naviyati, savodxonligi – farzandlarning, oilaning baxtidir. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Oilani bejiz milliy qadriyatlар maskani deyishmaydi, chunonchi, kishilarning oilaga bog‘liqligi, mahallaga dahldorlik, Vatanni sevish, ardoqlash, mehr-oqibatli bo‘lish kabi fazilatlar shular jumlasidandir.

O‘zbek millatining aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki farzandlarining baxtu saodatini, iqboli va kamolini ko‘rishni, oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘snilalarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Zero, mamlakatimizda ma’naviyatli shaxs, komil inson, oila tushunchalariga alohida ahamiyat berilib kelinmoqda. Barcha ezgu niyatlar markazida turgan va oljanob harakatlarimizning negizi hisoblangan masalalarni hal etishni nazarda tutilib, 2012 yilga “Mustahkam oila yili” deb nom berildi. Buning negizida yurtimizda oila institutini, avvalo, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oila tayanchi bo‘lgan ayollarning og‘irini yengil qilish, mahalla tizimining bu boradagi rolini kuchaytirish, muxtasar aytganda, oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish kabi maqsadlar mujassamdir.

Bugungi kunda davlat va jamiyat o‘zining taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, keng qamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o‘rin egallaydigan, o‘ta murakkab, og‘ir sinov va qiyinchiliklarni yengishga qodir, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarning har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishishi uchun asosiy e’tiborni, eng avvalo, ularni milliy tabiatimiz va urfatlarimizga mutlaqo zid bo‘lgan har qanday zararli ta’sirlar, buzg‘unchi g‘oyalardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, o‘z mustaqil fikriga ega, ma’naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga yetkazish, jamiyatimizda mustahkam va munosib o‘rin egallashiga qaratadi. Hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, hayot abadiydir. Ana shu muqaddas dargoh mustahkamligi va unda oilaviy baxtga erishish uchun oila a’zolari iymonli-e’tiqodli, tinch-totuv yashaydigan, ahil, har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida kamol topish uchun or-nomusli, mehnatsevar va ilmga chanqoq bo‘lib o‘sayotgan farzandlariga javobgarlik hissi yuqori bo‘lgan ota-onalarning el-yurt taqdiri, uning kuch-qudrati, salohiyati, tinch-osoyishtaligi, buyuk kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘sha olishga qodir bo‘lgan farzandlarni tarbiyalashdek yuksak maqsadlarni amalga oshirishga intiladi.

Bu boradagi eng katta mas’uliyat ayol-oni, oila zimmasiga yuklatiladi. Shuning uchun ham, yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash va ularni komil inson darajasiga ko‘tarishda, hayotga yo‘llashda oilaning o‘rnini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Zero, millatni oilaviy baxtning ustuni bo‘lgan ona yaratadi va tarbiyalaydi.

Yaxshilik, ezgulik, bag‘rikenglik, e’tiqod kabi yuksak axloqiy sifati oilada shakllanadi. Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta’minlaydi, muqaddas urfatlarimizni saqlaydigan, bu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini chuqur anglaymiz.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an’analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon-e’tiqod, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko‘nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o‘rni va vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o‘zini mukammal inson sifatida his qila olmaydi.

Oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni

tashkil etishda, avvalo, oila institutini mustahkamlash, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritadi, bu borada fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga uslubiy va amaliy ko‘maklashadi;

zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlar, yaxshi qo‘snnichilik munosabatlari, boy madaniy, tarixiy meros va an‘anaviy oilaviy qadriyatlar asosida oila institutini mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishini, uning farovonligini oshirish masalalarini kompleks o‘rganishni tashkil etadi;

oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish hamda sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat hamda jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlaydi;

notinch va muammoli oilalarni aniqlash, ularning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish, nizoli holatlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va milliy mentalitetga zid bo‘lgan yot xavf-xatarlarga qarshi kurashish maqsadida ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashni tashkil etadi;

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o‘rgatish, oilalarni mustahkamlash, erta nikoh va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o‘zini o‘zi boshqarish tizimi va oila-nikoh munosabatlari sohasida amaliyotni o‘rganish hamda tajriba almashish borasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali ijrosini ta’minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

iqtidorli qizlarni a’lo xulqi, noyob iste’dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o‘qishdagi muvaffaqiyatlari hamda adabiyot, madaniyat, san’at, ta’lim va sport sohalaridagi alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash ishlarini tashkil etadi;

jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning totuvligi va farovonligi

mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarni keng targ'ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarni "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlash ishlarini tashkil etildi;

og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish tizimini shakllantirish, ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan kam

ta'minlangan hamda nogironligi bo'lgan ayollarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash ishlarini tashkil etadi;

uy-joyga muhtoj, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, kam ta'minlangan hamda nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning ro'yxatini tuzish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish, Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash maqsadli fondi hisobidan boshlang'ich badalni to'lab berish orqali ularni arzon uy-joylar bilan ta'minlash ishlarini tashkil etadi;

xotin-qizlar o'rtasida turli salbiy ijtimoiy harakatlar, ayniqsa, o'z joniga qasd qilish, fohishabozlik, voyaga yetmagan qizlarning erta turmushga chiqish kabi holatlarning sabablarini chuqur o'rganish hamda natijalari bo'yicha fuqarolar yig'lnari kengashlari, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda profilaktika chora-tadbirlari amalga oshirilishini tashkil etadi;

xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni erta turmushga berish va erta tug'ruqning oldini olish kabi masalalarda har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi.

joylarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni, hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rيلayotgan amaliy choralar samaradorligini monitoring qiladi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi hamda ko'makdoshiga aylantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

jamiyatda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda

rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo‘yicha mustaqilligini ta’minlashga ko‘maklashadi;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq murojaatlarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini monitoring qiladi;

mahallalarda aholining murojaatlari va uyma-uy yurish jarayonida aniqlangan muammolarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar (keyingi o‘rinlarda — sektorlar), mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan o‘z vaqtida hal etilishi yuzasidan muntazam monitoring yuritadi va ko‘maklashadi;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda, sndlarga ularning manfaatlarini ko‘zlab da’vo arizalari, davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ularning mansabдор shaxslari xatti-harakatlari (harakatsizligi) to‘g‘risida shikoyatlar taqdim etadi;

jamiyatda tinchlik-totuvlik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va qadriyatlarni asrab-avaylash, oilalar ahillagini ta’minlash, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, aholining kundalik muammolarini hal etishda mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha “mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla” prinsipi asosidagi hamkorlik tizimini samarali joriy qilish va takomillashtirib borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

O‘zbekistonni har tomonlama rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi ustuvor yo‘nalishlarda, 2018 yil 2 fevraldagи “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida xotin-qizlar masalasiga alohida e’tibor qaratilishi natijasida mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan vazifalarning belgilanishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Ta’kidlash lozimki, mazkur loyihada rejalashtirilgan natijalar va u asosidagi tavsiyalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning gender tenglikni ta’minlash, erta turmushning oldini olish, qarindoshlar o‘rtasidagi

nikoh, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bo‘yicha jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqot natijalariga va bu borada belgilangan vazifalarga muvofiq keladi.

Ayollar salomatligini faqatgina homiladorlik davrida saqlabgina qolmay, balki o‘smit qizlarni ham yoshlik davridan sog‘-salomat o‘sishiga ota-onas katta e’tibor qaratishi zarur. Ayollar uchun farzand ko‘rishning eng qulay davri 20-30 yosh oralig‘i hisoblanadi. Agar homilador 20 yoshdan kichik bo‘lsa, unda 30 foizgacha homilaning yaxshi rivojlanmasligi, chaqaloq vazni kichik bo‘lishi, tug‘ilgan farzand o‘limi holatlarining ikki baravarga oshishi, yosh onalar orasida onalarning o‘limi holati uch baravarga oshishi kuzatiladi. Erta turmush oqibatida hayotdan barvaqt ko‘z yumayotgan yosh onalar va bolalar o‘limi hamon uchramoqda.

Ajrimlar o‘tgan yilda har yilidan ko‘ra kam qayd etildi. Jumladan, birgina ajralish yoqasiga kelib qolgan 20 952 ta oila yarashtirildi, 12 ming 851 ta oilaning nikohi qonuniylashtirildi. Eng muhim, oilaviy ajrimlar soni 2019 yildagi 31 389 tadan 28 232 taga yoki 3 157 taga kamayishiga erishildi.

Vazirlik tashabbusi bilan tashkil etilgan maxsus Ishchi guruh a’zolari tomonidan olib borilgan tizimli ishlar natijasida umumiylis hisobda 153 60 ta oiladagi turli notinchlik holatlariga barham berildi. Bu kabi faktik ma’lumotlar turli soha vakillari olib borgan tadqiqot ishlarida uchraydi. Jumladan, 2020 yilda mamlakatimiz bo‘yicha 19 948 ta nizoli, 13 ta erta nikoh qayd etilgan, 144 ta erta tug‘ruq holatlari kuzatilgan oilalar aniqlangan hamda buning natijasida mazkur oilalarda turli ijtimoiy muammo va notinchliklar kelib chiqmoqda. Ushbu ijtimoiy muammolar, ayniqsa ajralishlar natijasida yuzaga kelgan noto‘liq oilalardagi iqtisodiy yetishmovchiliklar, nogiron farzandlarni o‘stirayotgan yolg‘iz onalardagi ruxiy xolatlar, ularni uy joy bilan ta’minalash muammosi ko‘laming pasaymayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Bu kabi ijtimoiy muammolarni yechimi avvalo farzandini erta turmushga uzatayotgan onalar va erta tug‘ruqni boshidan o‘tkazgan kelinlariga salbiy munosabatda bo‘layotgan qaynonalarning dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan ishlarga boshqacha yondashuv zarurligini ko‘rsatmoqda.

4.2. O‘zbekistonda tug‘ilishning kamayib borishi, umr davomiyligining oshishi, oilani mustahkamlash, rivojlanishga bevosita ta’sir etuvchi ajrim masalalari.

O‘zbekistonda mustaqillikning o‘tgan yillari davomida aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Natijada, 1991-2017 yillarda umumiylis o‘lim ko‘rsatkichi 20 foizga, onalar va chaqaloqlar o‘limi 3,1 barobar kamaydi. O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1995 yilga nisbatan 4,6

yilga oshdi va 2017 yilda 73,7 yilni tashkil qildi. 2018 yil 7 dekabrdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5590-sonli Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasidagi vazifalarga asosan 2019-2025 yillarda

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi va shu asosda 2019-2021 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi.

Qabul qilingan ko‘plab dasturlar, farmoyish va qonun va qarorlar, xususan, 2018 yil 20 avgustda qabul qilingan qonun loyihasida o‘zbek oilalarida erta turmush va erta tug‘ruqqa bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishning muammollarini bartaraf etish nazarda tutilgan. Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi kelajakda ayollarning nikohdan ajralgan hollarda o‘zlari yashab turgan xonodon mulkdorining uy-joyidan foydalanish, mazkur uy-joyga o‘zining farzandlarini ham ko‘chirib kiritish huquqini vujudga keltiradi hamda oilaviy ajrimlar paytida yuzaga keladigan mojarolarning oldini olishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu masalaning mukammal qonuniy asosga ega bo‘lishi jamiyatimiz ko‘pchilik a’zolari uchun muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda, bu borada shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilib bo‘lmasligi, masalani har taraflama asosli o‘rganib, chuqur muhokama etish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi. Ko‘tarilayotgan masala o‘ta muhim ekani, muammo esa uzil-kesil hal etilishi uchun loyiha ustida ishlashni davom ettirish zarurligini qonun loyihasi tashabbuskorlari ham e’tirof etdilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 13 iyuldaggi KQ-105-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ertा turmush va erta tug‘ruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha 2020-2021 yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarni ijo etish maqsadida respublikadagi oltita ma’muriy-xududiy mintaqalardagi xususan, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro-Qizilqum, Quyi Amudaryo va Surxondaryo misolida erta tug‘ruq va qizlarni erta turmushga berishning salbiy oqibatlari va ijtimoiy muammolarini tadqiq etish loyihasi rejalashtirildi.

2019 yildan 2020 yilgacha bo‘lgan davrda muammo doirasidagi statistik ma’lumotlarni taxlil qilsak, respublika bo‘yicha 16-17 yoshdan turmushga chiqqan ayollar soni - 3001 nafarni tashkil etib, ajrimlar soni - 31389 tani, 18 yosh va undan kichik yoshda farzand ko‘rgan ayollar soni - 6891 nafarni tashkil etadi.

Bu ma’lumotni respublikadagi 6 ma’muriy xududlar kesimida tahlil qilganimizda:

1.Toshkent mintaqasi(Toshkent, Sirdaryo, Jizzax)da 17 yoshda turmushga chiqqan ayollar soni- 472 nafarni, ajrimlar soni – 10289 ta, 18 yosh va unda kichik farzand ko‘rganlar soni – 982 nafarni tashkil etadi.

2. Farg‘ona mintaqasi(Farg‘ona, Andijon, Namangan)da 16 yoshda – 1 nafar, 17 yoshda turmushga chiqqan ayollar soni - 794 nafarni, ajrimlar soni – 9234 ta, 18 yosh va unda kichik farzand ko‘rganlar soni – 1510 nafarni tashkil etadi.

3. Samarqand mintaqasida 17 yoshda turmushga chiqqan ayollar soni – 953 nafarni, ajrimlar soni – 3468 ta, 18 yosh va unda kichik farzand ko‘rganlar soni – 1839 nafarni tashkil etadi.

4. Buxoro-Qizilqum mintaqasi(Buxoro, Navoiy)da 17 yoshda turmushga chiqqan ayollar soni - 157 nafarni, ajrimlar soni – 2734 ta, 18 yosh va unda kichik farzand ko‘rganlar soni – 440 nafarni tashkil etadi.

5. Quyi Amudaryo mintaqasi(Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm)da 17 yoshda turmushga chiqqan ayollar soni - 90 nafarni, ajrimlar soni – 2270 ta, 18 yosh va unda kichik farzand ko‘rganlar soni – 624 nafarni tashkil etadi.

6. Surxondaryo mintaqasi(Surxandaryo, Qashqadaryo)da 16 yoshda – 2 nafar, 17 yoshda turmushga chiqqan ayollar soni - 532 nafarni, ajrimlar soni – 3456 ta, 18 yosh va unda kichik farzand ko‘rganlar soni – 1496 nafarni tashkil etadi.

Ma’lumotlarga qaraganda, 2017 yil mobaynida sudlarga aliment majburiyatları bajarilmasisligi bilan bog‘liq 47,4 mingta, 2018 yilning birinchi choragida esa 11,8 mingta ariza kelib tushgan. 2018 yilning 1 iyun holatiga ko‘ra, davlat ijrochilarida 245,4 mingta aliment undirish bo‘yicha ijro hujjatlari mavjud, shundan 60 mingtasi (24 foizi) ish haqidan undirishga qaratilgan.

2017 yilda jinoyat ishlar bo‘yicha sudlar tomonidan 3,7 ming nafar aliment bo‘yicha qarzdorlarga nisbatan ishlar ko‘rilgan. Hozirga kelib aliment to‘lamayotgan 2,3 ming nafardan ziyod fuqaroga nisbatan qidiruv e’lon qilingan. 180 ming nafar qarzdor ota yoki ona doimiy daromad manbaiga ega emasligi tufayli aliment to‘lay olmayotgani aniqlangan.Bu masalalar jamiyatimizda tobora o‘tkir masalalardan biriga aylanib bormoqda. Boisi, oilaviy masalalar, ajrimlarning kelib chiqish sabablari hali-hanuz chuqr tahlil qilib berilmayapti. Muammoning ko‘لامи va oqibatlari har tomonlama o‘rganilmayapti. Shu bilan birga, ajrimlardan keyingi holat, ya’ni uning oqibatlari hamda keltirib chiqaradigan ziyoni masalasi chuqr, ilmiy asosda tahlil qilinishi kerak. Holbuki, bu bilan masala hal bo‘lib qolmaydi. Shunday ekan, ushbu muammolarning yechimiga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilishi dolzarbligicha qolmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va

konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Jamiyatda bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta'minlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona, teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bular Konstitusiyamizda mustahkamlangan fuqarolarning irqi, millati, tili, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi tamoyillari hamda turli millat va elatlar vakillarining tili, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish, ularni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi.

Jamiyatda do'stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy sohalarda islohotlarni izchil amalga oshirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi.

Bugun O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo'lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shamoqdalar. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga «O'zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni berildi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 milliy madaniy markaz, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 do'stlik jamiyati faoliyati O'zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatлari, an'ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ular "xalq diplomatiyasi" mexanizmidan faol foydalangan holda tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldag'i hamyurtlar bilan yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa

qo'shmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleradioko'rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi, biz yashayotgan bugungi davrning o'zi davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakat atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy siyosatni yuritish, shuningdek, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Qo'mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldag'i hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi.

Qo'mita millatlararo totuvlik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, milliy madaniy markazlarga amaliy va metodik yordam ko'rsatadi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini

mustahkamlash, “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” tamoyilini amalga oshirish choralarini ko‘radi.

Yoshlarni bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tarix, madaniyat, milliy an’ana va urf-odatlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi. Bu millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega, mustaqillik g‘oyalariga sodiq, O‘zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ilgari suradigan ma’naviy barkamol avlodni shakllantirish imkonini beradi.

Qo‘mitaga davlat organlarida milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlarining manfaatlarini himoya qilish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakatimizda yashayotganturli millat va elat vakillarining o‘ziga xos milliy an’analari, urf-odatlari va marosimlarini asrash va rivojlantirishga ko‘maklashish vazifasi yuklangan.

Shuningdek, qabul qilingan Farmonda xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni, chet eldag‘i hamyurtlarimiz va turdosh tashkilotlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash vazifalari belgilangan. Qo‘mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalar, xorijiy davlatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan turdosh tashkilotlar bilan samimiyl va o‘zaro hurmatga asoslangan aloqalar o‘rnatish hamda izchil rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tizimli amalga oshiradi.

Bu boradagi ishlar xalqaro hamjamiyatda respublikaning nufuzi va maqomini yanada yuksaltirish, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish borasida erishilgan yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan. Bu borada o‘zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari va an’analari, shu zaminda tug‘ilib o‘sigan buyuk olim va mutafakkirlar merosi, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini keng namoyish etish bo‘yicha tadbirlar o‘tkaziladi.

Qo‘mita o‘zbek xalqining mamlakatimiz tashqarisidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashni ta’minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish masalasiga ham alohida e’tibor qaratadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan millatlararo munosabatlar va do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borishda bevosita ishtirop etishga ko‘maklashish Qo‘mitaning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

4.3. O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish va demografik rivojlanishning asosiy muammolaridan biri aholi migratsiyasi masalasini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish.

O‘zbekiston aholisining o‘sishi, milliy tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, demografik va boshqa sohalardagi ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, O‘zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarga teng siyosiy huquqlarni va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishda barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shuni ham ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yuzaga kelgan o‘ziga xos demografik vaziyat ko‘pgina xususiyatlari bilan sovet davridagi holatdan ancha farq qiladi. Bu o‘zgarishlar, avvalo, demografik jarayonlar, ya’ni tug‘ilish, aholining tabiiy o‘sishi va migratsiya jarayonlarida kuzatildi. Umuman olganda, aholi migratsiyasi masalasi O‘zbekistonning demografik rivojlanishidagi asosiy muammo bo‘lib, 90-yillardagi demografik jarayonlarning borishini belgilab berdi. Aholi migratsiyasida ikki asosiy yo‘nalish bo‘lib, bular ichki va tashqi migratsion oqimlardir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi migratsion aloqalar ichki migratsiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo‘la boshladi. Shuningdek, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida respublika mehnat resurslari miqdorining o‘sib borishi tashqi mehnat migratsiyasini rivojlantirishga turki bo‘ldi.

Aholi migratsiyasi masalasi O‘zbekistonning demografik rivojlanishidagi asosiy muammo bo‘lib, 90-yillardagi demografik jarayonlarning borishini belgilab berdi. Aholi migratsiyasida ikki asosiy yo‘nalish bo‘lib, bular ichki va tashqi migratsion oqimlardir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi migratsion aloqalar ichki migratsiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo‘la boshladi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida respublika mehnat resurslari sonining o‘sib borishi tashqi mehnat migratsiyasini rivojlantirishga turki bo‘ldi.

Aholi migratsiyasimasalasi O‘zbekistonning demografik rivojlanishidagi eng asosiy muammolardan biri bo‘lib, nafaqat demograflarning, balki siyosatchilar, iqtisodchilar va deyarli barcha ijtimoiy-gumanitar soha vakillarini qiziqtirib kelmoqda. Aynan aholi migratsiyasi O‘zbekistonda 90-yillardagi demografik jarayonlarning borishini belgilab beradi.

Aholi migratsiyasi masalasi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb va munozarali mavzulardan hisoblanadi, ayniqsa hozirgi mafkuraviy cheklashlar olib tashlangan va bu jarayonlarni xolisona baholash imkoniyati paydo bo‘lgan bir paytda bu muammolarga katta e’tibor berilmoqda. Oxirgi 10-15 yil ichida

migratsion jarayonlarda muhim o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiva xilma-xilligi ilmiy qiziqishning oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Mustaqillik yillarida aholi sonining ko‘payishi, asosan, tabiiy o‘sish hisobiga bo‘lmoqda. Chunki, 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekiston aholi migratsiyasida manfiy saldoga ega, ya’ni respublikaga ko‘chib kelgan aholiga nisbatan ko‘chib ketgan aholi soni ustun bo‘lib kelmoqda. Migratsiya, ayniqsa, sobiq Ittifoqning parchalanishi arafasida kuchaydi va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tobora keskinlashuvi bu oqimni yanada ko‘paytirdi. Aholi migratsiyasining manfiy saldosi 1990 yildagi 181,2 ming kishidan 2000 yilda 66,6 ming kishigacha kamaygan.

O‘zbekiston aholisining 1991-2000 yillardagi umumiy o‘sishi tahlil qilinsa, qishloq aholisi umumiy soni bo‘yicha ham, tabiiy o‘sishi bo‘yicha ham shahar aholisidan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganligi, shu bilan bir vaqtida migratsiya manfiy saldosi bo‘yicha qishloq shahardan ortda qolganligi ko‘rinadi.

90-yillarda ham O‘zbekistonda qishloq aholisi migratsiyasining manfiy saldosi shaharga nisbatan ortib borganligi kuzatiladi. Jumladan, 1996, 1997 va 1998 yillarda qishloq aholisi migratsiyasining manfiy saldosi shahar aholisiga qaraganda tegishli ravishda 1,8; 3,0 va 2,6 baravar ko‘paygan.

O‘zbekistondagi demografik jarayonlarda aholi migratsiyasining roli masalasida ikki asosiy yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin. Bu yo‘nalishlar bir-biridan nafaqat ahamiyati, balki miqyosi jihatidan ham sezilarli farq qiladigan ichki va tashqi migratsion oqimlardir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi (mamlakatlararo, xalqaro) migratsion aloqalar sovet davridagi cheklashlar olib tashlanganligi sababli ichki migratsiyaga nisbatan katta ahamiyatga ega bo‘la boshladи. Ilgari bu aloqalar, asosan, Rossiya va qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib uning miqyosi birmuncha kengaydi. Bu migratsion oqimda yiliga respublikaning o‘n minglab aholisi ishtirok etmoqda.

Aholi tarkibida bolalar va o‘smirlarning ko‘pligi demografik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatidir. Ma’lumki, bolalar va o‘smirlar davlat tomonidan himoyaga, ayniqsa, muhtojdirlar. 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar Rossiya va Belorussiyada 24 %dan sal ko‘proqni, Qozog‘istonda 33,2 %ni tashkil qilsa, O‘zbekistonda esa 43,1 %ni tashkil qiladi. Respublikadagi jami aholining yarmidan ko‘prog‘ini – bolalar, o‘quvchi-yoshlar, nafaqadorlar tashkil etadi. Aholi orasida ko‘p bolali oilalar sonining yuqoriligi O‘rta Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlar kabi O‘zbekistonga ham xos xususiyatdir. Respublikada oilaning o‘rtacha soni 5,5 kishidan iborat, bir qancha viloyatlarda

esa 6 kishidan oshadi, bu ko'rsatkich MDHning Yevropa qismidagi mamlakatlarda 3,2 kishini tashkil etadi.

Aholining 60 %idan ko'prog'i qishloq joylarida istiqomat qiladi va asosan dehqonchilik bilan mashg'uldir. Ajdodlarining an'anaviy yashash joylariga bog'langanlik aksariyat respublika aholisiga xos bo'lib, bu hol mehnat bozorini shakllantirish muammolariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining tamoyillaridan biri, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish, bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rlishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu qoidalar O'zbekistonning o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi.

80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol sezilarli darajada og'ilashib ketdi. O'z navbatida bu ahvol mamlakatning demografik holati va keyingi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Sobiq Ittifoq tanazzulga uchragan paytda respublikada bolalar va onalar o'limi darajasining yuqoriligi va aholini ijtimoiy himoyalash sohasining og'ir ahvolda ekanligi demografik sharoitning noxush ahvolga tushib qolishiga olib keldi.

90-yillarga kelib, O'zbekistondagi demografik o'sish sur'atlari asta-sekinlik bilan pasayib bordi va 90-yillar o'rtalaridan boshlab aholi sonining yillik o'rtacha o'sishi 1,8-1,9 %ni tashkil etdi (masalan, 70-yillarda 2,9 %ni, 80-yillarda 2,6 %ni, 90-yillarning boshlarida esa 2,2 %ni tashkil etgan).

XX asrning oxirgi o'n yilligida respublikada demografik o'sish tendensiyasining pasayishi ko'zga yaqqol tashlandi. Bunga ayniqsa, tug'ilish darajasining pasayishi va 80-yillarga nisbatan tashqi migratsiyaning o'sib borishi sabab bo'ldi. O'zbekistonda tug'ilish darajasi uzoq yillar davomida yuqori darajada bo'lib kelgan ediki, uning sezilarli darajada pasayishini, xatto mutaxassislar ham oldindan taxmin qilolmasdilar. Aksincha, 70-yillarda ko'pchilik mutaxassislar 2000 yilga kelib, respublika aholisi 28-28,5 mln. kishiga yetadi, deb taxmin qilgan edi. 90-yillar oxirlarida O'zbekiston aholisi, avvalambor, tabiiy o'sish hisobiga ko'payib bordi. Respublikada har yili 600 mingdan ortiq bola tug'ilib, tug'ilish koeffitsiyenti 25-27 %oni tashkil etdi. 80-yillarda bu ko'rsatkich 35-37 %oni tashkil etgan. Ko'rinish turibdiki, tug'ilish darajasi yil sayin pasayib bormoqda.

O‘zbekistondagi demografik vaziyatning tasnifi migratsion jarayonlar tahlilisiz to‘liq bo‘lmaydi. Bu jarayon murakkab bo‘lib, maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Avvalo, respublika aholisining migratsion harakatchanligi nisbatan past darajada ekanligi bilan xarakterlanadi. Asosiy migratsion oqimlar qishloqdan shaharga va shaharlararo yo‘nalishga ega bo‘lib, unda ayniqsa, Toshkent shahri alohida o‘rin tutadi. 80-yillar oxiri 90-yillarning boshlarida migratsion jarayonlar, asosan, oilaviy xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 90-yillarning oxirlariga kelib, migratsion oqimlarning tarkibini asosan mehnatga layoqatli aholi va yoshlar tashkil etdi.

O‘zbekiston boshqa respublikalar bilan migratsion almashinuvda 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab manfiy saldoga ega bo‘lib, uning mutlaq miqdori 90-yillar boshlarigacha ortib borgan. Bunga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatgan, jumladan, respublika aholisining migratsion harakatchanligining o‘sishi, sobiq Ittifoqning bir qator hududlarida ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojning ortishi va uning asosan O‘rta Osiyo aholisi hisobiga to‘ldirilishi hamda Rossiya va boshqa respublikalardan ko‘chib keluvchilar sonining kamayishi ham ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekistondagi migratsion vaziyat jahon miqyosida olib qaralganda tinch va barqaror ko‘rinishga ega bo‘lib, sobiq Ittifoqning parchalanishi davrida mamlakatdagi migratsion jarayonlarda inqirozli holatlar yuzaga keldi. Bunday holat mustaqillik yillarida barham topib, birmuncha osoyishtalik yuzaga keldi.

Migratsiya aholining soni va tarkibiga ta’sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistondagi tashqi migratsiya jarayoni aholi o‘sish sur’atlarining pasayishiga sabab bo‘lmoqda, chunki respublikadan ko‘chib ketganlar soni ko‘chib kelganlar sonidan ustun bo‘lib keldi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, aholining respublikadan chetga ko‘chib ketishi “qayta qurish”dan ancha ilgari boshlangan edi. O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan paytda migratsion jarayonlarning sur’ati pasayib bordi, respublikadan aholi ko‘chib ketishining eng yuqori ko‘rsatkichi 1989 va 1990 yillarga to‘g‘ri keladi. Buni 1989 yilda Farg‘ona vodiysida ro‘y bergen mesxeti turklari bilan bog‘liq voqealarga mahalliy bo‘lmagan aholining javob harakati deb qarash mumkin. Keyingi yillarda esa bu ko‘rsatkichlar ancha pasayib ketdi.

Mustaqillikka erishilgach, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda jamiyatda saqlanib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy yakdillik va millatlararo nizolarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan davlat siyosatining izchil amalgam shirilganligi asosiy rol o‘ynadi. Buning natijasida 90-yillarning o‘rtalariga kelib aholining ko‘chib ketishi yiliga 70-80 ming kishini, keyingi

yillarda 50-60 ming kishini tashkil etdi. 1990 yilda esa bu ko‘rsatkich 180 ming kishini tashkil etgan edi.

90-yillarning oxirida migratsion oqimlarning barcha asosiy

yo‘nalishlarida migratsiya miqdorining pasayishi kuzatiladi, jumladan, migrantsion jarayonlarda 1995 yilda respublika jami aholisining 1,2 %i ishtirok etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1996 yilda 1,0 %ni, 1999 yilda esa 0,7 %ni tashkil etdi. 1996-2000 yillarda qishloqdan shaharga ko‘chib kelish 1,2 marta, shaharlararo migrantsiyalarning yalpi hajmi 1,5 marta, qishloqlararo migrantsiya 2,2 marta, tashqi migrantsiya esa 3,5 marta kamaydi. Migratsiya ko‘rsatkichining pasayishi hozirgi paytda migrantsion jarayonlarning barqarorlashganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, XX asrning oxirgi o‘n yilligida ko‘chib kelganlarning ham, ko‘chib ketganlarning ham soni, binobarin, migrantsiyaning yalpi hajmi ham izchil pasayib bordi. Bu holat, ichki va tashqi migrantsiya oqimlarida ko‘zga tashlanadi (10 yil ichida ichki migrantsiya 1,5 marta, tashqi migrantsiya 4,8 marta kamaygan). Tashqi migrantsiya oqimlaridan asosan xalqaro migrantsiya hajmi (6,6 marta) pasaydi, bunga sabab migrantsiyaning bu oqimida asosiy ishtirokchi bo‘lgan ayrim millatlar (yahudiy va nemislar)ning katta qismi ilgariroq ko‘chib ketganligidir.

O‘zbekistonda 90-yillarda aholi migrantsiyasining yalpi hajmida ichki migrantsiyaning darajasi ortib, tashqi migrantsiya darajasi esa pasayib bordi, bu oldingi davr bilan taqqoslansa yaqqol ko‘rinadi: 70-yillarda 50-55 %ini, 80-yillarda 60-62 %ini, 80-yillarning oxiri va 90-yillarda esa 68-70 %ini tashkil etgan. 90-yillarning 2-yarmida tashqi migrantsiya darajasining pasayishiga qaramasdan, u respublika aholisi sonining o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi

O‘zbekiston aholisining migrantsiyasida Markaziy Osiyo davlatlari asosiy o‘rin egallar edi. Ayniqsa, ular ichida Qozog‘iston bilan bo‘lgan almashinuv alohida ajralib turar edi. O‘zbekiston aholisining tashqi migrantsiyasidagi umumiyligi hajmning 12-13 %i Qozog‘iston hisobiga to‘g‘ri kelgan. Ayni paytda, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan migrantsion aloqalar miqdor jihatidan past darajada edi, lekin aholi almashinuvidagi musbat saldo faqat Tojikiston Respublikasi bilan kuzatilgan.

Tashqi migrantsion oqimlarni migrantsiya yo‘nalishiga ko‘ra ikki guruhga: respublikalararo, ya’ni, O‘zbekistonning MDH va Boltiqbo‘yi davlatlari bilan bo‘lgan aloqalari hamda xalqaro, ya’ni, jahonning boshqa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarga bo‘lish mumkin.

Umuman, 90-yillar davomida O‘zbekiston tashqi migrantsion aloqalarda manfiy saldog‘a ega bo‘lgan. 1990-1999 yillarda tashqi migrantsiyaning rivojlanishi natijasida O‘zbekistondan 853,3 ming kishi ko‘chib ketgan, migrantlarning asosiy qismi (80 %i) MDH va Boltiqbo‘yi davlatlariga to‘g‘ri kelgan. 90-yillarning oxiriga kelib, xorijiy davlatlar bilan migrantsiyaning yalpi hajmi yiliga 6-8 ming kishini tashkil etgan, 90-yillarning boshlarida esa bu ko‘rsatkich 26-30 ming kishiga teng edi.

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi migrantsiya jarayonlari, ayniqsa, 90-

yillarda keng ko‘lamli bo‘lgan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1990-2000 yillar oralig‘ida O‘zbekistondan Rossiyaga 647,7 ming kishi ko‘chib ketgan. 90-yillardagi O‘zbekistondan bo‘lgan migratsiya yosh tarkibiga ko‘ra oldingi davrlardagidan farq qilardi. Shu davrda O‘zbekistondan ko‘chib ketgan 800 mingdan ortiq kishining 60-65 %ini mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar tashkil etgan. Bundan oldingi davrlarda o‘quv migratsiyasi ustun bo‘lib, migratsion oqimni yoshlar tashkil etardi, umuman olganda, migrantlarning 85 %i mehnatga layoqatli kishilardan iborat bo‘lgan.

90-yillardagi migrantlar esa yosh jihatidan birmuncha farq qilardi. Migrantlar orasida nafaqa yoshidagi kishilarning ulushi ortib borgan, bu esa migratsiya ko‘p hollarda oilaviy tus olganligidan dalolat beradi. Migrantlarning bilim darajasiga ko‘ra ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Bu davrda O‘zbekistondan ko‘chib ketganlarning katta qismini kasbiy tayyorgarlik va yuqori malakaga ega bo‘lgan kishilar tashkil etgan.

Aholi migratsiyasi, bundan tashqari, O‘zbekiston aholisining milliy tarkibiga ham ta’sir qildi. O‘zbekiston aholisining milliy tarkibida azaldan mahalliy aholi asosiy qismni tashkil etib kelgan. 1989 yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada o‘zbeklarning soni 14142475 kishi (umumiyligi 71,4 %)ni, qoraqalpoqlarning soni esa 411878 kishi (2,0 %)ni tashkil etgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining 32,1 %ini qoraqalpoqlar, 32,8 %ini esa o‘zbeklar tashkil etardi.

O‘tgan yillarda turli millatlarning ham tabiiy, ham mexanik o‘sishidagi farqlar hisobiga mahalliy aholining soni va ulushi sezilarli oshdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2000 yilga kelib, o‘zbeklarning soni 19 milliondan, qoraqalpoqlarning soni esa 580 mingdan ortib, respublika aholisining umumiyligi 77,7 % va 2,4 %ni tashkil etdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘zbeklar va qoraqalpoqlarning migratsion harakatchanligi O‘zbekistonda yashovchi ruslar va ukrainlarning harakatchanligiga nisbatan 4-6 marta past bo‘lganligini kuzatish mumkin. Qishloq aholisining migratsion harakatchanligi esa shaharliklarga nisbatan 2-3 marta pastroq bo‘lgan. 1989 yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga

ko‘ra, qishloqdagi o‘zbeklarning deyarli 90 %i tug‘ilgan joyida yashardi, shaharliklar orasida bu ko‘rsatkich 79 %ni tashkil etardi.

90-yillardagi tashqi migratsiya, ayniqsa, Toshkent shahri va viloyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan, chunki bu yerda azaldan mahalliy bo‘lmagan aholining ulushi yuqori bo‘lgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent aholisi ko‘p yillar davomida migratsiya hisobiga ko‘payib borgan. Toshkent shahri aholisining soni 80-yillarda yiliga o‘rtacha 40-42 ming kishiga ortib borgan bo‘lsa, shundan 20-22 mingi migratsiya hisobiga

to‘g‘ri kelgan. Migratsiya xarakterining o‘zgarishi bilan bu nisbat tubdan o‘zgardi, endi migratsiya tabiiy o‘sishning ham bir qismini ola boshladi. Rasmiy

statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1990-1999 yillarda Toshkent aholisining soni 18,6 ming kishiga, yoki yiliga o‘rtacha 1,9 ming kishiga ko‘paygan. Migratsiya hisobiga yo‘qotishlar esa 10 yilda 190 ming kishini tashkil etgan.

90-yillarda Toshkent aholisi sonining o‘zgarishiga ikkita turli yo‘nalishli, tashqi (manfiy saldo) va ichki (musbat saldo) migratsion oqim ta’sir ko‘rsatgan. Lekin, ichki migratsion oqim tashqi migratsiyani to‘liq qoplay olmagan.

Migratsion jarayonlar Toshkent viloyati aholisi sonining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. 1970 yilda viloyat hisobiga respublika aholisining 12,5 %i to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1990 yilga kelib bu ulush 10,5 %gacha, 2000 yilda esa 9,6 %gacha pasaygan. Toshkent viloyati va shahrining umumiy ulushi 1990 yildagi 21,0 %dan 2000 yilga kelib 18,3 %ga tushgan.

Respublika ichida migratsiya ko‘rsatkichlarining pasayishiga qaramasdan, 90-yillar oxiridagi migratsion jarayonlarda ichki migratsiya ulushining nisbatan oshganligi xarakterli bo‘lib, ularning ulushi keyingi davrda ham uzlusiz ortib bormoqda. Masalan, 1999 yilda bu yo‘nalish respublika aholi migratsiyasi yalpi hajmining 80 %dan ko‘prog‘ini tashkil etgan, 80-yillarda esa bu 60-65 %ga teng edi.

Migratsion vaziyatni migratsion oqimlarning samaradorligi va yig‘indisi belgilab beradi. Zamonaviy migratsiyalarda nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham o‘zgarishlar yuz bermoqda. Umuman olganda O‘zbekistondagi migratsion vaziyat nisbatan barqaror xarakterga ega. Yuz bergen o‘zgarishlarni esa XX asr oxirida butun sobiq Ittifoq hududida vujudga kelgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘lash mumkin.

90-yillarning oxirlarida O‘zbekistondagi aholi migratsiyasiga nafaqat tashqi, balki ichki migratsiya sur’atlarining ham pasayishi xarakterlidir. Faqat 90-yillarning ikkinchi yarmida qishloqlardan shaharlarga ko‘chib kelganlar soni 1,2 marta, shahardan qishloqqa ko‘chib ketganlar soni esa 1,5 marta kamaydi. Shaharlararo migratsiyalarning yalpi hajmi 1,5 marta, qishloqlararo migratsiya esa 2,2 marta kamaydi.

80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida emigratsiya qoidalarining erkinlashuvi, bir qator millatlararo mojarolar (Olma-ota, Farg‘ona, O‘sh va Dushanbe voqealari) ning yuzaga kelishi natijasida sobiq ittifoqdan nemislar, yahudiylar va greklarning, ittifoq ichida esa, asosan, Rossiya va Ukrainaga mesxeti turklari, qrim tatarlari va rusiyabon aholining migratsiyasi kuchaydi. Bu jarayonlar Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasidagi migratsion aloqalarga ta’sir ko‘rsatdi. Bu aloqalarda mahalliy aholi ham faol ishtirok etdi. Ittifoq tarqab ketgach, xalqaro migratsiya darjasini biroz pasaydi. Bunga quyidagi statistik ma’lumotlar dalil bo‘ladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra,

1990-96 yillarda O‘zbekistondan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketish uchun ruxsat olganlarning soni 106803 kishini tashkil etgan. Jumladan, 1990 yilda ko‘chib ketganlarning soni 41934 kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan 35537 kishi – Isroilga, 4609 kishi – Germaniyaga, 830 kishi – Gretsiyaga, 804 kishi esa AQShga ketgan. 1991-92 yillarda Isroilga – 14525 kishii, Germaniyaga – 7781 kishi, Gretsiyaga – 1353 kishi, AQShga – 7749 kishi ko‘chib ketgan. 1993-94 yillarda “uzoq xorij”ga O‘zbekistondan jami 30606 kishi, 1995 yilda – 569 kishi, 1996 yilda esa 386 kishi ko‘chib ketgan.

Agar bu ko‘rsatkichlar qo‘shni respublikalar bilan taqqoslansa, O‘zbekistondagi xalqaro migratsion oqim darajasi past bo‘lganligi ko‘rinadi. Jumladan, 1990-96 yillar oralig‘ida Qozog‘istondan “uzoq xorij”ga 720,1 ming kishi ko‘chib ketgan, ya’ni O‘zbekistonga nisbatan Qozog‘istondan ko‘chib ketgan migrantlar soni deyarli yetti marta yuqori bo‘lgan.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, bu davrda O‘zbekistondan ketganlarning 40 %ga yaqini 1990 yilda, ya’ni sobiq Ittifoq davrida ko‘chib ketgan. 1991-96 yillarda O‘zbekistondan ko‘chib ketganlarning soni esa 64,9 ming kishini tashkil etgan va xuddi shu davr ichida Qirg‘izistondan ko‘chib ketganlarning sonidan (70,1 ming kishi) kam bo‘lgan. Vaholanki, o‘sha paytda O‘zbekistonda aholi soni Qirg‘izistonga nisbatan deyarli 5 marta ko‘p bo‘lgan.

Bundan tashqari, 1995-96 yillarda statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan “uzoq xorij”ga ko‘chib ketganlarning soni sobiq ittifoq respublikalari orasida eng kam ko‘rsatkichni tashkil etgan.

O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan migratsion aloqalari asosan Rossiya, Ukraina va qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan ayniqsa keng ko‘lamli bo‘lgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonga ko‘chib kelganlarning umumiyligi soni kamayib borgan, jumladan, 1990 yilda respublikaga 74222 kishi ko‘chib kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1995 yilga kelib 31768 kishini tashkil etgan,

ya’ni 2 martadan ziyodroq kamaygan. Shu davrdagi migratsion oqimlar tahlil qilinsa, migrantlarning 41,3 %i Rossiyadan, 20,4 %i Qozog‘istondan, 16 %i Tojikistondan, 11,5 %i Qirg‘izistondan, 4,8 %i Ukrainadan, 3,5 %i Turkmanistondan, qolgan 2,5 %i esa sobiq ittifoqning boshqa respublikalaridan kelganligi ko‘rinadi.

1995 yilda migrantlarning yarmidan ko‘prog‘i qo‘shni Markaziy Osiyo respublikalaridan kelganligini ta’kidlash joiz, chunki 1990 yilda ularning ulushi 40 %dan ortmas edi. Rossiya va Ukrainadan kelganlarning ulushi esa 1990 yilga nisbatan tegishli ravishda 5,8 % va 3,7 %ga, ularning umumiyligi ulushi Belorussiya (0,9 %) bilan qo‘shib hisoblaganda 10,4 %ga kamayganligi ko‘rinadi, ya’ni slavyan davlatlaridan O‘zbekistonga ko‘chib kelganlarning soni kamaygan.

O‘zbekistondan MDH davlatlariga ko‘chib ketganlar soni ham kamayib

borgan, jumladan, 1990 yilda respublikadan 186912 kishi ko'chib ketgan bo'lsa, 1995 yilda bu ko'rsatkich 103220 kishini tashkil etgan. 1995 yilda ko'chib ketganlarning 73,4 % i Rossiyaga, 10,7 % i Qozog'istonga, 9,6 % i Ukrainaga, 2,3 % i Qirg'izistonga, 1,9 % i Turkmanistonga, 0,9 % i Tojikistonga, qolgan 1,2 % i esa boshqa respublikalarga ko'chib ketgan.

1990 yilga nisbatan Rossiyaga ko'chib ketganlarning ulushi 1995 yilga kelib 23,6 punktga ortgan, Ukrainaga ketganlarning ulushi esa ayni paytda 15,0 punktga kamaygan.

Shuningdek, bu davrga kelib, O'zbekistondan Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmanistonga ketganlarning soni ham ancha kamaygan. Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekistondan ketgan migrantlarning ulushi bo'yicha 2-o'rinda turgan Qozog'istonning ulushi ham 1995 yilga kelib, 1990 yilga nisbatan 0,1 punktga kamaygan.

Umuman olganda, 1995 yilda O'zbekistondan sobiq ittfoqdosh respublikalarga chiqib ketgan migrantlarning 93,7 % i Rossiya, Qozog'iston va Ukraina hisobiga to'g'ri kelardi, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikistonga ketganlarning ulushi esa 5,1 % ni tashkil etgan.

Migrantlarning yosh strukturasiga nazar tashlansa, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi yuqori bo'lganligi ko'rindi. 1990-1995 yillar oralig'ida O'zbekistondan chiqib ketgan migrantlar soni 632700 kishini tashkil etgan bo'lsa, ulardan 460000 kishi yoki 73 % i mehnatga layoqatli aholi (17 dan 60 yoshgacha erkaklar, 17 dan 55 yoshgacha ayollar) bo'lgan. Natijada, O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholi va umumiy aholi soni o'sish sur'atlari deyarli tenglashdi, o'sish sur'atlari tegishli ravishda 1,9 % va 1,8 % ni tashkil etdi. 1970-1979 yillarda bu ko'rsatkich tegishli ravishda 4 % va 1,95 % ni tashkil etgan.

Lekin, O'zbekistonda aholining o'sishi hududiy jihatdan farqlanadi, qishloqlarda aholi o'sishi sur'atlari 3 % ni tashkil etgan, bu esa shaharlarga nisbatan 2 marta yuqori bo'lgan. O'zbekistondan aholining, ayniqsa, rus va rusiyabon millatlarning ko'chib ketishi, asosan, shaharlar hisobiga bo'lganligi qishloq aholisi ulushining ortishiga olib keldi. Natijada, qishloqlarda aholini ish o'rnlari bilan ta'minlash muammosi yuzaga keldi.

O'zbekistonda 90-yillarning birinchi yarmida yuz bergen demografik va migratsion jarayonlar respublika aholisining milliy tarkibiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Respublika umumiyligi aholisi tarkibida mahalliy millat (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tojik va turkman) vakillarining ulushi tez sur'atlar bilan o'sib bordi va 20 mln. kishini tashkil etdi. Asosan, bu o'sish mahalliy millat vakillari orasida tug'ilishning nisbatan yuqori darajada ekanligi hisobiga bo'ldi. O'zbeklarning soni bu davrda deyarli 3 mln. kishiga, ularning ulushi esa 71,4 % dan 75,7 % ga o'sdi.

O'zbeklar ulushining o'sishi boshqa mahalliy millat (qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tojik va turkman) vakillari hisobiga yuz bermadi, chunki ularning ulushi ham bu davrda 0,1 punktga ko'tarildi va 12,5 %ni tashkil etdi. Bu o'sish, asosan mahalliy bo'lman millat vakillari hisobiga yuz berdi, chunki ular orasida tug'ilish sur'atlari mahalliy aholiga nisbatan past darajada va ularning migratsion faolligi, ya'ni respublikadan ko'chib ketishi yuqoriq bo'ldi, bu guruhning ulushi 16,2 %dan 11,8 %ga tushdi. Shunday bo'lsada, bu guruh ham son jihatidan ancha o'sganligini ko'rish mumkin, ularning soni 2,448 mln.dan 2,8 mln.gacha, ya'ni 342 ming kishiga o'sgan.

Tabiiy o'sishning ancha past darajada ekanligi va migratsion jarayonlar hisobiga ruslar (deyarli 300 ming, - 2 punkt), tatarlar (115 ming, - 0,8 punkt), yahudiylar (37,5 ming, - 0,2 punkt) va nemislар (24,4 ming, - 0,13 punkt) ning soni va ulushi kamaydi, bu ko'rsatkichlar migratsion jarayonlar aholining milliy tarkibiga jiddiy ta'sir qilganligini ko'rsatib turibdi.

Yahudiylar va nemislarning migratsiyasi sobiq ittifoqning barcha respublikalari uchun xos holat edi, bundan tashqari ushu ikki millat vakillarining aksariyat qismi sobiq Ittifoqdan, 1991 yilgacha chiqib ketgan edi. Tatarlarning ulushi birinchi navbatda, asosan, qrim tatarlari hisobiga pasaydi, chunki ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonga deportatsiya qilingan qrim tatarlari 80-yillarning oxirlarida Ukraina va Qrimga qaytib ketishga rasmiy ruxsat olganlaridan keyin ko'chib ketgan edi.

Ruslarning soni va ulushi kamaygan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich oldingi davrlarga nisbatan olib qaralganda, unchalik katta emasligi kuzatiladi, jumladan, 1989-1995 yillar oralig'ida ularning ulushi 2 punktga kamaygan bo'lsa, 1979-1989 yillar oralig'ida bu ko'rsatkich 2,5 punktni tashkil etgan edi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ruslarning soni ancha pasayganligiga qaramasdan ular hozirgi kunda ham son jihatidan mahalliy bo'lman millatlarning deyarli yarmini tashkil etib kelmoqda.

1991-1996 yillarda O'rta Osiyo respublikalarida yuz bergan migratsion jarayonlar qiyosiy tahlil qilinsa, migratsiya asosan mazkur respublikalar orasida ro'y bergan, ammo MDH davlatlari bilan ham migratsion aloqalar davom etganligi kuzatiladi. Bu davrda Qozog'istonagi migratsiya darajasi ham miqdor, ham nisbiy jihatdan O'zbekiston va Qirg'izistonagi migratsion oqimning umumiyy ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Jumladan, 1991-96 yillarda sobiq ittifoqning boshqa respublikalariga ko'chib ketgan aholi soni Qozog'istonda 1375880 kishini, Qirg'izistonda 381130 kishini, O'zbekistonda 691340 kishini tashkil etgan. Bu respublikalardagi migrantlarning asosiy qismi asosan Rossiya ga ko'chib ketgan. Ayni paytda, O'zbekistonga qo'shni respublikalardan 95802 kishi ko'chib kelgan.

Umuman olganda, mavjud statistik ma'lumotlarning tahlili 1991-96 yillar

davomida O‘rtta Osiyoning barcha respublikalari aholi migratsiyasida manfiy saldoga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur ma’lumotlar O‘zbekistondagi migratsiya koeffitsiyenti qo‘shti respublikalar orasida eng past darajada saqlanib qolib, migrantsion jarayonlardagi eng barqaror vaziyat O‘zbekistonda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

1991-96 yillarda Markaziy Osiyo respublikalaridagi migrantlarning aksariyat qismi Rossiyaga ko‘chib ketgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiyaga yuqorida qayd etilgan davr mobaynida 2553795 kishi, shu jumladan, 1269119 kishi

Qozog‘istondan, 581707 kishi O‘zbekistondan, 306594 kishi Qirg‘izistondan, 289077kishi Tojikistondan va 107298 kishi Turkmanistondan kelgan. Rossiyaga kelgan migrantlarning yarmidan ko‘prog‘i Qozog‘iston hisobiga to‘g‘ri kelgan. Nisbiy jihatdan, aholi sonini hisobga olganda, Qirg‘izistondan ko‘chib ketganlarning ulushi ham yuqori bo‘lgan. Qirg‘iziston son jihatdan, hatto, shu paytda fuqarolar urushini boshidan kechirib turgan Tojikistondan ko‘chib ketganlar sonidan ustun turibdi. O‘zbekiston va Turkmanistondan ketganlarning soni nisbiy jihatdan bir biriga yaqin, ya’ni O‘zbekistondan Rossiyaga ko‘chib ketganlarning soni ham umumiy aholi soni ham Turkmanistonga nisbatan 5 marta yuqori bo‘lgan.

Rossiya Federatsiyasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 1994-95 yillar va 1996 yilning 1-yarmi davomida Markaziy

Osiyo respublikalaridan ko‘chib kelayotganlar sonining kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Shu bilan birga, 1995 yilda oldingi yillarga nisbatan Rossiyadan Qozog‘iston va O‘zbekistonga ko‘chib ketganlarning soni ortgan.

Shunga qaramasdan, bu davrda Markaziy Osiyo respublikalari Rossiya bilan migrantsion aloqalarda manfiy saldoga ega bo‘lgan, jumladan, 1995 yilning o‘zida manfiy saldo 362 ming kishini tashkil etgan.

Migrantlarning milliy tarkibiga e’tibor berilsa,

Rossiyaga ketganlarning aksariyat qismi ruslar va rusiyabon millatlar (ukrain, tatar, boshqird) ekanligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, Markaziy Osiyodan ko‘chib ketgan nemis va yahudiylarning bir qismi ham Rossiyada qolgan.

Markaziy Osiyo respublikalari mahalliy aholisining mazkur migrantsion oqimlardagi ulushi uncha katta bo‘lmagan. Masalan, 1995 yilda Rossiyaga Markaziy Osiyo respublikalaridan kelganlar orasida ruslar 60-74 %ni, ukrainlar 4,5-8,4 %ni, tatarlar 3-14,5 %ni, nemislar 1-4 %ni tashkil etgan.

Mahalliy millat (tegishli respublikaning titul millati) vakillarining ulushi Markaziy Osiyo respublikalaridan Rossiyaga ketganlar orasida, tegishli ravishda, qozoqlar 3,2 %, qirg‘izlar 2,4 %, tojiklar 12,3 %, turkmanlar 3,2 %, o‘zbeklar 3,2 %ni tashkil etgan. Rossiyadan Markaziy Osiyo respublikalariga ko‘chib kelganlar orasida, tegishli ravishda, qozoqlar 11,0 %, qirg‘izlar 5,9 %, tojiklar 23,4 %,

turkmanlar 20,6 %, o'zbeklar 10,1 %ni tashkil etgan. YA'ni, yuqoridagi ma'lumotlar O'zbekiston misolida tahlil qilinsa, Rossiyaga O'zbekistondan ko'chib ketganlar orasida o'zbeklarning ulushi 3,2 %ni, Rossiyadan O'zbekistonga ko'chib kelganlar orasida o'zbeklarning ulushi 10,1 %ni tashkil etganligi ma'lum bo'ladi.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda oilaning tashkil bo'lishi va uning muntazamligiga demografik omillardan nikohga kirish, farzand tug'ilishi va ajralishning bevosita ta'sir etishi.
2. O'zbekistonda tug'ilishning kamayib borishi, umr davomiyligining oshishi, nikoh va oilani mustahkamlash, uning tarkibi hamda rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi ajrim masalalarida belgilangan vazifalarni ayting.
3. Aholi migratsiyasi masalasini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha belgilangan vazifalarni tushuntiring.
4. Ijtimoiy siyosatni qayta ko'rib chiqish va demografik rivojlanish borasida belgilangan vazifalar nimalardan iborat bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan qoramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. . Azizxo'jayev A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. –T., 2001.
6. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida. - T.: O'zbekiston, 2005. 7. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
8. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas'ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
9. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O'zbekiston, 2019.
10. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va

- tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
11. Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009. 12. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70 80-yillar misolida). Qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 1999.
13. G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O‘zbekiston. -Toshkent: Mehnat, 2001.

Internet saytlari: 1.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: aholi o‘sishi va joylashishi (2 soat).

1.1. O‘zbekistonda

Reja:

mustaqillik yillarda demografiya jarayonlardagi o‘zgarishlar: tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish.

1.2. Aholi o‘sishi va u bilan bog‘lik muammolar.

1.3. Aholining hududiy joylashishi va ular o‘rtasidagi tafovutlar.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil O‘zbekistonda demografiya jarayonlarda (tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish) qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

2. Aholi soniningo‘sishi, undagi tarkibiy va sifat o‘zgarishlari va u bilan bog‘lik qanday muammolar sodir bo‘ldi?

3. Aholining respublika hududlari bo‘ylab joylashuvi va ular o‘rtasida qanday tafovutlar mavjud?

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlar mavzusida SWOT tahlilni amalga oshiring.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –592 b Toshkent: O‘zbekiston. 2017. –488 b.
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr, №276(7778).
5. Bo‘riyeva M. Demografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2001.
6. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va

bag‘rikenglik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.

7. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

2-amaliy mashg‘ulot. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida (2 soat).

Reja:

- 2.1. Aholini ro‘yxatga olish tarixiga nazar.
- 2.2. Yangi O‘zbekistonda jamiyatdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ona va yosh avlod salomatligini mustahkamlashga qaratilgan milliy urf-odatlarga asoslangan tadbirlarga alohida e’tibor qaratilishi.
- 2.3. O‘zbekistonda 2022 yilda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik jarayoni, uni o‘tkazish, uning natijalarini olish va e’lon qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda boshqa shu kabi tadbirlar.
- 2.4. Aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni prognoz qilish.

Savol va topshiriqlar:

1. Aholini ro‘yxatga olish 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989 yillar) tarixiga doir nimalarni bilasiz?
2. O‘zbekistonda jamiyatdagi oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ona va bolalar yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan qanday tadbirlarni bilasiz?
3. O‘zbekistonda 2022 yilda o‘tkaziladigan aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi nima?
4. Aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni prognoz qilishda qanday vazifalar belgilangan?

Aholini ro‘yxatga olish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borishning tarixiy ahamiyati haqida slayd va audio, video yozuvlarlardan birini tayyorlang.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –592 b Toshkent: O‘zbekiston. 2017. –488 b

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr, №276(7778).
4. Bo‘riyeva M. Demografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2001.
5. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3-amaliy mashg‘ulot. Ko‘pmillatli O‘zbekistonda demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari (2 soat).

Reja:

3.1. Yangi O‘zbekistonda oilaning tashkil bo‘lishi va uning muntazamligiga demografik omillar – nikohga kirish, farzand tug‘ilishi va ajralishning bevosita ta’sir etishi.

3.2. O‘zbekistonda tug‘ilishning kamayib borishi, umr davomiyligining oshishi, ayollarga nisbatan erkaklarning kam hayot kechirishi muammolari.

3.3. Oilaning demografik taraqqiyotiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan biri nikoh va oilani mustahkamlash, uning tarkibi hamda rivojlanishiga bevosita ta’sir etuvchi ajrim masalalari.

3.4. O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish va demografik rivojlanishning asosiy muammolaridan biri aholi migratsiyasi masalasini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish.

Savol va topshiriqlar:

1. Yangi O‘zbekistonda oilaning tashkil bo‘lishi va uning muntazamligiga demografik omillar – nikohga kirish, farzand tug‘ilishi va ajralish holatlari qanday ta’sir etadi?
2. Oilaning demografik taraqqiyotiga bevosita ta’sir etuvchi omillardan biri nikoh va oilani mustahkamlashda ajrim masalasi qanday salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi?
3. O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish muhim bo‘lgan demografik rivojlanishning asosiy muammolari nimada?

1-vazifa. Ko‘pmillatli O‘zbekistonda demografik jarayonlar to‘g‘risida taqdimot tayyorlang.

2-vazifa. O‘zbekistonda davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari to‘g‘risida esse yozing.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqimiz bilan birga quramiz. –592 b Toshkent: O‘zbekiston. 2017. –488 b
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr, №276(7778).
4. Bo‘riyeva M. Demografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2001.
5. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
6. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

4-amaliy mashg‘ulot. Mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri (2 soat).

Reja:

- 4.1. O‘zbekistonda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish.
- 4.2. Demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri.

Savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistonda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar: tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish tushunchalarining mazmun-mohiyati qanday?
2. Demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga qanday ta’siri bor.

1-topshiriq.

O‘zbekistonda demografik jarayonlarda qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi? Klaster tuzing.

2-topshiriq.

O‘zbekistonda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarni klaster ko‘rinishida tushuntiring.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqimiz

bilan birga quramiz. –592 b Toshkent: O‘zbekiston. 2017. –488 b

3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr, №276(7778).
5. Bo‘riyeva M. Demografiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2001.
6. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
7. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

5-amaliy mashg‘ulot. Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida (2 soat).

Reja:

- 5.1. Globallashuv jarayonida O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi (tashqi va ichki)
- 5.2. Migratsiya jarayonlarini tartibga solish. 5.3.
Migratsiya jarayoni va aholi bandligi.

Savol va topshiriqlar:

1. Globallashuv jarayonida O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi (tashqi va ichki) qanday holatda edi?
2. Migratsiya jarayonlarini tartibga solish qanday amalga oshiriladi? 3.
Aholining ish bilan bandligini oshirishda migratsiyaning qanday ahamiyati bor?

1-topshiriq. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining (tashqi va ichki) ilmiy-nazariy asoslari haqida ma’lumot bering.

2-topshiriq. Yangi davrga xos migratsiya xususiyatlari haqida gapirib bering.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –592 b Toshkent: O‘zbekiston. 2017. –488 b

3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqiga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020 yil 30 dekabr, №276(7778).
5. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
6. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

VI. GLOSSARIY

ARZON UY-JOY – qishloq aholisining talab va ehtiyojlarini hamda to‘lov qobiliyatini hisobga olib, davlat dasturiga ko‘ra namunaviy loyiha asosida quriladigan uy-joylar.

AHOLI BANDLIGI – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy mehnatda qatnashish darajasi, qonunchilikka zid bo‘lmagan tarzda fuqaroning shaxsiy va ijtimoiy talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyati.

AHOLI BANDLIGI SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI – davlat tomonidan fuqarolarning mehnatga, to‘liq, samarali va erkin tanlangan bandlikka bo‘lgan huquqlarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyati.

AHOLI DAROMADLARI – aholining ma’lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

AHOLINING UMUMIY DAROMADI – pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar hamdadoimiy asosda, takrorlanuvchi hususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a‘zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

BAYNALMINAL – (arabcha – millatlar o‘rtasidagi, millatlararo) xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo‘llaniladi.

BARQARORLIK – tinchlik-osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy, uzilkesil hamda mustahkam o‘rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy sharti hisoblanadi.

BARQARORLIK – tinchlik-osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy, uzilkesil hamda mustahkam o‘rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy sharti hisoblanadi.

BEPUL TIBBIY XIZMAT – fuqarolarga qulaylik va imtiyozlar berish maqsadida davlat tomonidan kafolatlangan barcha tibbiy hizmatlar majmuasi. **GEOSIYOSIY**

MUVOZANAT – ma’lum bir hududdagi mavjud siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish.

GLOBALASHUV – jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli hususiyatga ega, butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiyalashuv, halqaror mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchiliknimng, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatining qushilishi va yaqinlashuvi bilan bog‘liq obyektiv jarayon.

DAVLAT VA JAMIYAT – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

DAVLAT IJTIMOIY YORDAMI – mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi,

daromad manbai mavjud bo‘limgani sababli mustaqil ravishda o‘zini moddiy ta’minlay olamagan shaxslarga davlat tomonidan beriladigan yordam.

DAVLAT TUZILISHI SHAKLI – konstitusiyaviy huquq nazariyasida davlat yoki ittifoqni tashkil etuvchi davlatlarni hududiy tashkil qilish usuli. Davlat tuzilishi shaklining ikki xil farqlanadi: federatsiya va unitar davlat. Ko‘p millatli tarkibga ega bo‘lgan mamlakatlarga nisbatan ba’zan “milliy-davlatchilik tuzilishi shakli” terminidan ham foydalaniladi.

DAVLAT CHEGARASI – davlat mustaqilligining zaruriy belgilaridan biri bo‘lib, har qanday davlat o‘z hududiy chegarasiga egadir. Davlat hududining boshqa davlat hududi bilan tutash chizig‘i davlat chegarasi deb e’tirof etiladi.

DEMOGRAFIYA – (yunon. xalq + yozaman) Aholishunoslik; biror hudud, mamlakat, birdan ortiq mamlakatlar yoki dunyo aholisi o‘zgarishlarini (soni, geografik taqsimlanishi, tarkibi, o‘lish, tug‘ilish jarayonlarini) o‘rganuvchi fan tarmog‘i.

DINIY BAG‘RIKENGLIK – turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat’i nazar, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarash.

DINIY BAG‘RIKENGLIK – turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat’i nazar, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarash.

DINIY TASHKILOT – diniy jamoatlarning eng yuqori rasmiy uyushmasi. YOSH

OILA – er xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga etkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat oila, shu jumladan nikohdan ajralgan beva erkak (beva ayol).

YOSHLAGA OID DAVLAT SIYOSATI – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo’naliishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi.

YOSHLAR (YOSH FUQAROLAR) – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar.

YOSHLAR VA BANDLIK – ijtimoiy etuklikka erishish davrini boshdan kechirayotgan o‘n besh yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan ijtimoiy demografik guruhlarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganlik muammosi.

YOSHLAR TADBIRKORLIGI – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta’sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

JAMIYAT – insonlardan tashkil topgan ijtimoiy tuzum.

JAHON SIYOSATI – umumsayoravimohiyatiga ega bo‘lgan, jahon hamjamiyati taqdiri va istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan siyosat.

IJTIMOIY YORDAMGA MUHTOJ SHAXSLAR – o‘zining salomatligi, yoshi, daromat olish imkoniyatining cheklangani tufayli o‘zgalarning ko‘magiga muhtoj shaxs hamda oilalar. Ular o‘zlarining yozma arizalariga ko‘ra ijtimoiy yordamning bir yoki bir necha turlaridan foydalanishga haqli bo‘ladi.

IJTIMOIY SIYOSAT – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo’naltirilgan siyosatdir.

IJTIMOIY SOHA – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmuasi. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim, sport, madaniyat muassasalari va boshqa tuzilmalarini kiritish mumkun.

IJTIMOIY TO‘LOVLAR – kam ta’minlanganlarga pul yoki natural yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo‘lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi.

INTERFAOL DAVLAT XIZMATLARI – aholiga yagona interfaol davlat xizmatlari portali orqali xizmat ko‘rsatish.

ISHLAB CHIQARISH – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

KONFESSIYA – (lot. tan olish, e’tirof etish) diniy ishonch, e’tiqod; shu bilan birga mazhab mazmuniga ega tushuncha.

MAHALLA – arabcha “Mahallun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma’noni anglatadi. Fuqarolar yig‘ini kollegial organ bo‘lib, uni rais (oqsoqol) tegishli xalq deputatlari Kengashi yoki hokim bilan kelishgan holda, zaruratga qarab chaqiradi. Fuqarolar yig‘ini, barcha aholini yig‘ishning iloji bo‘limgan hollarda, belgilangan vakillik meyorlari asosida o‘tkaziladi.

MENTALITET – (nem. aql, idrok) Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urfodatlari, diniy e’tiqod va irimlarini qamrab oladi.

NOMINAL DAROMAD – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

OLIY MAJLIS – O‘zbekiston Respublikasining Oliy Qonun chiqaruvchi organi.

Oliy Majlis 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi asosida joriy etilgan bo‘lib, unga birinchi saylovlar 1994 yil 25 dekabrda o‘tkazilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki

palata – Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ularning vakolat muddati 5 yil.

OMBUDSMAN – Inson huquqlari bo‘yicha vakil

PARLAMENT (fr. so‘zlashmoq, gapirmoq) – demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Ilk bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, keyingi asrlarda boshqa mamlakatlarda ham tashkil etildi.

PREZIDENT (lot. oldinda o‘tiruvchi) – Respublika boshqaruvi shaklidagi davlatlarda davlat va hukumat rahbari

REAL DAROMAD – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni sotib olishga etadigan quvvati, ya’ni aholi daromadining xarid quvvati.

TOLERANTLIK – (lot. sabr-toqat, chidam, bardosh) O‘zgalarning fikr-g‘oyalari, e’tiqodi, his-tuyg‘ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo‘lish, beparvo qarash; bag‘rikenglik.

ETNIK JARAYON – kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo‘lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo‘shilib, aralashib borish jarayoni.

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. 2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 5 fevraldag‘i PF-5655-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi “Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995sonli Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
2. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
3. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
4. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.
5. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
6. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
7. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.
8. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe. – Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.

9. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America.– Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
10. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
11. Grant E.A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
12. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
13. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century.– Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
14. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
15. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>
16. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017.– p. 193.
17. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooksAccoun 2015. - 134 pp.
18. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
19. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
20. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
21. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
22. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
23. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
24. Aydin Arif oglu A. Xroniki musulmanskix gosudarstv I – VII vekov xidjri. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
25. Alimova D.A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istorya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
26. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. idr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

27. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKs Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
28. Bolshakov O. G. Iстория Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
29. Gabrielyan S. I. Iстория stran Azii i Afriki v novoye vremY. – Tashkent, 2012.
30. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
31. Yevropa mamlakalariva AQSH 1640-1918 yillarda. /A.Xolliyev tahriri ostida. –Toshkent: Universitet, 2010.
32. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.
33. Ignatova N.Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiY. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
34. Iстория noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. YE.Yazikova. – Moskva: Nauka, 2015.
35. Iстория noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945-2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.
36. Iстория srednih vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
37. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
38. Luchenkova YE., Myadel A. Iстория nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.
39. Matyoqubov X.X. Xorazm vohasi bronza asri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent. 2017.
40. Mommzen T. Iстория Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s. 138. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.
41. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladinin I., Novikov S. Iстория drevnego mira. Vostok, Gretsya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
42. Problemi istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
43. Rtveladze E.V. Iстория gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
44. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniY. – Yekaterinburg, 2015. 45.
- Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

46. Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dney. – M.: Litres, 2020. – 384 s.
47. Xoliqulova X. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so’z, 2017.
48. Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

IV. Internet saytlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.
2. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
3. www.ziyonet.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: www.gov.uz 5.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti: <http://www.edu.uz/modules/wfchannel> 6.
“Xalq so‘zi” gazetasi – www.infoxs.uz
7. “Turkiston” gazetasi – www.turkistonsarkor.uz 8.
“Ma’rifat” jurnali – www.ma'rifat-inform.uz
9. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – www.rzultacademyfreenet.uz 10.
“Moziydan sado” jurnali – www.moziydostlink.net